

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARDAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK 74:371.3

ISTAMOV ZAVQIDDIN SA'DULLAYEVICH

**O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATINING RIVOJLANISH
BOSQICHLARINI TALABALARGA O'RGATISH METODIKASI**

5A 111001-Kasb ta'limi (Amaliy san'at) mutaxassisligi

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

ILMIY RAHBAR

San'atshunoslik nomzodi,

dotsent. H.H.Jo'rayev

SAMARQAND - 2013

MUNDARIJA

Kirish	3-9
I BOB. O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATINING TURLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.	
1.1.-§. O'zbek xalq amaliy san'ati turlari haqida umumiy ma'lumot.	10-18
1.2. -§. O'zbek xalq amaliy san'atining tarixi va rivojlanish bosqichlari.	19-32
I-bob bo'yicha xulosa.	32
II-Bob. ZAMONAVIY AMALIY SAN'ATNING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI VA NAZARIY USLUBIY ASOSLARI.	
2.1. -§. Hozirgi davr amaliy san'atining turlari.	33-49
2.2. -§. O'zbek xalq amaliy san'atining ta'lim tizimidagi mohiyati.	50-53
2.3.-§. Amaliy san'atni ustoz-shogird an'analarida o'rganish.	53-60
II-bob bo'yicha xulosa.	61
III-Bob BADIY TA'LIMDA O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATINING TUTGAN O'RNI VA AMALIY TAJRIBALAR MOHIYATI.	
3.1. -§. Amaliy san'at turlarining kadrlar tayyorlashdagi tarbiyaviy ahamiyati.	62-69
3.2. -§. Amaliy san'at turlarini soha mutaxassislarini tayyorlashdagi o'quv uslubiy jarayonida tajriba-sinov o'tkazish.	69-84
Umumiy xulosa	85-87
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	88-90
Ilova.	91-92

Kirish

Mustaqil yurtimizning xalqini tanlab olgan yo'l – ochiq, erkig bozor iqtisodiyotiga asoslangan odil jamiyatdir. Bu davlat avvalo umumjahon sivilizatsiyasiga va o'zimizga xos milliy an'analarga, ijtimoiy qadryatlarga asoslangan.

Muhtaram prezidentimiz I. Karimov, mustaqillikka erishganimizdan so'ng, ayniqsa, xalqimizning chuqur o'tmishiga, uni o'rganishga va hunarmandchiligimizni tiklanishiga katta e'tibor berdilar.

“O'zbekiston chinakam mustaqiligiga erishishidan iborat, o'z yo'li respublikani rivojlantirishning asosiy o'ziga xos xususiyatlari va sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Avvalo, u aholining milliy – tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf – odatlaridan kelib chiqadi ” .¹

O'zbek xalqining azaliy turmush tarzi jamoatchilikga borib taqaladi. Shundanda bu xalq har bir bajaradigan ishlarini, jamoa yordamida qo'ni – qo'shni, qarindosh – urug'lar ko'magida bajarishga asoslangandir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, farzandlariga yaxshi ilim berish, kasb – hunar o'rgatish, mustaqil hayotga tayyolash va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi.

“Maskur mintaqaning qadimiy tarixi va madaniyati, bunda yashab o'tgan sharq mutafakkirlari, faylasuflari va usta hunarmandlarning jahon madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan g'oyat katta hissalar ham bu yerda yashayotgan odamlar turmushining barcha tomonlariga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. O'tmishdagi allomalar va hunarmandlarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma'naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta'sir ko'rsatmoqda”.²

O'zbek xalqining boy badiiy merosi, uning jahon san'ati tarixidagi o'rni,

1. I.Karimov “O'zbekiston buyuk kelajak sari” O'zbekiston 1998 yil 11-bet.

2. I.Karimov “O'zbekiston buyuk kelajak sari” O'zbekiston 1998 yil 12-bet.

taraqqiyot bosqichlari va zamonaviy yo'nalishlarini chuqur o'rganish hamda rivojlanish istiqbollari belgilash, milliy mustaqillik g'oyalari mos tadqiqotlarni amalga oshirish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

1991-yilda Respublikamizning mustaqillikka erishganligi milliy madaniyatimizning tarixini o'rganishda u haqida xolisona fikr bildirishga katta imkoniyatlar yaratildi. Osori-atiqalarimizni asrash, milliy qadriyatlarimiz, qadimiy boy tariximizni tiklashimizga imkoniyat tug'dirdi.

Yurtboshimiz I. A. Karimov madaniy merosimizni, o'tmish qadriyatlari mizni keng va har tomonlama o'rganish, hozirgi milliy ma'naviyatimizning chuqur tarixiy ildizlari shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berishda katta jasorat, buyuk tashabbus va beqiyos sa'y-harakatlarini amalga oshirdi.

O'zbekistonning istiqlool davri hayotining barcha sohalarida katta burilishlar yasadi, bu jarayon jamiyatning mazmunan boyish, uning jahon hamjamiyatiga qarab borishida namoyon bo'ldi.

Mustaqillik yillarida boy ma'naviy me'rosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobokalonlarimizning asarlari xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat va xalqaro miqyosida nishonlandi.

O'zbekiston xalqlari azaldan milliy-madaniy jihatdan g'oyat rang-barang bo'lgan. Milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishning kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni yangilash, uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi. Respublikamiz xalqlarining an'alarini tiklasi borasidagi sa'yi-harakatlari, shijoatlari, respublikamizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirgan.

“Respublikamizga jo'g'rofiy nazar tashlasak, u qulay geostrategik mavqeyiga ega joyda joylashganini ko'ramiz. Tarixan yutimizning xuddi shunday joy bo'lganki, bu yerda juda ko'hna savdo yo'llari, mashhur “Buyuk Ipak yo'li” tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bar-birini o'zaro boyitishi jarayoni kechgan”.³

Shundanda anglashimiz mumkinki “Buyuk Ipak yo’li”dan qanchadan-qancha karvonlar sharqu-g’arbni birlashtirib, ipak matolardan tortib ipak gilamlargacha bo’lgan bebaho mollarni jahonga tanitgan.

“Mustaqillik sharoiti tufayli yer, yer osti boyliklari, boshqa tabiiy resurslar, ko’p avlodlarning mehnati bilan barpo etilgan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy imkoniyatlar va aql-ziyo salohiyati, hunarmandchiligi odamlar farovonligining garovi va ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo’lib qoldi.

O’zbekiston kelajagi buyuk davlat, deb ta’kidlamoq uchun barcha asoslar bor...Eng muhimi – bu diyorda mehnatsevar va iste’dodli xalq yashaydi”.⁴

Muhtaram prezidentimizning xalqimizga bergan bu bahosi o’zining ijobiy intihosiga egadir. Mustaqillik sharofati tufayli har yili davlatimizning yirik shaharlarida ko’plab hunarmandchilik ko’rgazmalari tashkil etilib, bunga turli kasbga oid an’anaviy hunarmandchilik ashyolari namoyish etiladi.

1995-yilning kuz oyida BMT tashkil topganligining 50-yilligi munosabati bilan, Toshkent shahridagi Milliy bog’da ko’rgazma tashkil etildi. Ana shu ko’rgazmada Samarqandning zamonaviy ipak gilamdo’z hunarmandlari ilk bora davlatimiz rahbariyatining va xorijiy davlat diplomatiya vakillarining nazariga tushib, ularda katta qiziqish uyg’otib ularda ijobiy baho olishga sazovor bo’lishdi.

Gilamchilik san’ati eng qadimgi amaliy san’at turlaridan biri bo’lib kelgan.

Azaliy boy an’analarni o’zida mujassamlashtirib, o’zbek xalqi amaliy san’ati durdonalariga xosligi bilan, jahon qadim madaniyati taraqqiyotiga o’z hissasini qo’shgan. O’zbek gilamchiligining qadimgi an’analari, uning betakrorligi, jozibadorligi haqida, ko’plab olim san’atshunoslarimiz ilmiy jihatdan o’rganishib tahlil qilib chiqishgan.

“Tarixi yo’q xalqning – kelajagi yo’q!”*

Muhtaram yurtboshimiz I.A. Karimovning ushbu fikrlari, barcha jabha uchun hur fikrlilikka xos bo’lsada, aynan biz fikr yuritmoqchi bo’lgan, Samarqand

3. I.Karimov “O’zbekiston buyuk kelajak sari” O’zbekiston 1998 yil 13-bet.

4. I.Karimov “O’zbekiston buyuk kelajak sari” O’zbekiston 1998 yil 95-bet.

* I.A.Karimov - “Barkamol avlod - Orzusi”, “Sharq” nashriyoti Toshkent-1999.

zamonaviy gilamchiligi – azaliy an'analarini o'zida mujassamlashtirib, bugunning

yangi mavzu – matnlari naqshu-nigorlari serjilo ranglari bilan, kishi ko'zini quvontirib, diqqat e'tiborimizni o'ziga tortadigan darajadadir. Krng qamrovli amaliy san'at turi, gilamchilikning buguni, hoziri qay tarzda ekanligi, fikrlar doirasidan chetda qolmoqda.

Mavzuning dolzarbligi: Buyuk madaniy merosimiz vorislari-yoshlarimizda ajdodlarimiz yaratgan va zamondoshlarimiz yaratayotgan amaliy san'atimizning noyob durdonalarini sevish, asrab-avaylash, g'ururlanish va faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish badiiy ta'limning ustivor vazifalaridan hisoblanadi.

Badiiy ta'lim amaliy san'at fanlarini o'qitish misolida o'rta maxsus ta'lim muassasalari (kasb-hunar kollejlari)da yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimini o'rganish.

Xalq amaliy san'ati turlari, rivojlanish bosqichlari hamda markazlashgan maktablari uslublarini o'rganish.

Muammoning o'rganganlik darajasi: Mavzu yuzasidan fundamental adabiyot sifatida S.S. Bulatovning "O'zbek xalq amaliy-bezak san'at" ganchkorlik, yog'och, tosh va suyak va ganch o'ymakorligi, zargarlik, zardo'zlik, kandakorlik (misgarlik), kulolchilik, gilamdo'zlik, kashtachilik, pichoqchilik, savatchilik va boshqa amaliy san'at turlari xususida batafsil bayon etilgan. Ustoz-shogirdlik va to'garaklardagi badiiy ta'lim to'g'risida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Manbashunoslikning to'laqonli bo'lishi, boshqa manbalar to'plash va ularning tahlilini taqozo etadi.

San'atshunoslik doktori, professor Oz BA akademigi Akbar Hakimovning xalq amaliy san'ati muammolariga bag'ishlangan kitob, ilmiy ma'ruza va maqolalari mavjud.

Umumiy ma'lumot sifatida "O'zbekiston san'ati" mualliflar jamoasi yaratgan kitobdan foydalanish mumkin.

Akbar Hakimov, Elmira Gul, Asror Nizomov, Muhabbat Nizomova, Qoryog'di Jumayev va bir qator san'atshunos olimlarning davriy matbuot

(“Moziydan sado”, “San’at” va boshqa) jurnalida chop etilgan ilmiy maqolalar ma’lum darajada dissertatsiya uchun manba sifatida foydalanilgan.

Tadqiqot ob'ekti:

O'zbek xalq amaliy san'ati turlari tavsifi, ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, madaniy va ma'naviy meros sifatidagi munosabatlarning shakllanishi. Badiiy ta'limning amaliy san'at misolidagi tahlili. Zamonaviy badiiy jarayonda amaliy san'at.

Tadqiqot maqsadi:

O'zbek xalq amaliy san'atini o'rganish va o'rgatish orqali talabalarda estetik dunyoqarashni shakllantirish, boy madaniy merosimizni sevish orqali milliy g'urur xislatlarini uyg'otish.

Amaliy san'at turlari o'qitiladigan ta'lim muassasalari (Kasb-hunar kollejlari va oiliy ta'lim)dagi ta'lim tizimini o'rganish hamda tegishli uslubiy xulosalar chiqarish.

Ustoz-shogird tizimidagi amaliy san'at maktablari xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqot predmeti: Amaliy san'at fanlarini o'qitishda ilg'or pedagogic texnologiyalarni o'rganish, tajribali o'qituvchilar dars uslublarini ommalashtirish, taniqli ustalar dars jarayonini takomillashtirish, qobiliyatli talabalar o'quv va ijodiy ishlarini namunalaridan ko'rgazmalar tashkil etish orqali targ'ib qilish, shuningdek amalga oshirilgan asoslovchi bosqich tadqiqotlarimiz asosida ***ilmiy farazini*** quyidagicha shakllantirdik.

- ijtimoiy etuk raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlashning zamonaviy texnologiyasida xalq amaliy san'ati uslublaridan samarali foydalana olsa;

- o'quvchilardagi o'zlashtirish darajasini aniqlash va uning monitoringini kuzatib borish uchun mos ravishda mezonlar hamda bilim va malakalarni egallash sifatini xolisona baholash uchun test-savollar tizimlarini tayyorlay olsa;

Tadqiqot maqsadi va ilmiy faraz mazmunidan kelib chiqib quyidagi ***vazifalarni*** belgiladik:

- O'zbekistonda amaliy san'at turlari va yetakchi ustalar ishlarini rivojlanishini yoritish;

- Noan'anaviy dars tiplari – xalq amaliy san'ati muzeylari va amaliy san'at ustalarining ustaxonalariga tashrif (ekskursiya darslarini tashkil qilish) orqali talabalar bilim doirasi hamda dunyoqarashini kengaytirish;

Tadqiqot uslublari; ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-uslubiy, yozma manbalarni o'rganishda qiyosiy tahlil; tuzatish, anketa, suhbat, test-so'rovlar o'tkazish; olingan natijalarni YaAT vositalari yordamida qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari: dialektik bilish nazariyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda Respublika hukumatining Oliy ta'limni tashkil etish va rivojlantirish sohasidagi qaror va buyruqlari, DTS va mavzuga oid pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik manbalardagi nazariya va amaliyoti uyg'unligi; shaxs kasbiy sifatlarini rivojlanishida amaliy san'atning roli; barkamol shaxs tarbiyasining rivojlanishida Kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi g'oyalari; kasbiy va pedagogik ta'limning nazariy va amaliy asoslari.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati;

Tadqiqot natijasi "Amaliy san'at" haqida talaba va o'quvchilarda yetarli bilimlarga ega bo'lgan holda ta'lim tizimida ustoz-shogirdchilik an'analini zamonaviy ko'rinishlaridan foydalanish. Innovatsion hamkorlik ya'ni ta'lim muassasalarining amaliy san'at ustaxonalari va yetakchi ustalarning buyurtmalariga talabalar faoliyatini jalb etish. Shuningdek, O'zbek xalq amaliy san'atining namoyondalari va ularning asarlarini kuzatgan va o'rganilgan holatda o'rganuvchilarni amaliy san'at sohasidagi nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish. Tadqiqot natijalaridan san'at va milliy hunarmandchilik kollejlari o'quv jarayonida tadbiq etib, foydalanishlari mumkin. Shuningdek, amaliy san'at fakultetlari, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida metodik tavsiya sifatida foydalanishi mumkin.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati:

- kollejlarda o'qitiladigan tasviriy va amaliy san'at tarixi fanlarida manba sifatida foydalanish;
- namunali tizim yo'lga qo'yilgan o'quv ustaxonalarini ish tajribalarini rivojlantirish va ommalashtirish;
- unutilib borayotgan amaliy san'at turlarini uslubiy va o'ziga xosligini qayta tiklash borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib boorish;

Tadqiqotning tajriba-sinov maydoni. Samarqand Qurilish va milliy hunarmandchilik KHK va 1 son pedagogika kollejlari o'quv tarbiya – jarayonida kuzatish va tadqiqot ishlarini olib boorish;

Tadqiqot natijalari quyidagi anjumanlarda ma'ruza qilindi va muhokamadan o'tkazilib ma'qullandi: Samarqand Davlat arxitektura qurilish institutida o'tkazilgan "Iqtidorli yoshlar va ularning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish" mavzudagi yosh olimlar, magistrant va talabalarning an'anaviy X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtirok etib ma'ruzalar o'qildi.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi:

Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, umumiy xulosalar, 45 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, 6 nomdagi internet sayti bo'lib, umumiy hajmi 92 sahifani tashkil etadi.

I BOB. O'zbek xalq amaliy san'atining turlari va rivojlanish bosqichlari.

1.1.O'zbek xalq amaliy san'ati turlari haqida umumiy ma'lumot.

O'zbekistonning barcha hududlarida xalq san'atining o'ziga xos markazlari bo'lib, ular jahon madaniyatiga buyuk badiiy qadriyatlari bilan hissa ko'shgan. Bu qadriyatlar haqli ravishda xalq, san'atining ramzi bo'lib qoldi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona vodiysi, Xorazm va Qoraqalpog'istonda yuzaga kelgan kulolchilik (sirkor va guldor sopol buyumlar), yog'och va ganch o'ymakorligi, naqshinkor bezak va kandakorlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, sholchado'zlik va chitgarlik, zargarlik san'ati, charmga bezak tushirish san'ati, lokli miniatyura hamda kitob miniatyurasi hozir ham mavjud. Zangori-lojuvard, cho'g'dek qip-qizil sopol ko'zalar, laganlar, yog'ochdan o'ymakori va naqshinkori qilib yasalgan milliy xontaxtalar, qo'lda to'qilgan gilamlar, miniatyuralar, marg'ilonlik, xivalik va toshkentlik ustalar tomonidan qizil misdan yoki tillarang jezdan yasalgan, qimmatbaho metalldek yarqirab, shaklan nafisligi hamda naqshinkorligi bilan ajralib turuvchi buyumlar va, ayniqsa, kandakori idishlar mehmon bo'lib kelgan xorijiy davlatlar boshliqlariga tortiq qilingan, Ustalarimiz yaratgan nodir buyumlar AQSH davlat kotibi Xillari Klinton xonimga, «Temir xonim» Margaret Tetcherga, Indira va Radjiv Gandilarga, Yaponiya imperatoriga, jahondagi ko'plab mamlakatlar muzeylariga tuhfa qilingan va ular tomonidan ardoqlab saqlanmoqda.

«Musavvir» xalq san'ati ilmiy-ishlab chiqarish markazi, «Nigoriston» Respublika xalq san'ati firmasi mutaxassislarining ko'p yillik g'ayrat-shijoati natijasida O'zbekiston ko'hna san'atining o'ttizdan ziyod turining siri qayta aniqlandi, mingdan ortiq iste'dodli yoshlarga ushbu ko'hna hunar o'gatildi. Shoyi, paxta, tut po'stlog'idan qadimgi Samarqand shohi qog'ozini tayyorlash, xilma-xil adras, olacha mato va shu kabi shoyi matolarni qo'lda to'qish, qog'ozga, shoyiga, charmga miniatyura chizish, ip-gazlamaga gul bosish usuli qayta tiklandi. Unutilgan kandakorlik san'ati, milliy zargarlik buyumlarini tay-

yorlash qayta rivojlantirildi. Tukuvchilikda, kulolchilikda, shisha hamda sirkorlik bilan bog'liq sohalarda foydalaniladigan pishiq-puxta bo'yoqlarni mahalliy resurslardan tayyorlash tex- nologiyasi xam aniqlandi.

Amaliy bezak san'atiga bag'ishlangan ushbu va keyingi al'bomlarda O'zbekistondagi barcha asosiy milliy san'at markazlari: G'urumsaroy va Rishtonda, Qo'qon va Andijonda, Samarqand va Shaxrisabzda, Denov va Urgutda, Xonqa va Nukusda, Buxoro va Toshkentda, Zomin va Baxmalda ishlab turgan xalq ustalarining asarlari haqida gap boradi. Mazkur markazlarning barchasida qadimgi ustalarning an'analari avaylab saqlanmoqda va ijodiy rivojlantirilmoqda.

Bu an'analardan yangi vazifalarni hal qilish yo'lida foydalanish O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati rivojlanishining muqarrar shartidir. Ushbu san'atda ham xalq xarakterining nozik xususiyatlari, uning estetik qarashlari, dini, atrof-muhitga munosabati, iste'dodi xuddi afsonalardagi, musiqa, she'riyat va raqsdagi singari o'z aksini topgan.

O'zbekistonda amaliy san'atning juda keng yoyilgan turi kulolchilik san'atidir. Bu san'at ildizi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologlar tomonidan respublika hududida topilgan sopol buyumlar qadimgi ustalarning dahosidan hamda shaklning sarmazmun va lo'ndaligidan dalolat beradi. Bular — sopol laganlar, likopcha va piyola, kosalar, ko'zalar, xumchalar, shaklan xilma-xil idishlar va boshqalar. Aholi va mehmonlarda ularga ehtiyoj avval ham katta bo'lgan, hozir ham katta. Bu buyumlar shaklan go'zal, naqshinkor, bir me'yorda rang berib, yuksak is- te'dod va did bilan yasalgan hamda san'at darajasiga etkazilgan.

O'zbek keramikasi ikki turga: sirkor va sopol keramikaga bo'linadi. Hozirgi kunda keramika markazlari respublikaning Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, G'ijduvon, Rishton, Qo'qon, G'urumsaroy, Kasbi, Uba, Denov, Madir, Yangi-ariq kabi shaharlarida joylashgan. Farg'ona vodiysi va Xorazm sopol buyumlari ko'k-oq-yashil ranglarda tovlansa, Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent, Buxoro sopoli jigarrang-sariq tusda tovlanadi.

Naqshinkor bezaklarning qo'llanilishi va talqinida an'analarning rang-barangligi namoyon bo'ladi. Kulollar buyum yasashar ekan, naqshinkor rasm, rang va shaklning murakkab nisbatini nozik his etishadi. Buni mashhur kulol ustalardan A. Muzaffarov, M. Obloqulov, R. Matchonov, I. Komilov, X. Sotimov, M. Rahimovning muzey to'plamlarida saqlanayotgan asarlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Rishton va G'urumsaroy kulollarining ijodi nozik islmiy naqsh bilan ajralib turadi. Shu naqsh uzra ro'zgor buyumlari va atrof muhit elementlari — ko'za, pichoq, anor va bodom mevalari tasviri tushiriladi. Xorazmning ko'k-oq-yashil rangli sopoli me'moriy qoplama keramika (mayolika) bilan bezatiladi. Unda ko'k yoki yashil fondagi oq chirmoviq tasvirlanadi. Islmiy naqsh handasaviy shakllar bilan hoshiyalanadi.

Toshkent, Buxoro va Samarqand keramikasi alohida ranglari va bezash usullari bilan ajralib turadi. Unda nuqtali va sariq-yashil rangdagi bezak islmiy naqsh bilan yo'g'rilib ketadi. Idishlarda anor mevasi, tovuş patisimon gullab turgan shoxchalar tasvirlanadi. Xalq ustalari mo'yqalamda naqsh chizish bilan birga o'yma, kesma hamda bosma naqshdan ham foydalanishgan va hozir ham foydalanib kelishmoqda.

O'zbekistonda mayda dekorativ sopol plastikani Uba, Kasbi, Samarqand kulollari tomonidan ertaklar olamidān olib yasalgan an'anaviy o'yinchoklarda ko'rish mumkin. Hamro Rahimova va Anbar Sattorova yaratgan g'aroyib hushtaklar, fantastik fillar, Abduraim Muxtorov va Vohid Ilhomov yasagan, lirik yumor va mug'ombirona tabassum bilan yo'g'rilgan haykalchalar xalqning yorqin va quvnoq bezakka xamda fantaziyaga mehri balandligidan dalolat beradi.

O'zbekiston xalq san'atida me'moriy badiiy naqsh san'ati muhim o'rin tutadi. San'atning bu qadimgi turi O'rta Osiyo me'morchiligi xususiyatlari, naqshga mehr va mahalliy qurilish materiallari taqozosi bilan yuzaga kelgan.

Yurtimizda me'morchilik qadim-qadimdan yuqori darajada rivojlangan. Bunga tarixiy obidaiarimiz masjidlar, maqbaralarni misol qilishimiz mumkin.

Bu imoratlarda ota-bobolarimizning didi, dunyoqarashi, bilim saviyasi, qurilish madaniyati nechog'lik yuksak saviyada ekanligi ko'rinib turibdi. O'zbek diyorida bobokalonlarimiz yaratgan barkamol teran mazmunli va tarixan bebaxo san'at asarlari jahon madaniyati durdonalari qatorida o'rin olgan. Qo'li gul ustalar yaratgan san'at durdonalari kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi. Yodgorliklarda quyosh nurida tovlanayotgan sarkor koshinlar nafis naqsh-nigorlar beixtiyor kishilarni o'ziga maftun etadi. Bu naqsh-nigorlar bir necha asrlar oldin yaratilgan bo'lsa-da hozirgacha o'z nafosatini ko'rkini yuqotgani yo'q. Bunga biz Samarqanddagi me'moriy obidalarni keltirishimiz mumkin. Tosh, sopol, materiallarda o'z aksini topgan oddiy xalq tomonidan kashf etib yaratilgan bu manumental binolar o'zining bejirimligi va mahobatlilik bilan kishilarni hayratga solmoqda. Bularni yaratgan ustalar o'z bilimi yuksak mahoratlari evaziga shundan o'lmas asarlarni yaratib toshlarga muhrladilarkim, ular hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

V. Gyugo aytganday, "Odamzod ongida paydo bo'lgan eng ahamiyatli fikrlarni toshga bitib ifodalaydi, chunki qog'ozga bitilgan qo'lyozmalarda har qanday buyuk g'oyalar bo'lmasin ular vaqt o'tishi bilan yo'qolishi mumkin, lekin qurilgan bino-bu toshda ifodalangan boshqaga bir kitob bo'lib, u bir umr chidamlidir¹". Hozirda bu nodir yodgorliklarga hurmat uni avaylab asrash ta'mirta'lab jaylarini ta'mirlab restavratsiya qilishdan iborat. Yodgorliklar davlat qaramida. Mana O'zbekistonimiz mustaqillikga erishgandan beri rassomchilikga, amaliy bezaklarga naqqoshlik, yog'och o'ymakorliga va boshqa san'at turlariga keng yo'l ochib bermoqda. Bu soha vakillariga turli sharoitlar mukofotlar rag'batlar ta'sis etilmoqda. Prezidentimiz ham hunar egallagan yoshlarga shu san'at rassomchilik a'zolariga ham yordam berib ularni quvvatlamodalar.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: Badiiy Akademiya tashkil etish munosabati bilan ma'daniy ishlar vazirligi qoshidagi amliy san'at, rassomchilik, dizayn sohadaridagi tashkilot va korxonalar negizida maxsus ishlab chiqarish birlashmasi tuzilsin."

“Tasviriy va amaliy bezak xalq hunarmandchilik sohasidagi yuksak badiiy asarlar yaratgan ijodkorlar mehnatiga munosib baho berish ularning moddiy va ma’naviy rag’batlantirish maqsadida eng yaxshi asarlar uchun beriladigan Kamoliddin Behzod nomidagi davlat mukofoti ta’sis etilsin”.²

Mana shunday yuksak mukofotlar ta’sis etilgan bo’lib ustalar nafaqat qaysi sohada mehnat qilayotgan san’at arboblari e’tibor hurmat ko’rsatilmoqda. Jumladan biz milliy hunarmandchiligimizni necha yillardan beri davom etib kelayotgan avloddan-avoldga ota kasbi sifatida shakllanib kelayotgan hunarmandchilik, ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, g’ishtkorlik va bir qancha turlari bor. Bu kasblar juda qadimdan otabobolarimiz shug’ullangan bu kasblar juda sermashaqqatligiga, nafisligi, juda ko’p vaqt sarf bo’lishi bilan boshqa kasblardan ajralib turadi.

Bunday mayda ishlarni xam xamma bajaravermaydi chunki bu kasb kishidan sabr, chidam va matonatni talab qiladi. Qadimiy san’atlardan yana biri amaliy bezak san’atidir. “Amaliy bezak san’ati juda qadimiy bo’lib kishilarning mehnat faoliyatlari extiyojlari bilan bog’liq holda paydo bo’lgan deb taxmin qilinadi”³. Uyg’onish davrigacha u uy hunari shaklida keyin xalq badiiy hunarmandchiligi tariqasida shakllanadi. Amaliy bezak san’ati hozirda ham rivojlanib har xil maktablari bor. Naqqoshlik, ganchkorlik, koshinkorlik, yog’och o’ymakorligi, g’ishtkorlik va boshqalar.

Bu esa o’z davri obidalarining qurilishi va bezalishida foydalanilgan. Unga davrning ustalari o’z ishining fidoyisi va o’z ishini juda bilgan buni biz yodgorliklar misolida yaqqol ko’rishimiz mumkin. Bobokalonlarimiz Amir Temur o’z davrida buyuk madrasalar, xonaqohlar, saroylar, qo’niqlar, bog’u-rog’lar qurdirgan. Albatta bunda ustalardan, koshinkor naqshkor va o’z ishining fidoyilarini to’plab ish bajarganlar. Bu esa qancha kuch mehnat, vaqtni talab

1. I.A. Karimov. Ma’naviy yuksalish yo’lida Toshkent 1997 yil 23 yanvar

2. I.A. Karimov. Ma’naviy yuksalish yo’lida Toshkent 1997 23 anvar

3. Rahim Hasanov - «Amaliy bezak san’ati mashg’ulotlar metodikasi » Toshkent - 2003 y 3 bet.

etgan. Amir Temur ustalarni o'zi shaxsan bajarayongan ishlarini nazorat qilib turgan. Bu esa yaxshi natijalarni bergan. Ustalar ham o'z ishlarini sitqidildan bajarganlar. Biz bilamizki bizgacha ko'pgina yodgorliklar etib kelgan. Ulardan, registon ansambili, Shoxizinda, Go'ri Amir makbarasi, Bibixonim masjidi, Hazrati Xizir masjidi, Bixoroda Somoniylar maqbarasi va Shaxrisobzdagi Oqsaroy kompleksi va boshqalar.

Ganch (gips) va yog'och o'ymakorligi hamda bezagi turar joy ichini bezashda doimo qo'llangan. Bu san'at hozirgi kunda ham binolarning zamonaviy me'moriy konstruksiyasi hamda detallari uzviy va funksional jihatdan to'ldirib kelmoqda, ma'muriy hamda jamoat binolarini bezashda muvaffaqiyat bilan ishga solinmoqda. Ayni mahalda xalq ustalari O'zbekiston dekorativ-naqsh san'ati an'analarga xos betakror uyg'unlikka erishgan holda, zamonaviy arxitekturaning qat'iy va konstruktiv elementlarini buzishmaydi. Ustalar naqshinkor kompozitsiyaning, bir tekis to'qilgan jimjimador medal'onlar, handasaviy to'r, gullab turgan butoqlar, o'ziga xos milliy ohang to'la vazonlar bilan to'ldirilgan nafis namoyonlarning ko'plab variantlarini tayyorlashadi, biroq bunda me'yorni buzishmaydi.

Qo'qonlik Qodirjon Haydarov, toshkentlik Saidazim Qosimov va Nigmat Ibrohimovlar XX asrda O'zbekistonda yog'och o'ymakorligida dong taratgan naqqoshlar hisoblanadilar. Hozirgi kunda yog'och o'ymakorligi zamonaviy me'morchilikning ommalashib ketgan bezagi va o'zbek amaliy bezak san'atining gurkirab rivojlanayotgan turiga kiradi. Iste'dodli va salohiyatli yosh ustalar Ortiq Fayzullaev rahbarligida inshootlar uchun me'moriy detallarni — shift to'sinlari, muqarnaslar, karnizlar, eshiklar, ustunlarni va shu kabilarni yaratish bilangina chegaralanishmayapti. Ular O'zbekiston aholisi mehmonlari uchun nakqshinkor qutilar, qalamdonlar, lavhdar, turli ko'rinishdagi kursi hamda kursichalar ham yasashmoqda.

XX asrda yog'och va ganchni nakqshinkor bezash bilan ustoz naqqoshlardan Yoqubjon Raupov, Toir To'xtaxujayev, Jalil Hakimov, Madamin Husanov, Saidmahmud Norqo'ziev shug'ullanishgan. Ular yangi naqshinkor

bezak maktabini yaratishgan.

Bu ustalarning shogirdlari Anvar Ilhomov, Sobirjon Shukurov, Baxtiyor Rahmonberdiev, Nosir Nabiev, Jamolitdin Erkaboev, Abdusamat Mahmudovlar ustozlarining jamoat, ma'muriy va turar joy binolarini bezash bo'yicha an'analarini ham davom ettirib, rivojlantirishdi. Naqshinkor-bezakli buyumlar — ko'p qirrali naqshinkor kursilar, o'rindiqlar, qutilar, pardalar, ko'zalar ko'rgazma, muzey, badiiy salonlar hamda yarmarkalarga kelganlarning ko'zini quvontiradi.

Zamonaviy intererni bezashda milliy uslubdagi ganch o'ymakorligi katta o'rin tutadi. Uning bisotida jimjimador islmiy handasaviy bezaklar ham bor. O'zbek ustalarining ganch o'ymakorligi san'atida hajmdor muqarnasli karnizlar (sharafa)ni murakkab handasaviy uslubda tayyorlash hamda nafis panjara naqshlar alohida soha bo'lib, ular quyma usulda, qo'lda pardoqlab tayyorlanadi.

O'zbekistonda Termiz, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va Farg'ona ganch o'makorligi maktablari mavjud. Ularning har biri o'z o'ymakorlik uslubi bilan farqdanib turadi. Sovuq oppoq ganchga ustalar iskanasi jon ato etib, uni xayolot, ohang, bezak hamda harakat bilan mujiza yaratadi.

Taniqli ganchkor ustalar Mahmud Usmonov, Ibrohim Shermuhamedov, Anvar Quliev, Jamolitdin Erkaboev, Odamboy Yoqubov, Odamboy Bobojonovlar iste'dodli yosh ustalarga xalq san'atining ushbu ko'hna turini o'rgatishdi. Endilikda bu shogirdlar ganch o'ymakorligi an'analarini davom ettirishmoqda.

O'rta Osiyoda toshqog'oz yoki mag'zi soxta (pape-mashe) tayyorlash va undan tayyorlangan anjomlarga loklangan bezak berish XV asr boshida ravnaq topgan edi. Samarqanddagi Go'ri Amir majmuasi va jome masjidi ichki qoplamasidagi toshqorozdan ishlangan muqarnas va iroqilar shu san'at namunalaridir. Ushbu materialdan tayyorlangan qalamdonlar, kitob jild (muqova)lari, qutilar, ko'zachalar, shohmotlar hamda zargarona nafis naqsh bilan ziynatlangan boshqa mayda buyumlar asrlar osha bizgacha etib kelib, hozir respublika muzeylarida avaylab saqdanmoqda.

O'rta Osiyodagi ko'plab xalqlarda qovoq (kadi)ning dekorativ turlaridan xilma-xil buyumlar, idishlar, nosqovoqdar tayyorlab kelingan. Qovoqning dekorativ turlari maxsus yetishtiriladi. Uning sirti o'ziga xos tarzda badiiy bezatiladi. Qovoqni qanday bezatish uning shakliga bog'liq. Qovoqning turfa xil shakllari mavjud bo'lib, ularning naqsh berilgan sirtiga folklor mavzusidagi, fantastik mavjudotlar hamda voqelik elementlaridan iborat har qanday rasm konturi chiziladi. Unda odam, hayvon qiyofasi, uy-ro'zgor buyumi, o'simliklar, parrandalar, samolyotlar, avtomobillar, yulduzlar, sanalar aks ettirilishi mumkin. Nosqovoqdar, ayniqsa, naqshinkor kumush gardish bilan yarimqimmatbaho toshlar qadab bezatiladi. San'atning bu turi mayda qovoq (nosqovoq) yetishtirishga mirishkor hududlarda ko'proq tarqalgan.

Milliy pichoqchilik O'zbekiston amaliy san'atida metallga badiiy ishlov berishning o'ziga xos sohasidir. Pichoq charm applikatsiya va kandakori metall qoplama bilan bezatilgan qinga solinadigan qilib tayyorlanadi. Pichoqdar, tayyorlanadigan joyning mahalliy xususiyati va pichoqchilik maktablari an'analarga ko'ra, shaklan rang-barang bo'ladi. Pichoqchi ustalar pichoqni damidan tortib, yaxlit yoki yig'ma metall, yog'och yoxud suyakdan tayyorlangan sopi (dastasi)gacha qadama, chekma yo bo'yama naqsh bilan bezatishadi.

O'zbekiston milliy kashtachiligi uy-joy ichki ziynatini, me'moriy bezak bilan bir qatorda, o'ziga xos tarzda to'ldiradi. Ko'plab asrlar davomida Buxoro, Urgut, Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Samarqand, Toshkent, Namangan, Piskentda kashtachilikning mahalliy badiiy uslubi va yirik markazlari yuzaga kelgan. Kashtachilar katta matoga o'zlari chizgan naqshinkor kompozitsiyani igna bilan tikib chiqish uchun ko'p vaqt va mehnat sarflashadi. Kashtada naqsh tabiat va atrof dunyo go'zalligining poetik in'ikosidir. Yirik dekorativ buyumlar-so'zana, palak, gulko'rpa, joypo'sh (taxmon parda), tokchapo'sh, kirpech, zardevor, joynamoz, ro'yjo va boshqalar doyra, to'pbarggul (naqshi girdob), nozik-nihol gul, yaproqlar, qushlar, hayvonlar tasviri bilan naqshlanadi. Qo'lda tikiladigan dekorativ kashtachilik an'analari Urgut, Qo'qon, Buxoro, Toshkent va Qoraqalpoq, kashtachilari ijodida yashab, rivojlanib kelmoqda.

Gilamdo'zlik va sholchado'zlik O'zbekistonda to'qimachilikning eng qadimgi turlaridan biridir. Ular uch turga — qisqa patli gilam, uzun patli gilam — julxirs va taqir gilam (sholcha)ga bo'linadi. To'qimachilikning bu turida yigirilgan jun, paxta ip va ipak ishlatiladi. Qisqa patli gilam Farg'ona vodiysida, Qashqadaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlarida hamda Qoraqalpog'istonda to'qiladi. Bunday gilamda qizil-jigarrang o'zaro uyg'unlikda beriladi, handasaviy va islamiy shakldagi rangdor detallar bilan bezatiladi. Bu gilamlar oddiyligi hamda ranglar tiniqligi bilan ajralib turadi.

Julxirs (tojikcha ayiq juni) gilamlar ko'proq Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida tarqalgan. Ular naqshiga ko'ra juda sodda, ranglar uyg'unligiga ko'ra ko'zga tashlanuvchandir. Ayollar gilam tuo'qishni tugallar ekanlar, ishni oxiriga etkazmay, uning qayerinidir chala qoldiradilar. Bu ko'hna an'ana bizning kunlarga yetib kelgan bo'lib, aytishlaricha, gilamdo'z ayollar keyingi ish avvalgisidan yaxshiroq chiqsin, degan niyatda shunday qilar ekanlar. O'zbekistonda to'qiladigan taqir gilam turi va ijro texnikasiga ko'ra rang-barang. Taqir gilamning ko'xma, terma, gajari, arabi, beshkashta va boshqa turlari mavjud.

O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati muttasil tiklanmoqda, shiddat bilan rivojlanmoqda va yuksalmoqda. Respublikada ishlab turgan xalq ustalari safi kengayib borayotgani, xalq san'atining kashtachilik, gilamdo'zlik, sholcha to'qish, pichoqchilik, savat to'qish, zargarlik, ganch hamda yog'och o'ymakorligi va naqqoshligi, lok va qog'ozda miniatyura, kulolchilik va h.k. turlari ko'payib borayotgani shundan guvohlik beradi. Bu esa mustaqillik davrida mamlakatimizda madaniyat va san'atni rivojlantirish, kishilarni intellektual va axloqiy kamol toptirish uchun qulay sharoit ko'proq yaratilayotganining dalilidir.

Ushbu albomda O'zbekistondagi zamonaviy xalq san'atining qadimgi va ikki nodir turi — kandakorlik va zargarlik san'ati namunalari haqida gap boradi. Bular milliy san'atning qadimgi va zamonaviy ustalar yaratgan, mamlakatimizdagi hamda xorijdagi muzeylar to'plamlarida sakqlanayotgan

chinakam durdonalaridir.

1.2. O'zbek xalq amaliy san'atining tarixi va rivojlanish bosqichlari.

Amaliy bezak san'atning alifbosi bo'lgan naqsh va naqqoshlik san'ati xalq amaliy san'atining qadimgi turlaridan biridir. Insoniyat yaratgan nafosat durdonalarining sarasi naqsh bezaklari amaliy san'atning barcha turlarida namoyon bo'libgina qolmay, bino va inshootlar me'moriy bezaklarida ham keng qo'llanilgan.

Naqsh tarixi insoniyatning badiiy madaniyati bilan bir qatorda nihoyatda qadimiylidir. Hali yozuv vujudga kelmasdan burun chizmatasvir yozuv vazifasini bajargan. Madaniyat rivoji jarayonida unda rassomlik bilan naqqoshlik ajralib chiqqan. Arxeologik manbalar ham naqsh dunyoning hamma xalqlarida qadimdan mavjud bolganligidan dalolat beradi. Metal, sopol buyum, idish, qurollar, paleolit, neolit davrlarida geometric (xandasaviy) shakllar bilan, Miken san'atida, Qadimgi Eronda, Xitoy va Hindistonda geometric shakllar qatorida o'simliksimon (islmiy) naqshlar bilan bezatilgan. Naqshlardagi ramziy elementlar turli o'lkalarda, xalqlardagi geografik muhit, o'lkaning o'simlik va hayvonot dunyosi, madaniyati ta'sirida shakllangan va rivoj topgan.

Naqshning eng jozibadorligi va yuksak pog'onaga ko'tarilishi uyg'onish davriga to'g'ri keladi. XIX asrning oxiridan boshlab shu davrda vujudga kelgan turli oqimlar naqshdan foydalanishni o'ta kamaytirib, hatto keyinchalik butunlay undan voz kechish kuzatildi.

Naqsh chizish, naqsh yaratish – naqqoshlik xalq amaliy bezak san'atining asosiy va qadimiy turlaridan biridir. O'rta osiyo hududidagi me'moriy yodgorliklar, arxeologik topilmalar o'lkamizda bu san'at qadimdan rivojlanganligidan darak beradi. Me'morchilik, kulollik, misgarlik, zargarlik, chilangarlik, kashtado'zlik singari kasblarning taraqqiyoti naqqoshlik san'ati jivojiga borib taqaladi. Ajdodlarimizning yuksak ma'naviyatini Qo'yqirilgan qal'a, Tuproqqal'a, ko'hna Urganj, qadimgi Termiz, Ayritom, Varaxsha, Afrosiyob va boshqa joylardan topilgan naqsh namunalariining jozibadorligidan bilib olish mumkin.

Diyorimizning turli viloyatlarida naqsh bilan ziynatlangan me'moriy yodgorliklari, idish, buyum, mehnat qurollarida umumiylik kuzatilsada, Buxoro, Xiva, Farg'ona va boshqa joylarning o'ziga xos naqsh uslublari, keyinchalik maktablari shakllangan. Naqqoshlik avloddan avlodga o'tgan, otalari ustozlaridan o'rgangan naqsh namunalarini shogirdlar tajriba va iste'dodlari orqali rivijlantirganlar.

O'zbek naqqoshlari asosan ko'k (lojuvard) zangori (havo rang, osmoni), yashil, sariq, qizil, oq, qora ranglarda naqsh ishlaydilar. Naqqoshlikning uslublari avloddan-avlodga o'tgan. (masalan, axtadan foydalanish, bo'yoq tayyorlash, oldin naqshning asosiy chiziqlarini chizib, zaminni bo'yab olish va hokazolarni), lekin yozib qoldirmagan. Ustaning naqsh ishlash sirlarini faqat shogirdlarigina yaxshi bilganlar.

Naqsh san'ati O'rta Osiyo madaniyati tarixida eng qadimiy bo'lib, o'ziga xos namunalari bilan diqqatga sazovordir. O'rta Osiyoda keng tarqalgan naqshlar ikki turga: geometric (xandasaviy) chiziqlar va shakllarning murakkab ko'rinishi girix deb nomlanadi. O'simliksimon tasvirdagi naqshlarning keng tarqalgani, islimiy deb ataladi. Namoyon, ruta, munabbat, turunj, zanjira xilidagi naqshlar islimiy kompozitsiyani tashkil etadi. naqqoshning malakasi va yuksak mahorati aniq o'lchamdagi eiementlarning ohangdorligi, did bilan tanlangan ranglarning o'zaro mutanosibligini ta'minlaydi. O'rta Osiyoning eng qadimiy naqsh namunalarini asosan me'moriy obida va inshootlarda ko'rish mumkin. Naqshning ajoyib ko'rinishlari ganch, yog'och va tosh o'ymakorligi, yog'och(ustun, bolor, vassa va boshqalar)ni bo'yab ishlash orqali amalga oshirilgan. Bizgacha yetib kelgan qadimiy zargarlik va misgarlik san'ati noyob namunalarida ham ajdodlarimizning nozik didi, mohir qo'li va teran zakovati bilan yaratilgan naqsh bezaklarini o'sha turlarga xos bejirim yechimlarda bajarilganligi kishini hayratga soladi. Masalan Dalvarzintepadan topilgan oltin zirak (er. III asri) ixcham aylanma (silindrik) sirt yuzasi oddiy ritmik jihatdan nihoyatda mutanosib joylashtirilgan to'rt bargli gul naqsh bezagi tushirilgan.¹

1.Luneva Valintina "O'zbekistonda bosh kiyimlari tarixidan", "San'at" jurnali 3-4. 2005 yil 10 son.

Mintaqadagi yirik kulolchilik markazi Samarqand hisoblangan. Bu yerda sirlangan sopol idishlari ishlab chiqarishning rivoji VIII asr oxiridan boshlangan. Kulolchilik mahsulotlarining ajoyib namunalari Samarqandning qadimiy shahri hisoblangan Afrosiyobdan topildi. Sopol parchalari undagi sir va bo'yoqlarning yuksak sifati, shakl va bezakning mukammalligini ko'rsatadi. Bu yerda idishlar yopiq (ko'za va xumchalar), ochiq(lagan, kosa va shokosa) shaklda ishlangan bo'lib, nozik va bejirim ranglar bilan bezatilgan. Bu bezaklar asosan o'simlik yoki girixiy, ba'zan esa qush, hayvon va odamlarning uslublashgan tasviridan iborat bo'lgan.

O'rta Osiyo, umuman, barcha musulmon davlatlari kulolchiligida arab yozuvi epigrafik bezak butunlay yangicha bezak yo'nalishida namoyon bo'lgan odatdagi oq yuzaga tushirilgan yozuvni endi kulol-rassom jigarrang, qora, ba'zan qizil rangda bitgan. Yozuv kosa va laganlarda hoshiya bo'ylab yoki tubiga ko'ndalangiga bezak tarzida joylashtirilgan.

Yozuvli bezak tadrijini uning ikki asosiy turi bo'yicha kuzatish mumkin; chiziqlarning geometric aniqligi va harflarning umumiy rasoligi oddiy kufiy yozuviga xos; gullayotgan kufiy kamroq uchraydi. Bu yozuv asosan me'morchilikda hattotlik uslubida harflarning uchlari kengaytirilgan holda beriladi. Ular o'simlik guli va unga uyg'unlashib ketgan shoxlarga aylanadi. X asrda va keyinchalik kulolchilikda qiya bosma harflar keng qo'llanilgan.

Arablar istilosi oqibatida tarqalgan islom dini o'z urf odatlari va madaniyatini kirib kelishi amaliy bezak san'ati, jumladan naqshning ravnaqiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Bino, buyum, kiyim, idish, qurol naqsh bilan bezatilishi jamiyat va davr talabi bo'lib qoldi. Masjid, xonaqoh, madrasa, maqbaralarni jimjimador, hashamatli bo'lishida naqshning ahamiyati beqiyos bo'ldi. VIII-X asrlar me'morchiligida g'ishtni naqshinkor qalash san'ati yuksak darajaga ko'tarildi.

Buxoroning eng qadimiy yodgorliklaridan biri X-asrda (taxminan 864-868yy.) Somoniylar sulolasi asoschisi tomonidan qurilgan Ismoil Somoniy maqbarasidir. Bu yodgorlik ajoyib ziynatli turli jimjimador naqshlari va murakkab

gumbazi tomli konstruksiyani qo'llagan binokorlarning muhandislik mahorati jihatidan ham jahon me'morchiligining eng mukammal asari hisoblanadi. Cheklangan tasvir vositasi g'ishtning o'zidan ham qurilish ashyosi sifatida mantiqiy naqshinkorlik hamda o'ta nafis badiiy kompozitsion mukammallikni yaratilishi ajdodlarimiz zakovati va mohirligidan dalolatdir.

Naqshinkor bezaklar bilan jilolangan O'zbekiston me'moriy yodgorliklari butun dunyo sayyoh, o'lkashunos, san'atshunos olimlarining e'tiborini tortmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo'qon, Farg'ona, O'gan kabi shaharlarning betakror qiyofasini yaratgan qadimiy me'morlarining yuksak mahorati va badiiy tafakkuri hanuzgacha kishilarni hayratga solib kelmoqda.

Yodgorlik binolarining bezaklari xilma-xil va sermazmundir. Ular binolarning funksional vazifasi hajmiy mutanosibligiga mos kelib, xalq madaniy an'analarini o'zida ifoda etadi. Me'moriy binolar bezagida o'simliksimon, handasaviy va epigrafik naqsh turlari uyg'unligida jozibali kompozitsiya yaratilgan. O'rta Osiyo san'atida o'rta asrlarda paydo bo'lgan girih naqshlar keng tarqalib, hozirgi yog'och, ganch, tosh o'ymakorligi, kulolchilik, g'isht terish, mozaika va devor naqshlarida foydalanilmoqda.

Girih san'ati, ayniqsa IX-XII asrlarda ravnaq topdi. U tekis va bo'rtma yuzalar hisobi usullarining takomillashuvi natijasida peshtoq hamda ravoq kabilarni bezashda ham ishlatildi.

XIV-XV asrlarda koshinkorlik san'ati rivojlanib, bin ova inshoatlar serjilo ranglar berib tayyorlangan koshin hamda parchinlar bilan qoplanib ajoyib naqshlar bilan bezatildi. Masalan ko'hna urganjdagi Torabekxonim maqbarasi, Samarqanddagi Shoxi Zinda ansambili, Ishratxona, Oqsaroy va boshqa me'moriy yodgorliklar ana shunday uslubda sayqal topgan.

Amir Temur davrida Samarqandni ilm-fan, san'at va madaniyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Amir Temur yuksak madaniyat va ma'naviyat homiysi bo'lgani uchun bepoyon davlati hududlaridan olimlar, shoirlar, musavvirlar, musiqachilar, me'morlar, iqtidorli usta, hunarmandlarni Samarqandga chorlaydi. Ularga g'amxo'rlik qiladi.

Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand kulolchiligida badiiy kulolchilik alohida ajralib turgan rang-barang bezaklar, bo'yoqlar bilan bezatilgan idish tovoqlar kundalik ro'zg'or idishlaridan ko'ra ko'proq san'at namunalariga yaqin turgan. Amir Temur va temuriylar davri badiiy kulolchiligiga nazar soladigan bo'lsak bu davrda yangi uslublar, shakllar, bezaklar kashf qilinganligiga guvoh bo'lamiz. Samarqand kulollari mahalliy koshin asosida oq-sutrang xomashyo yaratib, unga kobalt bilan surat chizishni kashf qilishadi. Bunday usulda yasalgan idishlar jarangi va nafisligi bilan Xitoy chinnisidan qolishmagan. Bu davrdagi kulolchilik idishlari XII-XIII va XVI-XVIII asrlardagi spool idishlardan alohida ajralib turadi. Ba O'rta Sharq kulolchiligida o'z o'rniga ega. Shu sababli bu uslub hunarmandchilik tarixida "Temuriylar uslubi" degan nom bilan alohida e'tirof etilgan.

Metallga badiiy ishlov berish san'ati Amir Temur davlatida, ayniqsa, poytaxt Samarqandda juda rivojlangan. Tarixiy manbalarda va keying davrlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Mohir ustalar oltin, kumush, mis va bronzadan har xil idish-tovoqlar, shamdonlar, qurol-yarog'lar yasaganlar. Qimmatbaho metallardan ishlangan idish-tovoqlar, qadah, ko'za va oftobalar Amir Temur uyushtirgan sayil, bazm, to'ylarda hamda elchilarni qabul qilish marosimlarida ishlatilgan. O'sha davrda yasalgan qandillar juda hashamatli, qimmatbaho bo'lganini tarixchi Ibn Arabshoh yozib qoldirgan.

Registon maydonida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar paytida topilgan 60dan ziyod metal buyum XIV-XV asrlardagi Samarqand chilangarchilik maktabi yuksak cho'qqilarga ko'tarilganligini yaqqol isbotlaydi. Bu yerda topilgan bronza va misdan yasalgan ko'zalar, oftobalar, laganlar, kosalar, shamdonlar, eshik dastalarining sirtiga ustalar nozik kumush iplardan ajoyib naqshlar solganki, bular jilosi bilan kishini hayratga soladi.

Amir Temur davrida Samarqandda zargarlik, shishasozlik, sangtaroshlik, temirchilik ham yaxshi rivoj topgan. Ularning ayrim namunalari dunyoning turli muzeylarida saqlanmoqda.

Samarqandda yog'och o'ymakorligi ham taraqqiy qilgan. Yong'oq va tut kabi pishiq ashyolar (yog'ochlar)dan yasalgan eshiklarning sirtiga geometric va o'simliksimon naqshlar solingan, husnixat bilan ishlangan yozuvlardan esa qo'shimcha bezak sifatida foydalanilgan. Samarqanddagi Shoxi Zinda va Amir Temur maqbaralariga o'rnatilgan yog'och eshiklar yuksak darajadagi san'at asarlari sifatida qadrlanadi. Ularning ayrim namunalari bugungi kunda Angliyada, Nyu-Yorkdagi Metropoliten, Ermitaj muzeylarida saqlanmoqda.

Amir Temur oz fursat ichida Samarqandda san'at va madaniyatni, shaharsozlikni, me'morchilikni yuksak cho'qqilarga ko'tardi. Bu yerdagi madaniy jarayonlarning dunyo olmlari tomonidan "Temuriylar renessansi" deb baholanishi ularning umumbashariy tafakkur rivojida qanchalik ulkan ahamiyat kasb etganini haqqoniy e'tirofidir.

G'anchkorlik san'atining rivojlanish bosqichlari.

Qadimiy san'at turlaridan biri ganchkorlik o'z jozibasini dunyo me'morchiligida, shu jumladan O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Arabiston va boshqa Sharq mamlakatlari me'morchiligida namoyon bo'lib kelmoqda. O'ziga xos kompozitsion yechimi, badiiyligi va ishlanish uslubi bilan O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar boshqalaridan farq qiladi.

Ganch o'ymakorligi san'ati asrlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Amaliy bezak san'atining mazkur turini rivojlanish jarayonini kuzatib, o'rganib chiqadigan bo'lsak har davrda bir-biridan mutlaqo farq qiladigan shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'lganligi e'tiborga loyiqdir.

Qadimgi ganch o'ymakorligi hajmiy bo'lib, realistic uslubda ishlangan bo'lib, odamlar, qushlar, hayvonlar tasviri tushirilgan. Eramizning birinchi asrlaridayoq ajdodlarimiz ganchni ajoyib xususiyatlaridan foydalanib, qal'alar, karvonsaroy va boshqa joylarni bezaganlar. Janglar oqibatida hashamatli binolar vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari bizgacha yetib kelgan.

Tuproqqal'aning serhasham saroy mehmonxonalari (III asr) ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan. Eng ahamiyatli III-IV asrlarda ishlangan ganch

o'ymakorligi namunasi (Varaxsha) topilgan bo'lib, unda o'simliksimon, xandasaviy (geometrik) shakldagi naqshlar tushurilgan. Ayniqsa, gorel'efda ishlangan baliq tasviri o'z davri ganch o'ymakorligi uslubining o'ziga xosligini namoyon etadi.

Varaxsha (VII-VIII asrlar) topilmalarida qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o'simliksimon va geometrik shakllarni o'yma namunalarini ko'rish mumkin.

Buxorodagi Ismoil Somoniylar maqbarasida ganch o'ymakorligi namunalarida to'lqinsimon ishlangan naqshlar topilgan. Unda naqshning islami turi ko'p ishlatilgan.

Naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi X-XI asrlarda yanada rivojlandi. Bu davrda murakkab abstrakt tasvirdagi naqshlar paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorligi binolarning ichki (inter'yer) va am tegmaydigan tashqi (ekster'yer) qismida ham qollanilgan. Hatto o'ymakorlik elementlari ishtirokisiz g'isht, har xil geometric shakllarda naqshsimon qilib terilishi o'ziga xos uslubda bo'lib, betakror joziba namoyon etgan. Yuqorida qayd etgan Somoniylar maqbarasi ana shunday noyob yodgorlik namunasi hisoblanadi.

Afrosiyobda arxeologik qazishmalar natijasida X-XI asrlarda ishlangan saroylarning qildiqlari topilgan. Izora (panel) ganchida geometric va o'simliksimon naqshlar chuqur o'yma uslubida ishlangan naqshning o'yma chuqurligi 2-3 santimetr gacha borgan. Ganch devorga qalin suvalib, naqsh tasviri devorning sirtiga to'g'ridan-to'g'ri chizilib o'yilgan. Binolarning tashqi qismiga esa quyma asosida ganch ishlari bajarilgan.

Ganch o'ymakorligida murakkab naqshlardagi o'simlik va hayvonlarning soddalashtirilgan tasvirlarini tushurib ishlatilishi III asrda paydo bo'ldi. Bino tashqi qismiga namoyon, ustun va peshtoqlariga ganch o'ymakorligi kompozitsiyalari ishlangan. Ganchkorlik san'ati ayniqsa Movorounnahrda rivojlangan bo'lib, me'morchilikning asosiy bezagi darajasiga ko'tarilgan.

Ganch o'ymakorligi san'atining yuksak rivojini Termiz maqbaralari namunalarida ko'rish mumkin. XII asrda muqarnas(stalaktita)lar yuzaga kelib

ko'pgina binolarda qo'llanila boshlandi. Muqarnaslar bino ichkarisida taxmon va boshqa joylarni bezashda ishlatilishi e'tiborga molikdir.

Ganchkorlik san'ati VIII asrda yanada yuksaldi. Bu Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlarida namoyon bo'ladi. Binolar ichki qismlarini ganchkorlik san'ati bilan bezashning XIV-XVIII asrlarda o'ziga xos kompozitsion yechimlari mavjud. Bu davrlarda yangicha naqsh turlari yaratilib, binolarda ganch o'ymakorligi, uzviy bog'langan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ishlatila boshlandi.

XVIII asr oxiri XX asrning boshlari ganchkorlik rivojining o'ziga xos davri bo'lib, uslub va texnikasi ancha murakkablashdi. Ganchkorlikda rang uygunligi o'ziga xos joziba kasb etdi. Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Marg'ilon, Namangan, Qo'qon va Xiva ganchkorlik maktablari o'ziga xosligi bilan shakllandi. Ganch o'ymakorligi texnikasining mukammalligi yuksak darajaga ko'tarildi. Yaxlit ko'rinishli Marg'ilon guldor bezaklari, Toshkentniki qat'iy va aniq ritm asosida tuzilganligi, Xivaning dinamik o'ma naqshlari o'ziga xos spiralsimonligi bilan ajralib turadi.

Buxoroda amir Ahmad tomonidan Sitorai Moxi-Xosa (1913-1914yy) qurildi. Oq uy mehmonxomasi ichki qismida oyna zaminida bajargan ganch o'ymakorligi o'zining nozikligi, jimjimador qilib bezatilganligi bilan kishini hayratga soladi.

Gilamdo'zlik san'ati tarixi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach hayotning barcha jabhalarida islohatlar jadal suratlarda olib borildi. An'anaviy ma'naviy qadriyatlar qayta tiklanishi tufayli Islom tafkkurining turli jihatlariga qiziqish o'sib bormoqda. Har kungi besh vaqt ibodat chog'ida foydalanish uchun maxsus joynamoz tayyorlangan. Haftaning juma kunlari masjidda ibodat qilishadi. Qolgan kunlari namoz o'qish uchun masjidga o'xshash ramziy kichik gilamchali joynamozlar

o'taganlar.Uning xajmi kishi tik turgan va tizzasi bukilgan xollari xisobga olinib tayyorlangan. Oilaning har bir kishisi o'z ibodat gilamchasiga ega bo'lgan.

O'rta asrlarda islom mamlakatlarida namoz uchun gilamchalar tayyorlangan. Namoz o'qish uchun mo'ljallangan kichik gilamchalarning ilk namunalari XIV asr birinchi yarmi va XV asr ikkinchi yarmi Italiya uyg'onish davri rassomlari J.Belliki,V.Karpaggo,L.Lotto o'z kartinalarida turk gilamchalarini ko'p marta tasvirlashgan. XVI-XVII asrlarda e'ron ibodat gilamchalarining ajoyib nusxalari tayyorlangan.

Ibodot gilamchalari turli mamlakatlarda turlicha atalgan. E'ronda ular "Joynamoz", "Tagi" nomi bilan ma'lum. Arabiston va Turkiyada kichik ibodat gilamchalari "Sajjod" , "Katta joynamoz", "Namozlik", O'rta osiyoda esa "Joynamoz" va "Namozlik" deb yuritiladi. Ibodat gilamchalari saroy ustaxonalarida, qishloqlarda ham rassom naqqoshlarning xomaki chizmalari asosida tayyorlangan. Lekin ibodat gilamchalari kim va qayerda tayyorlangan bo'lishidan qat'iy nazar ,unga albatta peshtoqli mexrob tasvirlanishi shart bo'lgan.

Masjidlarning mexrobi qiblani Makka tarafiga qurilgan. Musulmonlarning asosiy ilohiy maskani – Ka'ba joylashgani bois Makka barcha musulmonlar uchun muqaddas shaxar xisoblangan. Musulmon madaniyatiga birmuncha ramziy ma'nodagi eshikni ilohiy darvoza deb qarashgan. Undan,yerdagi mavjud hayotdan ,muqaddas va ilohiy hayotga o'tiladi deb tushunilgan. Joynamozdagi peshtoqlaraynan shunday vazifani o'tagan. Gilamchalarning pastgi qismi budunyoni bildirsa, yuqori peshtoq osti qismi u dunyoni bildirgan.

"Safoyi" nomini olgan joynamozlar o'zining ajoyib ko'rinishi va bajarilishi uslubi, material va bezaklarga boyligi b-n ajralib turadi.Ular amir amaldorlarga mo'ljallangan bo'lib, junli ziynatai rassomlar ko'rsatmalari asosida bajarilgan bo'lib ular ollohga iltijo qilishni ifoda etgan. Bunda asosan qurondagi olloh va payg'ambarlar madx etilgan oyatlar yozilgan. Albatta bu Quron oyatlari gilamchaning yuqori qismida ,peshtoqning ostida "Yuqori dunyo" da

1. Miller Yu. Ob odnoy raznovidnosti turetskix kovrov. Trudi Gosudarstvennogo Ermitaja. Leningrad 1969. 194 str.

joylashtirilgan. Chunki soʻz va uning tasviri musulmonlar uchun muqaddas sanalgan. Kishilar arab yozuvlari goʻzalligidan bexudaga xayratlanishmagan. Ular (arabcha yozuvdagi harflar) oʻzlarida Ollox goʻzalligini timsollashtirgan. “Saroy” joynamozlari bezaklarida asosiy oʻrin tutuvchi nafis-jozibador oʻsimliksimon naqshlarning ramziy vazifasini taʼkidlaydi. Oddiy kishilar foydalangan xomaki movut joynamoz amaldorlar foydalangan joynamozlardan keskin ajralib turgan. Gilamchalarning bu guruhi XIX asr oxiri XX asr boshlariga taalluqlidir. Joynamozlarni tayyorlashda yaxshi maʼlum boʻlgan anʼanaviy gilamlar tasvirlaridan foydalanilgan.

Chorvachilik bilan shugʻullanuvchi qabilalar orasida ilohiy kuchlar anʼanaviy tarzda totem (qabila sigʻinadigan mavjudot yoki buyum) jonivor va qush deb tushunilgan. Shuning uchun ularning joynamozi mexrobli peshtoq ostida qoʻchqor shoxi yoki qushlar tirnogʻi tasvirini tez-tez uchratish mumkin.

Xomaki movutdan tayyorlangan joynamozlarning oʻziga xos yana bir xususiyati ularda sajda qilish xolati aniqlashtirilganidadir. Ularda ibodat qiluvchilarning qoʻli va boshi tushiriladigan joy koʻrsatilgan. Gilamlar bezaklarida ibodat xarakatini ifodalovchi turlicha ramzlar paydo boʻla boshladi. Saroy ibodat gilamchalarida zikrning mavxumiy xolatlarini aks ettiruvchi naqsh unsurlari yetakchi oʻrinni egallagan boʻlsa, oddiy kishilar ibodat gilamchalari anchagina soddaligi b-n ajralib turgan.

Xomaki movutdan tayyorlangan joynamozlarda erkaklar va ayollar qiyofalarini xam uchratishimiz mumkin. Bu jonli mavjudot tasvirini taqiqlovchi diniy qoidaga baʼzan amal qilinmaganligini bildiradi. “Saroy” joynamozlarida xam jonivorlarning nafis tasvirlariga duch kelamiz.

Oʻrta osiyoda joynamoz ishlab chiqarish shaxar axolisi va oʻtroq hayot kechiruvchi yoki endigina oʻtroqlasha boshlagan katta qabilalar orasida keng tarqalgan. Bu oʻtroq qabilalar tashqi taʼsirni koʻproq qabul qilishini, koʻchmanchi qabilalar esa diniy taʼsirni oʻz anʼanalari doirasida qabul qilishini bildiradi.

Turkman joynamozi asosan Amudaryoning o'rta oqishi xududida yashovchi, chorvachilik va dexqonchilikni xamisha birga olib boruvchi "Ersari" qabilasi kishilari tomonidan tayyorlangan. Turkman ibodat gilamchalarida mexrob taxmoni doimo xayvon shoxi tasviri bilan bezatilgan. Ularda o'simliksimon va gulli bezaklar ko'p bo'lishiga qaramay, uslubi jixatidan "Saroy" gilamchalariga xos xandasaviy uslubidan keskin farq qiladi.

Joynamoz tayyorlash XIX asrda qirg'izlar orasida, Farg'ona vodiysi axolisi o'rtasida xamda qashg'ar va sinszyanda keng tarqaldi. Bu davrda tayyorlangan joynamozlar asosan "jamoatchilik" nusxalari bo'lib, ularda bir vaqtning o'zida yeti kishi namoz o'qishi mumkin. Shu turdagi gilamchalarda xam albatta mexrobli peshtoq mavjud bo'lib, ularda o'simliksimon naqshlar ko'p. Biroq joynamozlarning tasvir uslubi va naqshlari mavzusi maxalliy xususiyatga egadir. Bulardan biri peshtoqning butun fonini xayot daraxti ko'rinishidagi yirik manzaraning egallashidir.

O'zbeklar va tojiklar tukli gilamchalardan emas, ko'proq kashtalangan joynamozlardan foydalanishgan. Buxoroda tayyorlangan XIX asrga mansub joynamoz nusxalari ipakli matoda kashta bajarilgan. Biroz betartibday bo'lishiga qaramasdan unchalik keng bo'lmagan yo'l b-n bo'lingan va o'simliksimon shoxchalar b-n bezatilgan mexrobdagi tasvir aniq ko'zga tashlanadi. Mexrobli taxmon uch atirgul tupi b-n bezatilgan. Moxir musavvirning xomaki chizmasi asosida bajarilgan ushbu joynamoz nusxalari mexrobli taxmon xam, o'simliksimon naqshlar xam joynamoz uchun zaruriy unsur ekanligini ko'rsatadi.

Joynamozdagi naqshlar davrlar va jamiyatning barcha qatlamlari uchun xos ma'naviy olam o'rtasida bog'liqlik mavjudligini bildirib turadi. Ular islom an'analari, shuningdek, milliy madaniy-tarixiy jarayonni nurlantirib turuvchi adabiy manba bo'lib qoladi.

Naqqoshlik san'atining turlari

San'at tarixida Kamoliddin Behzod davri nafaqat miniatyura rangtasvirning balki naqqoshlik san'atining ham mislsiz rivojlangan davri bo'lib keldi. Behzod singari boshqa miniatyurachi-rassomlar ham kompozitsion miniatyuralar yaratish sir asrorlarini mukammal egallab olgan edilar. Shuningdek, bu davrda faqat naqqoshlik bilan shug'ullanuvchi rassomlar bo'lib, ular qo'lyozmalarning sarvaraqlari, unvonlari va sahifa matnidani tashqari bo'sh joylarni naqshlar bilan bezatishgan. Eng mohir naqqoshlar mahobatli binolar, gilamlar, matolar, kandakorlik buyumlarni bezab turuvchi naqshu nigorlarning andozasini chizib berishgan. Natijada, bezak ishlarining umumiy uslubi Sharq musulmon san'atining barcha turlarini birlashtiruvchi yagona bezak uslubi vujudga kelgan. Naqsh ma'lum hudud badiiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etuvchi muhim manba bo'lib kelgan. Uning umumiy tarzda tarqalishi ilohiyatni shariyatda ifodalangan singari qiyofalashtirish bilan bog'liq bo'lib, bu islom dinining muhim xususiyatidir: Oллоh inson singari aniq bir qiyofaga emas ekan rassomlar tasavvuridagi olam ham mavhum shakllar orqali timsollashtirilgan. Islomda borliqni tasirlash man etilgan. Aksicha islom madaniyatida naqshlarda ideallarni mujassamlashtirilgan shaklda timsollashtirilishi talab etilgan.

Islom san'ati uchun xos naqshlar uslubi X-XII asrlarda yuzaga kelgan. Dastlabki naqsh andozalari qo'lyozmalarni bezash uchun mo'ljallangan. Bir vaqtning o'zida naqsh me'moriy binolar tekisliklarini ham "zabt etdi". Nihoyat XIV-XVI asrda yangi texnologiya qo'llanilishi tufayli san'atning barcha turlarida naqsh ifodalana boshlandi. Shunday qilib XIV asrdan e'tiboran me'moriy inshootlarda sirlangan g'isht va kamsonli o'yma qismlar bilan bir qatorda, devor sathini to'la egallaydigan murakkab shaklli o'simlik shoxlari va gullarini tasvirlashga imkon beradigan yangi turdagi sirli spool mozaika va guldor sirli sopollar qo'llanila boshlangan. Gilamchilikda esa XV asrda girihiy naqshlar o'rniga egiluvchan, nafis chiziqlardan iborat o'simliksimon naqshlar ishlatilgan.

Islomda ikki xil naqsh uslubi mavjud; xandasaviy-girihiy (girih-arabcha "tugun") va o'simliksimon-islamiy. Xandasaviy naqshlar asosan me'moriy

inshootlarda qo'llanilgan. Binolar devorlarini bezashda ular shakl uyg'unligi va aniq hisobga erishish imkonini bergan. Girihiy naqshning mukammallashishi matematika fani taraqqiy etishi bilan bog'liqdir. Nafis va jozibador o'simliksimon naqshlardan san'atning deyarli barcha turlarida foydalanilgan. Musilmon olamida turli davrlarda o'simliksimon naqshlar muhim va yetakchi o'rin egalladi; dastlabki bosqichlarda uEvropa madaniy an'anasida rangtasvir qanday o'rin egallagan bo'lsa, aynan shu ahamiyatni kasb etdi. Farq shaklu-shamoyil va kompozitsiyaning qonuniyligida bo'lsada, uslubning o'ziga xosligi, ideal go'zallik haqidagi tasavvurlarga o'xshash edi. Tabiatiga ko'ra islamiy naqsh Sharq musiqasi va she'riyati singari Sharqqa xos xususiyatlarning mahsuli edi. Naqishlarning nafis o'yinlari, to'lg'onayotgan chiziqlarning osuda harakati maqomlarning zikriy ohanglariga, g'azal va ruboiylar hijolariga hamohang bo'lib, ular vazmin va mushohadakor Sharq hayot tarzining umumiy manzarasini namoyon etadi.

Musulmon hukmdorlari saroylari qoshidagi, shuningdek, badavlat homiylar ustaxona-kutubxonalarida ishlayotgan rassomlar naqshlar tuzilishini ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lishgan. Bunday ustaxonalar o'ziga xos ijodiy tajriba maskani bo'lgan. Musilmon san'ati ravnaqida saroy ustaxonalarining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. O'ziga xos bezak uslubiga ega, namunali kompozitsiya va naqsh unsurli, o'ta nafis va nozik chiziqlarga boy islom san'atining mumtoz namunalari aynan shu joyda yaratilgan. Yagona din va o'ziga xos yagona estetikaning joriy etilishi natijasida barcha musulmon davlatlarida yagona uslubga erishilgan. Bunda ustalarning o'z davlatlaridan boshqa davlatga ko'chib o'tishlari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Naqshning paydo bo'lishi ijtimoiy va siyosiy jihatdan turlicha bo'lgan musulmon olamidagi yagona estetik ideallar talabi bilan bevosita bog'liqdir.

O'rta asrda yashagan mashhur olim Qozi Ahmad "Xattotlar va rassomlar haqida risola"sida naqsh haqida so'z yuritib, quyidagilarni yozadi: "Yozuvdagi olti uslub singari san'atda ham islamiy, xitoyi, farangi, fasali, abr, akri, salami singari yeti uslub qadrlanadi". Bu haqda uning zamondoshi Sodiqbek Ashurov "Qonun us-suvor" risolasida: "Naqsh asosi yettitadan ortiq emas-islamiy, xitoyi, abr, vaq,

nilufar, farangi. Ularning har birini eslab qol hamda bandi-rumi haqida ham unutmam”,-deb yozadi. Islimiy, xitoyi, abr, farangi naqsh turlarining har ikkala muallif risolasida ta’kidlab o’tganligi ular rassomlar uchun muhim sanalganligi, qolgan naqsh usullari esa yordamchi xususiyatga ega bo’lganligidan dalolatdir.

Islimiy deyarli barcha kompozitsiyalarda uchraydigan naqsh turidir- (Yevropa adabiyotlarida “arabisk” deb yuritiladi). Islomiy-ayri barg singari-qo’sh naqshning bir-biriga yaqinlashgan joyi gullayotgan palma va o’simlik barglari bilan bezatilgan yirik turunjga asoslangan o’simliksimon kompozitsiyadir. Ayribarg mavzusi qadimiy mavzular sirasiga kiradi. Unga o’xshash unsurlarni ellin naqshdir, sak-skif san’ati namunalarida uchratamiz. Biroq islom badiiy madaniyatida barg muhim ahamiyat kasb etgan. Naqshning “islomiy” deb nomlanishi, albatta, dinning nomi bilan ham bog’liq. Islomiy naqsh ko’rinishi go’zallik va nafosat haqida tasavvur uyg’otadi, shu boisdan islomiy ilohiy olam, jannat bog’i bilan aloqador, deyiladi. Islomiy naqsh unsurlarining tabiatdagi mavjud shakllardan boshqacha (tabiatda islomidagi barg nusxasini toppish mumkin emas) ko’rinishi islom estetikasi bilan bog’liq.

I-bob bo’yicha xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o’zbek xalq amaliy san’ati o’zining bir qancha turlari va amaliy ahamiyati bilan moddiy va ma’naviy jihatdan hayotimizda o’z mavqeiga ega. Tadqiqotning mazkur bobida amaliy amaliy san’atning turlari haqida umumiy ma’lumot tushuncha va mulohazalar berilgan bo’lib, ulardagi funksional vazifalar ko’rsatib o’tilgan.

Kishilarning intellektual va axloqiy kamol toptirish uchun qulay sharoitni istiqloq davri amaliy san’at rivojida ko’rish mumkin.

II-BOB. Zamonaviy amaliy san'atning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati.

2.1. Hozirgi davr amaliy san'atining turlari.

O'zbekistonda hunarmandchilik azaldan ravnaq topgan. XX asr an'anaviy madaniyatning barcha turlari, jumladan, hunarmandchilik uchun ham murakkab sinov davri bo'ldi. Ularning ayrimlari sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari keng tarqalishi oqibatida deyarli yo'qolib ketdi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin amaliy san'atning ancha turlarini har jihatdan rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rildi. Eng avvalo davlatning amaliy san'atga munosabati o'zgardi. Bu o'zgarish O'zbekistonning milliy merosni asrab-avaylashga yo'naltirilgan yangicha mafkuraviy siyosati bilan bog'liqdir. An'anaviy san'at turlariga ustuvor ahamiyat berilishi, madaniyatshunoslarning mustaqillikka erishilganidan keyin jamiyatda etnomadaniy qadriyatlar, jumladan, o'tgan asrlardagi badiiy tajribalarga murojaat qilish kuchayishi to'g'risidagi xulosalarini tasdiqladi. Bu esa o'z navbatida, an'anaviy san'at rivojiga yangicha yondashish va uning yanada taraqqiy etishi uchun keng yo'l berishni taqozo etadi. Zamonaviy jamiyat rivojlanishi borasida to'plangan tajriba milliy madaniy merosni asrab-avaylash zarurligini ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki, respublikada o'tgan yigirma yil ichida an'anaviy badiiy madaniyatni qayta tiklashda salmoqli tajriba to'plandi.

O'zbekistonda an'anaviy san'atni tiklash va qo'llab-quvvatlashga doir loyihalarga davlat dasturi maqomida qaraladi. Respublikada an'anaviy san'atning barcha turlarini har tomonlama rivojlantirish uchun jiddiy chora-tadbirlar belgilanib, tegishli yangi tuzilmalar tashkil etildi, mavjud tuzilmalar qayta tuzildi.

1995 yil Toshkentda o'tkazilgan birinchi xalq hunarmandchiligi yarmarkasi zamonaviy ustalarning o'zlari tayyorlagan mahsulotlarini taqdim etadigan yarmarka, festival, tanlov, savdo-ko'rgazmalarni boshlab berdi. Ushbu yarmarka BMT ko'magida mazkur tashkilot tashkil etilganining 50 yilligi munosabati bilan o'tkazildi. Yarmarkaning «Ustoz-shogird» shiori ko'p

jihatdan ramziy bo'lib, u hunarmandchilikdagi hali unutilmagan ko'nikma, malakalarni saqlab qolishda ustoz-shogirdlik tizimi ahamiyati beqiyosligini ko'rsatishga qaratilgan edi. Keyinchalik BMT tomonidan bunday yarmarkalar muntazam o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Yarmarka mintaqa miqyosida o'tkazildi.

Ushbu tashabbus mahalliy xokimiyatlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi. Ular o'tkaziladigan yarmarkalarning asosiy homiysiga aylanishdi. 1996 yilda Xalqaro «Oltin meros» xayriya jamg'armasi tashkil etildi. Tarixiy va madaniy meros noyob osori-atiqalarini izlab topib, ro'yxatdan o'tkazish, sotib olish va saqlash, xalqaro jamoatchilikni O'zbekiston milliy madaniyati va san'ati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirib borish ushbu jamg'armaning asosiy maqsadi va vazifasi qilib belgilandi. 1997 yilda an'anaviy san'at turlarini qayta tiklash va rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rish, hunarmandchilik va amaliy san'atning yuqolib borayotgan turlarini saqlash, rassomlar va ustalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, yoshlarga kasb sirlarini o'rgatish maqsadida «Musavvir» ilmiy-ishlab chiqarish markazi va Respublika, «Usto» maxsus ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Mazkur tuzilmalar faoliyati tufayli gul bosilgan gazlama, lokli miniatyura rangtasviri, gilamdo'zlik singari xunarmandchilikning deyarli yo'qolgan turlari qayta tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 1997 yil 31 martidagi «Xalq badiiy xunarmandchiligi va amaliy san'atni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risi»gi Farmoni an'anaviy hunarmandchilikni saqlab qolishga qaratilgan eng muhim hujjat bo'ldi. Ushbu Farmonda xonadonida badiiy buyumlar ishlab chiqaradigan xalq hunarmandlariga amaliy yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan. Iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida hunarmandlar besh yil mobaynida daromad solig'i, xalq hunarmandchiligi buyumlarini respublikadan tashqarida sotganligi uchun bojxona boji to'lashdan ozod qilindi, «O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi» unvoni ta'sis etildi. Shuningdek, ushbu Farmon asosan «Musavvir» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi huzurida «Hunarmand» O'zbekiston xalq

ustalari uyushmasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Respublikaning barcha viloyatlarida mazkur tuzilmalarning tarmoqlari faoliyat kursatmoqda. O'zbekiston Tadbirkor ayollar uyushmasi ham xotin-qizlarni xunarmandchilik ishlab chiqarishiga jalb etib, ishga joylashtirish orqali hunarmandchilikning qayta tiklanishiga munosib ulush qo'shmoqda.

«Yilning eng yaxshi xunarmandi» unvoni ta'sis etilib, xar yili o'tkaziladigan «Tashabbus» respublika tanlovi, boshqa qator tadbirlarning tashkil etilishini ham an'anaviy san'at turlariga davlat miqyosidagi munosabatning o'ziga xos menejmenti sifatida qarash mumkin. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar amaliy san'at turlari bilan shug'ullanayotgan rassomlar, xalq hunarmandlarining ijtimoiy mavqeyini oshirib, ularning faoliyati uchun iqtisodiy imtiyozlar yaratmoqda.

Jamoat tashkilotlarining turli yo'nalishdagi loyihalari ham an'anaviy merosni qo'llab-quvvatlashga salmoqli hissa bo'lib qo'shilmoqda. «O'zbekiston Madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi tashkil etilganidan buyon bu borada yetakchi bo'lib kelmoqda. Uning eng yirik aksiyalaridan biri Fond Forumning Milliy san'at markazida har yili (2007 yildan) o'tkazib kelinayotgan «Bozor-Art» («San'at bozori») ko'rgazma-yarmarkasi bo'lib, unda o'lkamizning barcha viloyatlaridan hunarmandlar jam bo'lishadi. Ularning mahsulotlari respublika jamoatchiligi va xorijlik mehmonlarga namoyish etiladi. Ustalar bir-birlari bilan hamda xaridorlar bilan muloqotda bo'lishadi. Bunday uchrashuvlar amaliy san'atning ijodiy imkoniyatlarini namoyish etish, marketing tadbirlari o'tkazish, zamonaviy ustalar erishgan eng yangi yutuqlar, amaliy san'at turlarida shakllanayotgai yangicha tamoyillar bilan tanishish imkonini beradi. Otabobolari kasbini davom ettirayotgan usta hunarmandlar endilikda o'z mahsulotlariga talabni aniqlagan holda ish tutib, «qadimiy texnologiyadan zamonaviy dizaynga» shiori ostida faoliyat olib bormoqda.

Bozorga eng yaxshi mahsulotlar taqdim etayotgan hunarmandlarning maxsus grantlar bilan mukofotlanishi Fond Forum tomonidan o'tkazilayotgan ko'rgazmalarning amaliy natijasi bo'lmoqda. 2008 yilda Margilon tukuvchilari

shunday grant sohibi bo'lishdi. Ularning qo'lda to'qilib, milliy naqshlar bilan bezatilgan ipak matolari an'anaviy hunarmandchilik mahsuloti sifatida jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otmoqda. Respublikamizning etnouslubda model yaratadigan dizaynerlari marg'ilonlik tukuvchilar tayyorlagan matolardan keng foydalanishmoqda. Ular yaratgan liboslarni, eng sovuq qiyofaga ham joziba baxsh etadigan engil sharflarni, hatto, san'atdan uzoq kishilar ham xarid qilishmoqda.

Fond Forumning eng yorqin va unutilmas aksiyalaridan biri 2008 yil 3 - 4 may kunlari Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi Qaynar qishlog'ida bo'lib o'tgan birinchi «Asrlar sadosi» an'anaviy madaniyat festivalidir. Festival doirasida o'tkazilgan an'anaviy san'at yarmarka-ko'rgazmasi milliy madaniy merosni, xalq hayotiga joziba baxsh etuvchi yorqin buyumlar yaratib, xalq hunarmandchiligining maftunkor kuchini namoyish etishga intilayotgan xalq ustalarining avloddan avlodga o'tib kelayotgan tajribasini targ'ib-tashviq etish borasida o'ziga xos ijobiy hodisa bo'ldi. Respublikada folklor musiqa jamoalariga, an'anaviy san'at turlarida faoliyat ko'rsatayotgan hunarmandlar va rassomlar ijodiga berilayotgan e'tibor kelgusida badiiy merosning o'zgarib borayotgan ijtimoiy qarashlarga moslashib, yanada ravnaq topishiga, albatta, ta'sir etishi tayin. 2009 yil 1-3 mayda Toshkent viloyati. Oqqo'rg'on tumanidagi qadimiy Qanqa va Shoxruxiya shaxarlari hamda Bo'stonliq tumanida «Asrlar sadosi» festivali bulib o'tdi. 2011 yilda esa festival ko'hna va navqiron Buxoroda o'tkazildi.

Taniqli xalq ustalariga O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi unvoni berilgani ham xalq ustalari maqomi ko'tarilganidan dalolat beradi. Kulollar: Sh.Azimov, X.Haqberdiev (Samarkand), Sh.Yusupov (Rishton), B. Boltaev (Xiva), A.Narzullaev (G'ijduvon), A.Rahimov (Toshkent), miniatyurachilar N.Xolmatov, Sh.Muhammadjonov shunday unvonga sazovor bo'lgan.

Bugungi kunda respublikada ko'p asrlik milliy san'at an'alarini asrab-avaylashga qaratilgan qonuniy mexanizmlar mavjud va shu ish bilan bevosita

shug'ullanadigan qator davlat va jamoat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

Hozir ham xuddi avvalgidek an'anaviy hunarmandchilikni tiklash ishiga sayyohlikka va sobiq sho'ro hududidagi yosh davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirishga ko'maklashayotgan xalqaro jamg'armalar va tashkilotlar faol ishtirok etmoqda. Ularning faoliyatida ko'proq hunarmandchilikning muayyan turiga yoki o'tmishda mashhur bo'lgan, lekin hozirgi paytda faoliyati so'ngan markazlarga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, O'zbekistonda (90-yillarda) Amerikaning Kaunterpart Konsorsium tashkiloti huzuridagi «Madaniy tanishish sayyohligi va hunarmandchilikni rivojlantirish» hamda «Hunarmandlarga ko'mak» BMT loyihasi ishladi. Ular turli seminarlar, amaliy san'at yarmarkalari o'tkazishdi, mahalliy ustalarni an'anaviy texnologiyalar, tabiiy bo'yoqlardan foydalanishga o'rgatish uchun xorijdan mutaxassislar chaqirishdi, mashhur mahalliy hunarmandchilik markazlari faoliyati bilan bog'liq loyihalarni qo'llab-quvvatlashdi. Keyingi yillarda bu borada Shveysariya hamkorlik va taraqqiyot byurosi, YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi va YUNESKOning Milliy komissiyasi faol ish olib bormoqda.

YUNESKOning eng yirik aksiyalaridan biri Surxondaryo viloyati Boysun tumanini «Insoniyat og'zaki va nomoddiy merosi durdonasi» deb e'lon qilishi, bo'ldi (2002). Hozirgi paytgacha xalq madaniyati, jumladan, hunarmandchilik ham asl holida saqlangan ushbu noyob maskanning bunday e'tirofi uning kelgusida yanada ravnaq topishi uchun asos yaratadi. Ushbu vokea tumanda xalq xunarmandchiligini rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni boshlab berdi. Har yili «Boysun bahori» xalqaro folklor festivali o'tkazilmoqda. Tumanning an'anaviy madaniyatini o'rganish maqsadida ilmiy-tadqiqot ekspeditsiyasi tashkil etildi. Ushbu ekspeditsiya jarayonida shu paytga qadar ma'lum bo'lmagan sopol buyumlar ishlab chikarish markazi, yangicha bezakli kashta va gilamlar tukilishi aniqlandi.

Ekspeditsiya olib borgan ishlar natijasida tumanda hunarmandchilik o'sishiga erishildi. Boysun tumani markazida hunarmandchilik markazi tashkil etildi. Mahalliy ustalar Markaziy Osiyo (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston,

Tojikiston, Turkmaniston), Janubiy Osiyo (Bangladesh, Hindiston, Maldiva, Nepal, Pokiston va Shri-Lanka), Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Mo'g'uliston, Shimoliy va Janubiy Koreya) davlatlarini qamragan «Hunarmandchilik mahsulotlariga YUNESKO sifat belgisi» dasturida ishtirok etishmoqda. Natijada, tumanning hunarmandchilik mahsulotlari xalqaro miqyosda e'tirof qilinmoqda. 2006 yilda janda matosi va oq enli gilami YUNESKOning sifat belgisi bilan taqdirlandi va shunday belgi olgan boshqa g'oliblar qatorida YUNESKOning Bankok, Pekin, Nyu-Deli va Almatidagi ofisi saytlariga joy lashtirildi. YUNESKO va Yaponiyaning «O'zbekiston sirli sopoli» trast jamg'armasi loyihasi asosida O'zbekiston an'anaviy kulollik san'ati rivojlantirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida respublikaning taniqli ustalari va san'atshunoslari, tajriba almashish maqsadida taklif etilgan xorijlik mutaxassislar ishtirokida seminarlar o'tkazilmokda. 2007 yilda qayta ochilgan kulolchilik markazi – Kattaqo'rg'onda ko'rgazma o'tkazildi.

Shveytsariya hamkorlik va taraqqiyot byurosining Denov kulolchiligi (Surxondaryo viloyati, 2003) va avval mashhur bo'lgan Nurota kashtachiligi (kurator Sh.Abdullaeva)ni tiklashga qaratilgan loyihasini ham shu yo'nalishdagi ishlar sirasiga kiritish mumkin. Albatta, birinchi loyiha natijalari mutaxassislarni qanoatlantirmadi. Ikkinchisi esa ikkita masala Nurota an'anaviy kashtachiligini tiklashni yo'lga qo'yish va bir guruh yosh kashtado'zlarni o'rgatish va ish bilan ta'minlashni hal qildi.

Loyiha natijasida kashtachilik bo'yicha o'zbek tilida o'quv qo'llanmasi nashr etildi. Ushbu qo'llanma mustaqil tarzda an'anaviy kashtachilik bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan mahalliy xotin-qizlar uchun, albatta, foydali bo'ladi.

An'anaviy badiiy meros kelgusida ravnaq topishi tayin. chunki mamlakatimizda milliy madaniy qadriyatlarni asrab-avaylashga muhim davlat siyosati sifatida qaraladi. Jamoat va xalqaro tashkilotlar va muassasalar ham an'anaviy badiiy merosni har tomonlama rag'batlantiradi.

An'anaviy merosni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yetkazish borasidagi muhim muammolardan biri faoliyati to'xtab qolgan mahalliy

hunarmandchilik markazlarini qayta tiklash va ularni rivojlantirishdir. Shuningdek, hozirgi paytda tayyorlanayotgan mahsulotlar sifatiga ham jiddiy e'tibor qaratish joiz. Bugungi kunda ishlab chiqarilgan hunarmandchilik buyumlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: ro'zg'orda foydalanish (asosan qishloq tumanlarida) va bozor uchun tayyorlangan buyumlar. Shuningdek, ko'rgazmalarda ishtirok etishga mo'ljallangan hunarmandchilik buyumlari ham tayyorlanadi. Bozor uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori borgan sari ortib bormoqda. Chunki endilikda an'anaviy hunarmandchilik mahsulotlari ham iqtisodiy samara bermoqda. Lekin ro'zgorda foydalanish va bozorda sotishga mo'ljallab ishlab chiqarilgan an'anaviy hunarmandchilik mahsulotlarining sifati borgan sari pasayib ketmoqda. Bu birinchidan, XX asrga xos an'anaviy qoliplarga past nazar bilan qarash bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, bozor qoidasining mahsulotlar sifati va «maktab» tushunchasiga salbiy ta'sir etishidan kelib chiqmoqda.

Mahsulotning sifati to'grisida gapirganda biz unda hunarmandchilik hamda badiiy an'analar qay darajada aks etganini nazarda tutamiz. Bozor uchun hamda ko'rgazmalarda namoyish etish uchun buyumlar tayyorlaydigan ustalar o'z mahsulotida hunarmandchilik an'analarini namoyon etishga alohida e'tibor qaratishadi. Ular buyumlarni tayyorlashda faqat an'anaviy texnologiyalardan va tabiiy materiallar va bo'yoqlardan foydalanishadi. Shu boisdan ekologik toza bunday buyumlarga talab doim yuqori bo'ladi. Ayni choqda mazkur buyumlarda badiiy an'analar bir oz unitiladi. Ammo ustalar «maktab»lar yo'qolib ketayotganligidan tashvish tortmaslik kerak, deyishadi. Ular an'analar saqlanib qolishiga ishonishadi. Ammo muayyan muallifning tajribasi emas, jamoa faoliyati bilan chambarchas bog'liq an'anaviy shakllarning ravnaq topishiga umid qilib bo'laydi. Tabiiy, bu borada xam nimadir ish qilish kerak. Avvalo sexlar uyushmasi tuzish lozim. Shunda ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifati va ularda mahalliy o'ziga xos jihatlar saqlanishi ustidan nazorat o'rnatishga erishiladi.

Badiiy merosni asrab-avaylash va rivojlantirish borasida erishilayotgan

ijobiy natijalarni e'tirof etgan holda, ayrim kamchiliklar va yetishmovchiliklar xususida ham to'xtalish joiz. Shulardan biri an'analarni tiklashga ko'pincha tijorat maqsadidagi loyiha sifatida qaralishidir. Shuningdek, Xalqaro jamg'armalar o'z loyihalarida mahalliy hududning o'ziga xos juhatlarini e'tibordan chetda qoldirayotgani kuzatiladi. Masalan, Buxoroda ipak gilam (YUNESKO) yoki Xivada devorga osiladigan katta so'zana (Britaniya kengashi moliyaviy ko'magida «Hunarmand» viloyat xalq hunarmandchiligi uyushmasi va «Operation Mercy» xalqaro xayriya jamg'armasi) ishlab chiqarilishi. Ayni dasturlar muayyan hududga xos mahalliy hunarmandchilikni hisobga olmagan holda amalga oshirilmoqda. Chunki Buxoroda hech qachon hozirgi dizayndagi ipak gilam tuqilmagan. Xiva esa hech qachon so'zana tikish markazi bo'lmagan.

Jamoat tashkilotlari faoliyatida ham xuddi shunday kamchilik kuzatiladi. Ularning dasturlarida xotin-qizlar azaldan shu xududga xos hunarmandchilikka emas, boshqasiga o'rgatilmoqda. Vaholanki, xar bir joyda tarixan hunarmandchilikning muayyan turi shakllanadi va unga hamisha ehtiyoj saqlanib qoladi. Mana shu jihat e'tiborga olinmaganidan ayrim mahalliy hunarmandchilik markazlari faoliyati tiklanmayapti. Masalan, Jizzaxda o'tmishda ajoyib uzun tukli gilamlar to'qilgan. Mavjud an'anani saqlash, rivojlantirish o'rniga bu erda xotin-qizlar zarduzlikka o'rgatilmoqda.

Jamoat tashkilotlari va xalqaro jamg'armalarning unutilgan hunar, kasb-kor va hunarmandchilikni qayta tiklashga doyr aksiyalari, madaniyat va san'at sohasida xalqaro milliy ekspertlarning hamkorlikdagi faoliyati ko'p jihatdan moliyaviy muammolarni hal qilishga yordam bermoqda. Shunday bo'lsa-da, bu borada muayyan hududda tarixiy jixatdan an'anaviy hunarmandchilikning qaysi turi rivojlanganini e'tiborga olgan holda, hamkorlikdagi ishlarni qat'iy muvofiqlashtirish joiz.

Milliy san'at ekologiyasi juda muhim muammodir. Mahalliy maktablarning o'ziga xosligi, san'at «sofligi»ni saqlab qolish bugungi kunda dolzarb bo'lib turibdi. Bu muammoni soha mutaxassislari ko'magida hal qilsa

bo'ladi. Afsuski, ustalar va san'atshunoslar o'zaro ish olib borishi yo'lga qo'yilmagan. Usta o'z tajribasi va dididan kelib chiqib, buyum tayyorlaydi. San'atshunos tadqiqotchi esa u tayyorlagan buyumni maqtab, maqola yozadi. Oqibatda, an'anaviy san'atning mahalliy o'ziga xosligi unutiladi. Hozirgi paytda rivojlanib borayotgan Rishton kulolchiligi, Surxondaryo kashtado'zligi, zardo'zlik, lakli miniatyuraga xuddi shu nuqtai nazardan qaralib, tanqidiy tahlil etilishi kerak.

Bugungi kunda amaliy-bezak san'ati rivoji bilan bog'liq shu kabi muammolar mavjud. To'plangan tajriba shundan dalolat beradiki, mavjud muammolar amaliy-bezak san'ati tobora ravnaq topayotgani bilan bog'liqdir. Asosiy muammo menejment masalasi, ya'ni ushbu san'at rivoji uchun respublikadagi qulay sharoit, mavjud an'ana, hunarmandlar faoliyatidan yetarlicha foydalanilmayotganida ko'rinadi.

Bunday vaziyatda amaliy san'atning istiqboli bevosita bog'liq bo'lgan ustalar, san'atshunoslar, menejerlar, homiylar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish zarur.

An'anaviy hunarmandchilikni tiklash bo'yicha loyixalar mahalliy xususiyatlarni e'tiborga olgan holda aniq manzilga yo'naltirilishi va kelgusidagi rivojlanish aniq belgilab olinishi lozim. Avvalo bozor uchun hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chikarishda buyumlarning asl holati va undagi keyingi yangiliklar nisbati keskin farqlanishiga yo'l qo'ymaslik kerak («an'ana va yangilik» muammosi). Albatta, an'anaviy san'atning o'ziga xosliklarini e'tibordan chetda qoldirish yaramaydi. Chunki «xalq san'ati o'zida yangilikni, ijodkorning o'ziga xos uslubini emas, balki tarixiylikni, milliylikni va muayyan jamoaga xos xususiyatlarni aks ettiradi» (M.Nekrasova).

An'anaviy hunarmandchilikni qullab-quvvatlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarning samarasi xalq ustalari tayyorlagan mahsulotlarni xarid qiladigan istemolchilar talabini qondirishda ko'rinadi. Ushbu loyihalarda bu asosiy maqsad qilib qo'yiladi. Chunki hunarmandchilik mahsuloti kim tomonidan va qanday sifat, ko'rinishda tayyorlanishidan qat'iy nazar, asosiy

maqsad uni bozorda sotishdir. Ayni paytdagi badiiy jarayon shuni ko'rsatmokdiki, hunarmandchilik buyumlaridan kuidalik turmushda ham foydalanish borgan sari kengayib-bormoqda. Avval ushbu turdagi buyumlar muzeylar kolleksiyasini to'ldirish uchungina tayyorlanardi.

Ta'kidlash joizki, xorijliklar hunarmandchilik buyumlarining asosiy iste'molchilari bo'lib qolmoqda. Faoliyati an'anaviy madaniyat sohasi bilan bog'liq ziyolilarning muayyan qismi ham ayni xildagi buyumlardan keng foydalanadi. Mahalliy bozorda hunarmandchilik buyumlariga talab past bo'lgani bois ustalar o'zlari tayyorlagan mahsulotlarni xorijiy bozorga olib chiqishga intilib, sopol va to'qimachilik buyumlarini Qozog'iston, Rossiya va Evropa davlatlariga eltib sotishmoqda. Ular bu bilan nafaqat o'z mahsulotlarini, balki O'zbekiston madaniyatini xorijda targ'ib-tashviq qilishmoqda. Mahalliy bozorda esa hunarmandchilik mahsulotlarini targ'ib qilish orqali jamoatchilik didini o'stirishga e'tibor berilmaydi.

Bozor avval bo'lganidek, hunarmandchilik rivoji jarayonini ko'rsatadigan eng aniq indikatoridir. Bugungi kunda bozorda hunarmandchilik mahsulotlaridan to'qimachilik (kashta, gilamlar, mato, zardo'zlik buyumlari – zardo'zi xalatlar, do'ppilar) va kulolchilik buyumlari, shuningdek, an'anaviy texnologiya asosida zamonaviy dizaynda ko'lda tayyorlangan sumka, hamyon, pardoz xalta, qo'lda kashtalangan yostiq jildi, milliy matodan tikilgan zamonaviy dizayndagi liboslar, Marg'ilon shoyi sharflariga talab katta. O'lkamiz hunarmandlari tayyorlagan yangi mahsulot turi - batik an'anaviy ipak matolar, asosan, Marg'ilon shohisiga ijodkorona yondashish asosida yaratilgan bo'lib, u juda tez xaridorlar e'tiborini qozondi.

YUNESKOning sifat belgisi dasturida zamonaviy hunarmandchilik mahsulotlari: yuksak sifat, innovatsiya, ekologiya, bozor talablariga moslik, mehnat to'grisidagi qonunlarga muvofiqlik talablarga javob berish zarurligi ko'rsatilgan.

Hunarmandchilik musulmon jamiyatida azaldan erkaklar va ayollar o'rtasidagi mehnat taqsimotini ko'rsatuvchi o'ziga xos oyna bo'lib kelgan.

Erkaklar ko'pincha bozorda sotish uchun, xotin-qizlar esa oila ehtiyoji uchun mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, gazlama ishlab chiqarish, tikuvchilik ustaxonalarida kiyim tikish, zardo'zlik, naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi faqat erkaklar shug'ullanadigan ish sanalgan. Xotin-qizlar esa kashtado'zlik, gilam to'qish, namat bosish bilan band bo'lgan. Ular, shuningdek, arzon paxta matolar to'qishgan, sopol, ganch o'yinchoq, idishlar yasashgan. XX asrga kelib, bu an'anaviy turmush tarzi keskin o'zgardi. Shaxardagi xotin-qizlar an'anaviy hunarmandchilik bilan mutlaqo shug'ullanmay qo'yishdi, chekka qishloqlardagi ayollargina ajdodlari kasb-korlarini saqlab qolishdi. Sho'ro davlati tanazzulga yuz tutganidan keyin an'anaviy hunarmandchilikka munosabatda keskin o'zgarish ro'y berdi. Xotin-qizlar ehtiyoj tufayli hunarmandchilik ishlab chiqarishi bilan faol shug'ullanishga kirishdilar. Chunki sobiq sho'ro hududida iqtisodiyotning barbod bo'lishi barchani yangi ish topishga majbur etdi. Iqtisodiy bekarorlik sharoitida tanazzuldan chiqish uchun an'anaviy hunarmandchilik bilan shug'ullanish maqbul yo'l bo'lib qolgan edi. Shu tariqa kutilmagan o'zgarish yuzaga keldi - hunarmand ayollar bozorni egallashdi.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishida ayollar juda faol. Xotin-qizlarni yangi iqtisodiy sharoitga ko'niktirish maqsadida bu jarayon davlat miqyosida ham, xalqaro jamg'armalar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Bundan maqsad daromadni ko'paytirish va xotin-qizlar ijtimoiy mavqeini ko'tarish hamda an'anaviy san'atni tiklashdir.

An'anaviy san'atning istiqboli uning iste'molchisi bo'lgan bizga - har birimizga bevosita bog'liqdir. Hunarmandchilik ishlab chiqarishi buyumlari kundalik turmushimizga fayz, joziba baxsh etishi aniq. Aynan an'anaviy amaliy san'at tufayli globalashuv jarayoni g'oyat tez asrimizda zamonaviy madaniyatdagi o'ziga xoslik, rang-baranglik saqlanib turibdi.

O'zbekiston kashtachiligidagi yangi tamoyillar.

Umumiy vaziyat. 1990-yillarga kelib O'zbekistonning iqtisodiy ahvoli va an'anaviy hunarmandchiligi estetikasi nihoyatda ayanchli holatda qolgani bois, XIX asr va XX asr boshi kashtachiligi an'anasi barham topdi. Hamma sohada fabrikada ishlab chiqarilgan matolar va sun'iy yoki paxta iplardan foydalana boshladilar. Natijada, xalq hunarmandchiligi mahsulotlariga talab keskin pasayib, kashta past sifatli ommabop suvenir sohasiga o'tib qoldi. 1920-yillar boshida ham xususiy mulk va shaxsiy mehnat faoliyatiga barham berilgani tufayli, amaliy san'atning iqtisodiy asosiga putur etgan edi. Shu asnoda tabiiy iqtisodiy tayanchidan mahrum hunarmand ustaning ijtimoiy maqomi pasayib ketdi. O'z mahsulotlarini mustaqil sotishga intilgan usta hunarmandlar faoliyati noqonuniy ishbilarmonlik sifatida soliq organlari tomonidan ta'qib ostiga olindi.

Mustaqillik davrida an'anaviy badiiy hunarmandchilikni qayta tiklash asosida xususiy mulkni vujudga keltirish va bozor iqtisodiga o'tish bosh iqtisodiy omilga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan xalq ustalari maqomini mustaxkamlash, an'anaviy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator hujjatlar va farmonlar e'lon qilindi. Yuqori sifatli mahsulotlarni qayta tiklashda olimlar, mutaxassislar, san'atshunoslardan iborat ekspertlar hamjamiyati katta rol o'ynadi. Ustalarining o'zi ham hunarmandchilikka o'zgarishlar kiritish zarurligini tushunib etishdi. 1990-yillar boshida O'zbekiston xalqaro xuquqning mustaqil sub'ekti sifatida BMT, YUNESKO singari nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Toshkentda elchixonalar, diplomatik vakolatxonalar, xalqaro tashkilotlar, banklar va jamg'armalar ochildi. O'zbekistonga xorijiy sayyohlar oqimi keskin kuchaydi. Ular an'anaviy san'at turlari namunalariga katta qizikish bildirdilar. Bu esa O'z navbatida, mahsulotlar sifatini baholash mezonlariga ta'sir qildi. Hunarmandchilikning avvalgi dongdor markazlarini va qadimiy texnologiyalar hamda bezaklarni qayta tiklash jarayonida xalqaro omil muhim rol o'ynay boshladi. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqelik va estetik omillar an'anaviy badiiy hunarmandchilik rivojida, xususan, xozirgi paytda an'anaviy uzbek kashtachiligida yangi bosqichni belgilab berdi.

Hozirgi paytda an'anaviy kashtachilik O'zbekistonning barcha hududida va hatto, bu tur mavjud bo'lmagan Xorazmda ham saqlab qolindi yoki qayta tiklandi (bugun Xivadagi Ichanqal'a majmuasida yosh tikuvchi qizlar O'rta va Yaqin Sharq me'moriy bezaklari bo'yicha kitoblardan olingan eskizlar bo'yicha o'ziga xos mahsulotlar ishlab chiqarmoqda). Shu bilan birga, zamonaviy kashtachilik rivojida ko'proq badiiy maktablarning ilgarigi mahalliy xususiyatlari bilan emas, balki bozor omillari talablari bilan bog'liq o'ziga xos xususiyat vujudga keldi. Hozirgi paytda kashtalarni tayyorlash va sotish bo'yicha ikki yo'nalish, guruh mavjud. Shartli ravishda «innovatsion» deb nomlangan yo'nalish eksportga, keng bozor ehtiyojiga yo'naltirilgan bo'lib, unda mualliflar tashabbusi kuchli ekani seziladi. Ikkinchi («autentik») yo'nalish uncha katta bo'lmagan hududda (qishloq, tuman) mahalliy xususiyatga ega bo'lib, u XX asr ikkinchi yarmida vujudga keldi. Bu yo'nalish mahsulotlaridan mahalliy an'analarda foydalaniladi.

Shunisi e'tiborliki, 1990-yillardan Toshkentdagi «Markaziy», «Dedeman», «InterKontinental», «Redisson» kabi mehmonxonalarda tashkil etilayotgan amaliy san'at yarmarkalari, 2000 yil o'rtalaridan «Forum» fondi tashabbusi bilan o'tkazilayotgan xuddi shunday yarmarkalarda («Art-Bazar», milliy san'at markazida) asosan xorijiy xaridorlar uchun mo'ljallangan qo'lda tikilgan zamonaviy kashtalarning «innovatsiya» modeli taqdim etilmoqda. Bu guruh ustalarining mahsulotlarida, ma'lum texnologik va badiiy xususiyatlariga karamasdan, bir-biriga uxshash jihatlar ko'p. Ular Nurota, Buxoro yoki Shaxrisabz maktablari naqshlaridan foydalanib, shoyi va yarim shoyi oq yoki sarg'imtir iplar bilan matolarga tikilgan.

Kashtachilik markazlarining ikkinchi guruhiga kashtachiligi qishloq yoki mahalliy tuman doirasidagi hududlar mansubdir. Bunga Surxondaryo viloyatining deyarli barcha tumanlari, Shaxrisabz-Kitob xududlarini istisno qilgan holda, Qashqadaryo viloyatining kurgina tumanlari, Jizzax va Sirdaryo viloyatining ayrim xududlarini kiritish mumkin. Mahalliy xududga mo'ljallab uy sharoitida tikilgan kashtachilik saqlanayotgan Farg'ona vodiysining qator

tumanlarini ham ikkinchi guruhga kiritish mumkin. Kashtachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha bu ikki guruh mahsulotlari o'rtasidagi farq ularning sifatida ko'rinadi va shunga ko'ra, ularning xarid qilinish qobiliyati ham belgilanadi. Tabiiyki, XIX asr eng yaxshi an'anaviy kashtachiligini qayta tiklashga intilgan birinchi guruh ustalarining mahsulotlari yetakchi o'rin egallaydi.

Ushbu tadqiqotda tadqiqot predmeti zamonaviy o'zbek kashtachiligining «innovatsion» modeli mahsulotlaridir. Bu holatda «innovatsion» tushunchasi shartli bo'lib, u XX asrda islohotga uchragan an'anaviy kashtachilikning ustalar tomonidan keskin rad etishga intilishini aks ettiradi. Boshqa tomondan, unda XIX asr kashtachiligi uchun xos bo'lmagan uslubni jiddiy individuallashtirish, bir mahsulotda turli maktablar mavzulari va talablaridan kelib chiqib, o'zbek kashtachiligining boshqa dongdor maktablari an'analariga murojaat qilmoqdalar.

Zamonaviy kashtachilikning bu yo'nalishi mahsulotlari tashqi bozor uchun mo'ljallangan. Shu sababli, bu yerda o'zbek kashtachiligining turli maktablari bezak an'analariga intilish, qo'shni hududlar naqshlariga erkin murojaat qilish, XIX asr va XX asr boshi texnologiyasi, tabiiy buyoqlar, qo'lda tikilgan matolar va boshqalarni qayta tiklashga intilish kuchli bo'lmoqda. Bular tashqi va ichki bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishga karatilgan kashtachilik mahsulotlaridir. Birinchi navbatda, bularga Toshkent, Buxoro-Samarqand xududining Buxoro, Shofirkon, G'ijduvon, Nurota, Urgut (uning yonidagi G'us qishlog'i), atrofdagi qishloklarni qamragan holda, Shaxrisabz, Kitob, Farg'ona hududiga kiruvchi Andijon, Namangan, nihoyat Xiva singari markazlarning kashtachilik mahsulotlarini kiritish mumkin.

«Innovatsion» kashtachiligi markazlari va ustalari. Toshkentda kashtachilikning eng yaxshi an'analarini qayta tiklashga asoslangan zamonaviy kashtachilikning yangi andozasini yaratishga ilk qadam qo'yildi. San'atshunoslar, menejerlar, ustalardan iborat mahalliy ekspertlar hamjamiyati a'zolarining qadimiy so'zanalar namunalari va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan tanishishi, shuningdek, Turkiya, Angliya, Germaniya kabi

xorijiy mamlakatlarda ularga bo'lgan talab va yuqori narxda sotib olinishi kabi omillar bunga turtki berdi. Bunda 1950-yillardan keyin yaratilgan mahsulotlar sifatining pastligi, sun'iy matolar va buyoqlardan foydalanilganligi tufayli na mahalliy, na xorijiy bozorda xaridorgir bo'lmaganligi hisobga olindi.

Bugungi kunda bu guruhlardagi chevarlarning ko'pchiligi ishlamay qo'ygan yoki o'z mahsulotlarini mustaqil tayyorlab sotmoqdalar (Shahrisabz, G'ijduvon, Nurota, Shofirkon va boshqa joylardagi chevarlar). Ammo I.Davletov tatbiq etgan bozor ehtiyojini tushunish va qadimgi o'zbek kashtachiligini qayta tiklash metodikasi tobora kengayib boruvchi tamoyilga ega bo'ldi. U kashtachilik mahsulotlari assortimentini kengaytirishda davom etdi. Hozirgi paytda u va uning oilasi kashtachilikni zamonaviy libos va uning aksessuarlariga joriy etish masalalari bilan shug'ullanmoqda. I.Davletovning metodikasini rivojlantirayotgan menejer va ustalar ham paydo bo'ldi. 2000 yil boshida toshkentlik va hududdagi kashtachi chevarlar ishlayotgan Toshkent ustaxonasini ochgan Ismat Maxdum shular jumlasidandir. Ba'zi ustalar mustaqil ishlashni ma'qul topdilar. Xususan, Madina Qosimboeva 2007 yildan o'z kashtalarida yuqori sifatli individual-mualliflik san'atini taqdim eta boshladi. Xududiy markazlardagi chevarlar ham bunday yondashuv bozorda samarali ekanligini tushunib etdilar va o'zlari «kitob» so'zanasi metodikasi bo'yicha kashtalar yaratdilar (Shofirkondan Muxabbat Qo'chqorova, Nurotadan Feruza Omonova, Namangandan Lutfulla Sadridinov, Urgutdan Kubaro Tuxtaeva, G'ijduvondan Narzullaevlar oilasi, G'us qishlog'idan Mavluda Hamdamova, Sahisabzdan Yulduz Mamadiyorova va boshqalar shular jumlasidandir).

O'zbekiston an'anaviy kashtachiligining yangilanish jarayonida Shtutgarddagi Linden muzeyi 1995 yili tashkil etgan «Ipak yo'li merosxo'rlari» ko'rgazma loyihasi muhim rol o'ynadi. Ko'rgazma qator Evropa davlatlarida namoyish etildi. Uning natijasi bo'yicha o'zbek kashtachiligining tanlangan namunalaridan va tahliliy maqolalardan iborat katalog nashr etildi. Keyinchalik bu muzeyda zamonaviy o'zbek kashtalarining ko'rgazma-savdosi tashkil qilindi. Markazida romb shaklidagi medaloni bo'lgan katta suzana, ayniqsa, tijoratbop

ekanligi ma'lum bo'ldi. Uning XIX asrga mansub o'ziga xos namunasi yuqoridagi katalogdan o'rin olgan edi. Eski so'zanalarni qayta ta'mirlash tajribasi 2000-yillar boshidan faol egallana boshlandi. Bunday so'zanalar-Toshkentdagi yarmarka-ko'rgazmalarda, Buxoro va Samarqand amaliy san'at bozorlarida, O'zbekistonning sayyohlik markazlarida ko'p sotila boshlandi.

Bezak. Bezak ham ranglar singari kashtalarning mahalliy xususiyatini muvofiqlashtiruvchi muhim jihatidir. Shu o'rinda biz yangi tamoyilga duch kelamiz. Kashtachilikning «innovatsion» yo'nalishi chevarlari arsenalida bezak mavzulari va O'zbekistonning XIX asr va XX asr boshi an'anaviy kashtachiligi turli makgablari obrazlari aralashib ketishi kuzatiladi. Ammo ularning muayyan chegarasi ham bor. Turli maktablar uslublari va bezaklarining ko'rishuvi ko'proq avlodlar davomchisi bo'lmagan ustalarning kashtalari uchun xosdir. Bunda xorijiy ehtiyoj mavjud Nurota, Shahrisabz va Buxoro kashtachilik maktablarining eng yaxshi bezak namunalariga e'tibor qaratiladi. Bu jihatdan I. Davletov, I. Maxdum, M. Dosimboeva ijodiy guruhlaridan iborat Toshkent kashtachilik ustalari va Namanganda ishlayotgan rassom L.Sadriddinov kabilarning mahsulotlarini alohida ta'kidlash lozim. Ularning kolleksiyalarida an'anaviy Toshkent kashtachiligi bezagi yo'q. Shuning uchun garchi ular Toshkentda ishlayotgan bo'lsada, ilmiy tasniflash nuqtai nazaridan ularni «Toshkent an'anaviy kashtachilik maktabi ustalari» katoriga qo'shib bo'lmaydi.

Nurotadan A.Sharapova, G.Oralova, F.Omonova, Shofirkondan M.Qo'chqorova, shahrisabzlik Yu. Mamadiyorova ijodiy guruhidagi chevarlar va B. Corshanbieva, G'us qishlogidan M.Hamdamera singari boshqa xududlardagi ajdodlar ishini davom ettirayotgan chevarlar ham «kitob» so'zanasi usulidan foydalanadilar va ba'zan boshqa maktablar bezak mavzulariga murojaat qiladilar. Ammo mahalliy maktablar naqshlarini ma'qul ko'radilar. Ularning kashtalarida anor, qalampir yoki bodomgul, oshpichoq, doiragul, lolagul, buta shoxlaridan iborat tasvirlar asosiy bezakdir. Butun markaz bo'ylab esa rombsimon naqsh kiritiladi (markazda romb ko'rinishidagi medalon hosil qilish so'zanani qayta qurish bo'yicha I. Davletovning eksperimentidir).

O'zbekistonning zamonaviy hunarmandchilik kashtachiligidagi hozirgi jarayonlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Mustaqillik yillarida an'anaviy badiiy hunarmandchilikning, shuningdek, kashtachilikning muhim iqtisodiy asosi - xususiy tadbirkorlik uchun konuniy asos yaratildi.

2. Bugungi kunda O'zbekiston kashtachiligida ikki yo'nalish mavjud. Birinchisi tuman yoki mahalla doirasidagi iste'molchilarga mo'ljallangan (asosan bu Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari chevarlari kashtasi) bo'lib, unda XX asr ikkinchi yarmi an'analari saqlangan. Ikkinchisi keng doiradagi iste'molchilarga mo'ljallangan bo'lib, unda XIX asr va XX asr boshiga mansub o'zbek an'anaviy kashtachiligining dastlabki an'analari qayta tiklangan yoki ta'mirlangan. Ikkinchi yo'nalish bozor ehtiyoji tufayli vujudga keldi. Bu yo'nalishdagi kashtalarda faoliyatini bozor marketingiga yo'naltirgan holda dizayner bo'lib qolayotgan ustaning shaxsiy malakasi yorqin namoyon bo'ladi.

3. Mahsulotlarning bu guruhida mahalliy xususiyatlar ma'lum ma'noda uyg'unlashib, Uzbekistonning turli mahalliy maktablari bezagi va texnologik usullari xususiyatlarini qamrab olgan kashtachilikning qandaydir umumiy milliy maktabi yaratiladi.

4. «Innovatsion» yo'nalish ustalari zamonaviy talablarga moslashish uchun kashtachilik mahsulotlarining xizmat vazifasi doirasini kengaytirmokdalar. Ular kashtadan umummilliy bezakli liboslar va aksessuarlar yaratishda foydalanmoqdalar.

5. Ba'zan iste'molchining xohishini hisobga olib o'zbek an'anaviy kashtachiligida o'xshashi bo'lmagan kutilmagan ko'rinishdagi mahsulot yaratiladi (Nurota chevarlarining ko'k - moviy rangli so'zanalari).

2.2. O'zbek xalq amaliy san'atining ta'lim tizimidagi mohiyati.

Mustaqil o'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini izloh qilinishi yangi ta'lim standartlari asosida ta'lim tarbiya jarayonida qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga uning pedagogik san'atiga alohida e'tibor berilmoqda.

“Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim, ma'lumot berish, ularning malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz” deb ta'kidlaydi prezidentimiz I.A.Karimov. shunday ekan, sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi jamiyatning itimoiy topshirig'ini bajaradi, jamiyatda yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoy-siyosiy, pedagogik va shaxsiy talablarga javob berishi lozim.

Buning uchun o'qituvchi har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkuri, kasbiy ma'lumoti, o'z kasbini chuqur bilimdoni, pedagogik muloqat ustasi, pedagogik-psixologik va uslubiy bilim malakalarini egallagan bo'lishi, pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Demak maktab va muorif muassasalarida yetakchi kuch, jamiyatning ishonchli kishi o'qituvchidir. O'qituvchi so'zining keng ma'noda yosh-avlodda ta'lim oluvchilarda ma'laka va ko'nikmalarni tarkib toptirayotgan, hayotda murabbiylik qilayotgan ya'ni pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan kishilarni xalq o'qituvchi deb tanlaydi.

Pedagogik kasb boshqa kasblardan ko'pgina belgilari bilan farq qiladi. Pedagogning mehnat predmeti odam, pedagogning mehnat quroli- uning nutqi, taffakkuri, irodasi, odobi, mahorati va hokazolar.

Pedagogning ma'naviy-siyosiy kasbiy qiyofasiga qo'yiladigan yuksak talablar – uni doimo takomillashishiga, to'ztovsiz o'z ustida ishlashga, ijod va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishga majbur etadi.

Shu ma'nodagi o'qituvchi doimo o'z o'quvchilari va ota-onalari keng jamoatchilik hurmatini qozongan bo'ladi.

Naqsh xalq dekorativ – amaliy san'atining turlaridan biri bo'lib, maishiy turmush buyumlarini badiiy bezatish san'atidir. Dekorativ – amaliy san'at ko'p qirralidir. Insonni o'rab turgan narsalar chiroyli bo'lmog'i lozim. Bunda farzandlarimizning ko'zi chiroyli, qoshiq, choynak, piyolalar, kosalalarni, idish-tovoqlarni, kashtalarni va shu kabilarni ko'rib quvonadi. Xalq hunarmand ustalarining asarlari ular yaratgan o'lkaning o'ziga xos xususiyati, turli xalqlarning didi ularning go'zallik haqidagi tasavvurlari to'g'risida hikoya qilib boradi. Naqshlar bilan bezatilgan predmetning qo'llanilish ahamiyati, uning shakli, insonlarning kundalik odatlari hali naqshning o'ziga xos xarakteri, mazmuni, obrazi kabilarni belgilaydi. Bu naqsh bilan bezatiladigan narsalarning qanday materiallardan (yog'och, chinni, metal kabilardan) tayyorlanganligiga bog'liqdir. Xalq amaliy san'ati yillar davomida mohir ustalar tomonidan rivoj va sayqal topib, xalqning maqtovlariga sazovor bo'lib kelmoqda.

Bunday usta va murabbiylarni yetishtirishda, o'z kasbining mohir mutaxassislari bo'lib yetishishlarida xalq ta'limining ahamiyati kattadir. Ayniqsa bugungi hayotimizda ro'y bergan keskin o'zgarishlar istiqlool sharofati ta'lim tarbiya masalalari ishini yanada takomillashtirish va rivojlantirishga milliy qadriyatlarimizning qytat tiklanishiga keng yo'l ochib berdi.

O'quvchi-yoshlarni mustaqil Vatanimiz ravnaqi uchun qo'shadigan hissalar chuqur bilimli bo'lishlari va kerakni kasb-hunarni egallab, bu borada sezilarli hatijalarga, samaralarga erishlaridir. Ularni biz madaniy va ma'haviy qadriyatlarimiz zahirida tabiyalab, kamol toptirishimiz kun tartibidagi dolzarb muammolardandir. Umumiy ta'lim sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, xalq ta'limini yanada rivojlantirish borasida qabul qilinayotgan qonun – qoidalar fikrimizning yaqqol dalilidir.

Badiiy naqqoshlik mashg'ulotlarining asosiy maqsadi o'quvchilarni xalq amaliy san'at namunalari, uning qisqacha tarixi hamda sir-sinoatlari bilan nazariy va amaliy jihatdan tanishtirishdir. Badiiy naqqoshlikda o'quvchilar tevarak-

atrofdagi, tabiatda mavjud bo'lgan shakllarga qo'shimcha ishlov berish, ya'ni stilizatsiyalash orqali turli tuman naqsh elementlarini chizish, anashu naqsh elementlaridan esa yaxlit ko'rinishdagi kompozitsiyalarni tayyorlashni o'rganib boradilar. Ma'lumki, har bir naqsh namunasi o'ziga xos naqsh elementlari yig'indisidan iboratdir. O'quvchilar mashg'ulotlar jarayonida ana shunday naqsh elementlari namunalari bilan yaqindan tanishganlar. Undan namunalar chizishni mashq qilganlar. Endi o'zlari ham mustaqil ravishda naqsh elementlarini tuzishni o'rganadilar.

Stilizatsiya asos o'simlik va hayvonot dunyosidan olingan turli shakllar, masalan butalar, novdalar, shoxlar, burglar, gullar, mevalar va shu kabilarning tabiiy shakllarini qayta ishlab dekorativlashtirishdir.

Badiiy naqsh ishlash jarayonida o'quvchilar quyidagilarni puxta o'zlashtirib olishlari zarur:

- atrof muhitdagi, tabiatdagi mavjud bo'lgan tabiiy shakllarni qayta ishlash, ya'ni stilizatsiyalash yo'llarini bilishlari va undan samarali foydalana olishlari kerak.

- berilgan naqsh elementlari yoki namuna asosida yangi naqsh kompozitsiyasini tuza olishlari:

- mustaqil ravishda yangi naqsh kompozitsiyasini tuza oladigan bo'lishlari:

Badiiy naqqoshlikda yo'lsimon, kvadrat, doira, to'g'rito'rtburchakli, besh, olti, sakkiz, o'n ikki qirrali naqsh kompozitsiyalaridan keng ko'lamda foydalaniladi.

Badiiy naqqoshlikda quyidagi ranglar va ularning tuslaridan keng ko'lamda foydalaniladi:

Zangori ranglar va ularning tuslari (och zangori, zangori, to'q zangori, och havorang, to'q havorang, moviy, ko'k).

Sariq ranglar va ularning tuslari (och qizil, qizil, to'q qizil, och va qo'q qirmizi, qirmizi, alvon rang, och va to'q zarg'aldoq, zarg'aldoq ranglar va boshqalar).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ranglar va ularning t uslari ko'pincha badiiy naqsh koloritini belgilashda katta o'rinni egallaydi.

O'quvchilar dastlabki mashg'ulotlarda naqsh elementlari tarzida quyidagi shakllarni chizishni o'rganmoqlari zarur:

- burglar (barg elementlarini chizish):
- gullar (gul elementlarini chizish):
- novdalar (novda elementlarini chizish):
- bog'lam va sirtmoq (ularning elementlarini chizish):
- tanob (tanob elementlarini chizish):
- marg'ula va kurtak (uning elementlarini chizish):
- madohil (elementlarini chizish):
- gajak va jingalak (uning elementlarini chizish):

Barg elementlari ham o'ziga xos tuzilishga, ko'rinishga ega bo'lib, bir oz murakkablashtirilgan variantlari ham uchraydi. Masalan: shobarg yoki shoxbarg, qo'shbarg, uchbarg, ko'pbarg va hokazolar shular jumlasidandir.

2.3. Amaliy san'atni ustoz-shogird an'alarida o'rganish.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-idsodiyl taraqqliyotning barcha sohalarida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar ma'naviy ma'rifiy mafkuraviy kasbiy jihatda mutlaqo yangi zamon kishisini shakllantirishini taqozo etadi. Hozirgi zamon yoshlarini milliy, sharqona tarixi qadriyatlarini hisobga olgan holda, zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kasb sohiblarni tayyorlash muammosi davlat miqyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda respublika hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy san'at namunalaridan, ota-bobolar tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Shularga qaramay, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida "Ustoz shogird odobi" an'alaridan foydalanish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan pedagogic muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Kasb-hunar kollejlari tayyorlanayotgan kichik mutaxassislarining faqat kasbiy ko'nikma va malakalariga emas, balki shaxsiy fazilatlariga ham talablar qo'yilmoqda. O'zbekistonda kasb-hunar ta'lim jarayonida ijodiy, faol, ma'naviy boy shaxsni, shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda.

Lekin, biz bugungi kunda kichik mutaxassislar tayyorlashda qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo'lmasda ajdodlarimizning boy merosi hamda tajribalaridan to'liq foydalana olmayapmiz. Ajdodlarning ustos-shogird odobi haqida yoritilgan adabiyotlarini ham yetarli deb bo'lmaydi.

Bundan tashqari, ajdodlar boy tajribalari hunar o'rgatilayotgan ta'lim muassasalarida, chunonchi, oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, shaxsiy usta-shogird ustaxonalarida ustoz-shogird odobi yetarli o'rgatilmashligi o'quvchi-yoshlarning axloq-odobiga va bilim darajasiga, umuman ular ma'naviyatining shakllanishiga salbiy ta'sir etayotganligi hech kimga sir emas. Muammoni o'rganilganlik darajasi. O'quvchilarning mehnat va kasbga tayyorgarlik muammolarini tadqiq qilish uzoq tarixga ega. Respublikamizning bir qator olimlari tadqiqotlarida kasb ta'limini tashkil etish, takomillashtirish nazariyasi va amaliyotiga X.Rashidov, U.Inoyatov, Q.Olimovlar o'z hissalarini qo'shdilar. Shuningdek A.R. Xodjaboyev mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning o'quv- metodik majmuasini yaratgan bo'lsa, U.N. Nishonaliyev kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning yaxlit tizimini tarixiy davrga bo'lib o'rgandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mutaxassis kadrlar tayyorlashni takomillashtirish muammolari Ya. Haydarov va R.H. Jo'rayev ishlarida pedagogik muammo sifatida o'rganildi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirishga O.A. Abduqudusov, L.V. Golish, V.A. Mazur, D.Zohidova, Z.Ismoilova, P.T. Machzumov, D.I. Razzoqov,

N. Shodiyev, E.T. Choriyev va boshqa olimlar o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shmoqdalar.

Mustaqil respublikamizda o'quvchi va talabalarni amaliy bezak san'ati sohalarini bo'yicha tayyorlash borasida S.S. Bulatov, R.Hasanov, Q.Qosimov, A.A. Amanullayev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning odob-ahloqi, tarbiyasi, o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar hamda odobnoma, hikmat, hikoyat, rivoyatlar bilan Kaykovos, M.S. Sheroziy, A.Q. Munavvarov, Matlabbeka Ulug'bek qizi, Mirzakalon Ismoilov, M. Hasaniy, M. Murodov, H. Uzoqov, E. G'oziyev, Ya. Oripova, Safo Ochil, U. Mahkamov, M. Ochilov va boshqalar shug'ullandilar. Yuqorida zikr etilgan olimlarning tadqiqot ishlarini o'rganish natijalari hamda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda kasb-hunar kolleji o'quvchilariga amaliy bezak san'ati sohalarini o'rgatishda "Ustoz-shogird odobi" an'alaridan foydalanib, uni takomillashtirishda quyidagi nomutanosibliklar mavjud. O'zbekiston Respublikasining etnografik, tarixiy, milliy, mahalliy shart-sharoiti hisobga olinganligi; kasb-hunar kollejlarda "Ustoz-shogird odobi" an'alarining shakllanishi yetarlicha yoritilmaganligi; "Ustoz-shogird odobi" an'analari samarali o'rgatishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishga yetarli e'tibor berilmaganligi; "Ustoz-shogird odobi" an'alaridan foydalanishda mutafakkir olimlarning ijodiy namunalariga yetarli ahamiyat berilmaganligi; amaliy bezak san'ati yo'nalishlaridagi kasb-hunar kollejlarda "Ustoz-shogird odobi" an'alarining tashkil etilishi, o'qitilishida pedagogik, psixologik jihatlari qarab chiqilmaganligi kabilar dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilayda va dissertatsiya mavzusini "Kichik mutaxassislar tayyorlashda "Ustoz-shogird odobi" an'alaridan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari" deb nomlashga asos bo'ldi.

- "Ustoz-shogird odobi" an'alarining mazmuni, mohiyati va ulardan foydalanishga oid zamonaviy qarashlarni aniqlash;

- "Ustoz-shogird odobi" an'alarini o'quvchilarga o'rgatishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanilsa;

-o'quvchilarga "Ustoz-shogird odobi" an'alarini o'rgatish uchun "Maxsus kurs" o'quv dasturi ishlab chiqilsa;

-o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish orqali "Ustoz-shogird odobi" an'alaridan foydalanish jarayoni o'rganilsa.

Ustoz va shogird an'analari.

O'zber xalq amaliy san'ati qadimiyligi hamda boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Uning yer usti va tuproq ostidagi qismi ulkan bir tarixiy muziy. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg'ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy bezak san'ati namunasi bobakalonlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas, teran mazmunli va tarixiy bebaho san'at asarlari, jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va ma'naviy merosni tashkil etadi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'atining eng ko'p rivojlangan turlari: ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, tosh-taroshlik, suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik kabilarning o'ziga xos tomonlari bajarish texnologiyasi, ustalarning haqiqiy asl nomlari, o'ziga xos maktablari, yaratgan uslublari sobiq sho'ro tizimi vaqtida asta-sekin yo'qolib ketish xafi ostida qoldi.

Bigungi kunda mustaqil mamlakatimizda xalqimizning asrlar bo'yi yaratilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan amaliy bezak san'atini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, ular orqali yoshlar estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatili kishilar qilib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochilda. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Bobur kabi jahonga mashhur olm, shoir va musavvirlar go'zallikka intilishga chaqirganlar. Bobomiz Amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxassis olimlar yordamiga tayanib matematika, geometriya, me'morlik, astronomiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, musiqa, tasviriy san'at va xattotlik kabi sahalarini rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Shaharlarning har tomonlama

chiroyli va ulug'vor qilishga intildi. Jumladan, tosh hamda g'ishtlik yo'llar, keng, katta, ravon ko'chalar qurdirgan. Bir-biridan mahobatli binolar soldirgan. Samarqandning Registon maydonidagi Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalari, Shohi zinda va Go'ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Toshkentdagi ko'kaldosh madrasasi, Shahrisabzdagi Oq saroy va boshqalar bugungi kunda dunyoga mashhurdir.

Hunarmandlar o'sha davrlarda mahallalarga bo'linib yashagan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda bo'yrachilar mahallasi bo'lib, u yerda umuman Buxorodagi hamma to'quvchi ustalar 120 ta oila yashagan. Har bir hunarda mahalladagi qo'ni-qo'shnilar o'rtasida raqobat bo'lgan. Chunki kimning mahsuloti sifatli bo'lsa xalq ushanning ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlagan. Har bir ustaning o'z rastasi bo'lgan. Bozorda, odatda, bozor begi bo'lan. U barcha rastalarga kiritilgan mollarni kuzatib ularga narx belgilab chiqqandan keyyin savdo-sotiq boshlanar edi. Sifatsiz mahsulot ishlatgan ustaning bozori kasodga uchragan. Naqqoshlik o'tmishda xalq ustalarining eng bilimdoni hisoblangan. Chunki ular madrasada tahsil olib, adabiyot, tarix, musiqa, matematika, kimyo fanlarini yaxshi bilganlar. Naqqoshlik texnologiyasi avloddan-avlodga otib kelgan. Qadimda naqqoshlar naqsh yaratish sir-asrorlarini yozib qoldirmaganlar. Faqatgina shogirdlari bilgan. Shogirdlar usta bo'lganlaridan so'ng, ular ham o'zlariga qarashli shogirdlarga o'rgatganlar.

Xullas, kasbninq avloddan-avlodga meros qolishi an'ana holda rivojlanib kelgan. Ustaga shogirdlikka berishda quyidagi urf-odatga rioya qilingan. Bolani ustaning olib borishda o'ziga yarasha tantanaviy marosim bolgan. Bolani ota-onasi hamda qarindosh-urug'lari "bo'y" digan bo'g'irsoq va holvaytar qilib, ustaning huzuriga kelganlar va "bolaning go'shti sizniki, suyagi bizniki" qabulida gaplar bilan usta ixtiyoriga topshirganlar. Keltirilgan pishiriqlar o'sha paytdayoq birgalikda tanavvul etilgan. Usta bolaga hunar o'rgatishdan tashqari, butun o'qish davomida uni oziq-ovqat bilan ta'minlab turgan. Kasb o'rganish tekin olb borilgan.

Ustoz shogirdga qattiqqo'l va talabchan bo'lgan. Chunki har bir hunarni o'ta nozik did va sabr-toqat bilangina o'rganish mumkin edi. Ustalar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ish vaqtida chalg'imaslikni, egri va noma'qul ishlarga yaqin yo'llamaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat'iy talab qilganlar. Usta shogirdiga faqat hunar sirini o'rgatishdan tashqari, uy-yumush ishlarini bajarishga ham tayyorlab brogan.

Shogird san'at sirlarini puxta egallaganidan so'ng, unga oq fotiha berilgan. Marosimda ustozga shogird bosh-oyoq sarpo, tugun in'om etgan. Ba'zida ustoz, shogirdi mustaqil ish boshlashda qiynalmasligi uchun, shu kasbda ishlatiladigan asbob va andozalar berar edi. Agar oq fotiha olgan ba'zi bir shogird mustaqil ishlashni xohlamasa, ustoznikida qolib ishlayverishi mumkin bo'lgan.

Bunday holda shogird ustozni bilan kelishib ish haqqi olgan. O'zbek ustalaridan biri ganch o'ymakor usta Usmon Ikramov ning hayot yo'li ibratlidir. Yosh Usmon usta Rasul hojining qo'lida 8 yil ishlaydi.

Ustoz va shogird odob me'zonlari.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm fan, madaniyat durdonalarini har tomanlama ilmiy o'rganish va tahlil etish muhimdir. "Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi prezidentimiz I.A. Karimov-biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga qadimiy me'rosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'alarimizni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog'imiz kerak ". Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'ati namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda Respublika hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur" qabul qilindi. Unda "O'zbekiston Respublikasining ta'lim

sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analar jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi" deyilgan.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, qadimda ajdodlarimiz usta-shogird an'analari asosida yoshlarga hunar o'rgatish bo'yicha boy tajribaga ega bo'lanlar. Lekin, biz keying vaqtlarda ajdodlarimizning boy merosidan hamda tajribalaridan to'liq foydalana olmayapmiz. Shulardan biri ustoz-shogird an'analari chuqur o'rganmaganligimizdir.

Ajdodlarimiz tajribalari yoritilgan adabiyotlarni ham yetarli deb bo'lmaydi. Bundan tashqari ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o'rgatilayotgan joylarda chunonchi oliy o'quv yurtlarida, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida, shaxsiy usta-shogird an'anasi asosida o'rgatayotgan ustaxonalarda ustoz-shogird odobi to'liq o'rgatilmaslgi o'uvchi-yoshlarimizni axloq-odobga va bilim darajasiga, umuman, ularning ma'naviyatini shakllanishiga salbiy ta'sir etayotganligining guvohi bo'lamiz.

Shuning uchun ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosdan to'g'ri va unumli foydalanish chunonchi, ishlab chiqarilgan "Ustoz shogird odobi" medali asosida o'quvchi yoshlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarida quyidagi nisbiy o'zgarishlar ro'y beradi; ajdodlarimiz ma'naviy merosiga bo'lgan hurmat-e'tibori kuchaydi; o'z ota-onasiga, ustoziga, o'rtoqlariga, xullas insonlarga bo'lgan hurmati oshadi. Ularning shu hunarni qiyomiga yetkazib o'rganishlarida asos bo'lib xizmat qiladi.

"Ustoz shogird odobi" mavzui yoritilgan 16 ta ko'rgazmali quroldan iborat to'plam oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalar, maktablarda sinfdan, maktabdan tashqari muassasalarda tashkil etilgan hunarmandchilik ustaxonalarida va boshqa muassasalarda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu ustoz va shogird odobi mezonlarini ma'naviyat xonalarida, ustaxonalarda, ijodiyot xonalarida devoriy ko'rgazma sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir. U har bir kasb-hunar o'rganayotgan shogirdlarning yonida bo'lishi lozim.

Shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari.

1. Ustozga itoatli bo'lish.
2. Ustoz an'analarini davom ettirish.
3. Ustozning pand nasihatlariga amal qilish.
4. Ustozga taqlid qilish.
5. Sabr – toqatli bo'lish.
6. Irodali bo'lish.
7. Ustozning yuzini yerga qaratmaslik, aksincha uning obro'sini ko'tarish.
8. Ustoz sha'niga iliq so'zlar aytish.
9. Ustozning dushmani bilan do'st tutunmaslik.
10. Ustozning oila a'zolarini hurmat qilish.
11. Ustozning qarindosh urug'larini hurmat qilish.
12. Ustozning ruxsatisiz hech narsaga qo'l tekizmaslik.
13. Birovning narsasiga ko'z olaytirmaslik.
14. Ustozga cheksiz hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Ustozning kasbiy vazifalari.

Oson yo'l bilan murakkab bilimlarni shogirdlarga o'rgata olish; barcha hunar va fan turlari yuzasidan muyyan bilimga ega bo'lish; qisqa daqiqalarda shogirlarni idrok qila olish fazilati; shogirlarni uyushtira olish va boshqarish iste'dodi; ixcham ma'noni, ohangdor, muyyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq; o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql farosatliligi, mustahkam irodasi bilan obro' orttrish, o'quvchanligi, muomala va muloqot o'rnata olish; insoniy qiyofasi, harakatlari va qilgan ishlari asosida kelajakni oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati; bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida shaxsiy munosabatni bildirish o'quvi; iymon-e'tiqodga faol hayotiy jarayonlarga yo'naltirish qobiliyati; tashbbusga, ijodga ilhomlantira olish; bilimdonlik, ta'lim va tarbiya ishlarini oldindan ayta olish, tadqiqotga layoqtlilik, ya'ni o'z hunariga yangiliklar kirita olish, o'z hunariga, qiziqishi va uni yoshlarga sitqi dildan o'rgata olish; sohasi bo'yicha o'zidan keyin sodiq shogirtlar qoldirish va boshqalar.

II bob bo'yicha xulosa.

Ma'lumki, amaliy san'at haqida gap borar ekan, uning tarixiy rivojlanishi, shart-sharoitlar, rivojlanishidagi xalq ustalarining qo'shgan hissalar albatta, yodga olinmog'i shart. Darhaqiqat, amaliy san'atning tur va janrlari, uning rivojlanish tarixiga nazar tashlab olsak, insoniyatning bolaligiga borib taqalishini bilib olish qiyin emas. Aqliy mehnat, jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi natijasida insonlar qalbida go'zallik tuyg'ulari shakllana bordi. Insonlar go'zallikka, ezgulikka intilib yashay boshladilar. Shunday intilishlar natijasida san'at, madaniyat rivoj topa boshladi.

Amaliy san'atning tur va janrlari ana shunday davrlarda vujudga kela boshladi. Ota-bobolarimiz uning rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib keldilar va oqibatda inson ko'rib ko'zi quvnaydigan, dili yayraydigan, qalbi-qalqiydigan ajoyib san'at namunalari vujudga kela boshladi.

III BOB. Badiiy ta'limda o'zbek xalq amaliy san'atining tutgan o'rni

3.1. Amaliy san'at turlarining kadrlar tayyorlashdagi tarbiyaviy ahamiyati.

Ma'naviy qadriyatlar ustivor ahamiyatni o'ziga kasb etgan jamiyat taraqqiyot yo'lida bo'ladi.

Jamiyat va davlat o'zligini anglagan, vatanparvarlik tuyg'usi bilan millat, xalq manfaatlari ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun ma'suliyatli, ilmiy, ijodiy bilim, kasb-kor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallagan, ruxiy sog'lom, jismonan kamol topgan, umuminsoniy va milliy xulq – atvor normalarini o'z ongi va faoliyatida mujassam etgan ma'naviy madaniyatli shaxsni tarbiyalab boriladi.

Badiiy kulolchilik ta'limini yangilash ishini kulolchilik sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar mohiyatini anglagan holda, ularga xos xususiyatlarni hisobga olib amalga oshirish ijodiy kutilgan natijalarni beradi. Bugungi zamon talabi avvallo, millatimiz badiiy kulolchilik fanida jahonda ijodiy fikrlar bilan ham-ohong bo'lgan etakchi yo'nalishlarni belgilab, bu fanning taraqqiyoti tendensiyalarini badiiy ijodiy tomonidan asoslashdi. Yangilangan tafakkur mevasi bo'lgan tasviriy san'at tizimida badiiy kulolchilik fanining o'rni va uni yo'lga qo'yishning badiiy ijodiy asoslari nimalardan iborat bo'lishi kerak, degan savollarga to'g'ri javoblar kelib chiqadi. Sababi ijtimoiy o'zgarishlar, badiiy kulolchilik fanidagi yangilanishlar ta'limni tashkil etishda aniq aks etishi lozim.

Mavjud ta'lim tarbiya tizimini tubdan isloh qilish uni zamon talablari darajasiga ko'tarish milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish kelajak uchun barkamol salohiyatli avlodni tarbiyalash - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi farmoni va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturning negizini tashkil qiladi.

Bu dolzarb vazifalar Prezidentimiz va hukumatimizning doimiy e'tiborida bo'lib boshqa qaror va farmonlarida ham o'z aksini topmoqda.

Go'zallikni his qila olishni rivojlantirish yuqori estetik didni shakllantirish, san'at asrlarini, tarixiy va me'moriy yodgorliklarini, ona tabiat go'zalliklarini, boyligini tushunish va yuksaltirish maqsadida har bir o'quv fani imkoniyatidan, ayniqsa, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladigan va katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, estetika kabi fanlardan unumli foydalanish kerak.

Ta'lim tarbiya muassasalarida milliy, badiiy, estetik muhitni tashkil etish, o'quv tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Bu albatta, an'anaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqqan holda ilmiy asoslangan zamonaviy o'quv ma'lumotlari o'qitish usullari bilan boyitilgan o'quv ma'lumotlari, o'quv dasturlari asosida amalgam oshirilmog' lozim.

Samarqand kulolchiligi

Markaziy Osiy sirlangan kulolchiligining gullagan davri Temuriylar davri bilan uzviy bog'langan. Bu davrda Samarqand hamon hududning yirik kulolchilik ishlab chiqarish markazi hisoblanar edi. Aynan poytaxt Samarqandda kulolchilik bezaklariga yangi yo'nalishni qo'shish, boshqa kulolchilik markazlari-Toshkent, Buxoro, Shaxrisabz, Merv, Nisalar ishlab chiqargan kulolchilik buyumlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bezatilishida epigrafika va geometrik shakllar ustunlik qiladigan Afrosiyob kulochiligidan farqli o'laroq, yangi uslubda real-haqiqiy narsalarning tasviri ustuvorlik qiladi. Kosa va laganlarda qushlar va o'simliklar tasvirini mohirona va aniq ishlanganligi ko'rinib turadi. Naqsh bezaklarning yorqin ranglari ya'ni oq-qizil va to'q jigarrang xira sirlangan zangori ranglar majmuasi o'rniga, moviy-oq yoki yorqin ko'k sir asosida qora soyasimon naqshlar o'rin egallagan.

Samarqand kulolchilik maktabining asoschilaridan biri Usto Umar Jo'raqulovning taniqli shogirdlaridan biri Mansurjon Nosirovning ishlari ham o'z uslubi va mavqeiga ega.

Rishton kulolchiligi texnologiyasi o'zining badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Rishton ustalari nozik tasvirli naqshlardan iborat o'z uslubini ishlab

chiqdi. Ba'zan bezak naqshlari qatorida choyidish(oftoba) , ko'za, musiqa asboblari Markaziy Osiyo hududida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarining vujudga kelishi bilan bog'liq badiiy jarayonning mahalliylashuvi tufayli kulolchilikda yangilanish xolati vujudga keladi. Farg'ona va Xorazm kulolchilik maktablari uchun sir ostidagi naqshlarga ko'k –moviy rang beruvchi potash yoki ishqordan yaratilgan sovuq ko'k – oq – moviy rang tuslaridan foydalanish xos xususiyat bo'lib qoldi.

Farg'ona maktabi kulolchiligi ashyolari bezak tasvirlari shakli va mazmunining boyligi bilan Tojikiston tog'li xududlari ayollari suv tashishda foydalangan an'anaviy sirlanmagan sopol idishlardan farq qiladi.

G'ijduvonlik kulollari ham Buxoro, Samarqand kulolchilik maktabi an'analariga asosan, sopol buyumlarga ko'proq qo'rg'oshin tusli sir qo'llashadi. Jumladan, Narzullaevlar ayrim unsirlardan ustalik bilan murakkab bezak kompozitsiyalar yaratdilar. Bu mohir kulollar ishida G'ijduvon kulolchilik maktabining o'ziga xos hamma sifatlarini ko'rish mumkin. Ustalar yaratgan naqshlar mumtoz uslubda bo'lib, ular yuzdan ortiqdir.

O'rta Osiyo kulolchiligida, barcha musulmon davlatlar kulolchiligi kabi, yangicha yondashish kuzatilgan, ya'ni arab yozuvi asosida epigrafik naqshlar bilan bezatilgan. YOzuvlar ajralib turishi uchun rassom-kulol uni jigarrang-qora, gohida qizil ranglarda, oq rang asosida chizgan. YOzuvlar kosa va laganlarning chetlariga yoki ostiga ko'ndalang qilib, gohida idishning diametri bilan kesishgan holda yozilgan.

Naqsh bezaklarning rivojlanish taraqqiyotini uchta asosiy yozuvlar ko'rinishida kuzatish mumkin: oddiy kufi yozuvida harflarning umumiy uyg'unligi va yozilishda shaklning geometrik aniqligi xosdir, kech rivojlangan kufi yozuvi nisbatan kam uchraydi va me'moriy epigrafika kalligrafik yo'nalishidan farq qilib, harflar o'simliklar naqshi o'rami va bog'lami bilan aralashib ketgan.

Yozuvlarning mazmuni ikki asosiy guruhga bo'linadi. Bular yaxshilik tilaklari yozuvlari bo'lib, duo va fотиha-baraka, tinchlik-omonlik bitiklari keng tarqalgan. Boshqa guruh-o'git, pand-nasihatli yozuvlar: «Ilmning ildizi achchiqdir,

lekin hosili asaldan ham shirindir», «Saxovat-taqvodorlarning qalb sifatidir», «Saxovat-halollik va mulk posbonidir», «Sabr-toqat-baxt va omad kaliti» va boshqalar. Epigrafik naqshli keramikaning sara namunalari, yozuvlar va harflar ravonligining jozibadorligini namoyon qiladi.

XII- XIII asrlar Afrosiyob kulolchiligi tayyorlanishida epigrafika (eski yozuvlarni o'rganish) handasaviy (geometrik) shakllarga yon beradi va uni etnik asosning o'zgarishi bilan bog'laydi. Handasaviy shakllar bezashning ikkinchi darajali elementlaridan buyumlar naqshlanishining asosiy bezatilishiga o'tadi. Umuman, Afrosiyob kulolchiligi alohida uslubga ega, ya'ni eski bezak elementlarining yangi naqshlar va ranglar bilan boyitib borilganligi bilan ajralib turadi.

XIII-XIV asrlarda mo'g'ul bosqinchilarini bartaraf etgandan keyingi oqibatlar Samarqand sirlangan kulolchiligidagi tasviriy ornamental mavzu, ma'lum stillashtirilgan uslubga solingan va bo'lib-bo'lib ishlangan o'simliklar bezagiga o'rnini egallagan. Samarqand sirlangan kulolchiligining gullagan davri Temuriylar davri bilan uzviy bog'langan. Bu davrda Samarqand hamon hududning yirik kulolchilik ishlab chiqarish markazi hisoblanar edi. Aynan poytaxt Samarqandda kulolchilik bezaklariga yangi yo'nalishni qo'shish, boshqa kulolchilik markazlari-Toshkent, Buxoro, SHaxrisabz, Merv, Nisalar ishlab chiqargan kulolchilik buyumlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bezatilishida epigrafika va geometrik shakllar ustunlik qiladigan Afrosiyob kulolchiligidan farqli o'laroq, yangi uslubda real-haqiqiy narsalarning tasviri ustuvorlik qiladi. Kosa va laganlarda qushlar va o'simliklar tasvirini mohirona va aniq ishlanganligi ko'rinib turadi. Naqsh bezaklarning yorqin ranglari ya'ni oq-qizil va to'q jigarrang xira sirlangan zangori ranglar majmuasi o'rniga, moviy-oq yoki yorqin ko'k sir asosida qora soyasimon naqshlar o'rin egallagan.

XIV-XV asrlar kulolchiligida bezaklarning o'zgarishi va bo'yoqlarning bir-biriga mos kelishida Xitoy san'ati ma'lum darajada ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrda Xitoy bilan aloqalar mustahkam bo'lgan. Bundan tashqari Temuriylar jamiyatida xitoycha modalar ustunlik qilgan. Xitoy buyumlari tarkibida kaolin- oq loydan

tayyorlangan kobalt bo'yoqlari bilan naqshlangan chinni idishlar ustunlik qilgan. O'rta Osiyo hunarmandlari kaolin o'rniga teshik-teshik silikatli sopol parcha-koshidan foydalanganlar. Koshin kulolchilikda allaqachon XII asrdan boshlab qo'llanilgan, XIV asr oxiriga kelib, me'morchilikda o'ymakorlik mozaikasida qo'llanilgan. Bo'yoqlar o'rniga esa, xitoyliklar kabi kobalt qo'llanilgan, lekin ba'zida qora- yashil, pushti-binafsharang beruvchi bo'yoqlar ham qo'llanilgan.

Temuriylar davri kulolchilik buyumlari bezaklarining rangtasvir real yo'nalishi, renessans g'oyalarining tasdig'i sifatida san'atning parvoz etayotganidan dalolat beradi. Temuriylar davri sirlangan kulolchilik buyumlarining shakllari ham turli xildir. Bular ikki turdagi idishlar bo'lib, chuqur, aylana asosda, tekis qayrilgan yoni bilan va mayda uncha baland bo'lmagan to'g'ri va tekis yoni bilan, shuningdek har xil ko'zalar. Bularning ba'zi birlari nihoyatda nodir bo'lib, shunga yaqin o'xshashlik topilmaydi. Ehtimol, bu nodir buyumlar buyurtma asosida cheklangan miqdorda tayyorlangan bo'lishi mumkin. Hozirda mavjud bo'lgan chinnisimon buyumlar xillarining aksariyati aynan shu davrda jamlangan. SHunday qilib, sopol buyumlar bezatilishining o'zgarishi jarayoni (afrosiyob, temuriylar davri) tarixiy jarayonlarning aksi bo'lib, Movarounnaxr badiiy madaniyatining hamma qirralarini o'z ichiga oladi.

XVI asr mobaynida Samarqand sirlangan kulolchiligi, o'tgan yuz yilliklar san'ati an'alarini davom ettiradi, ammo XVI asr oxiri XVII asr boshlariga kelib, chetdan keltirilgan qimmatbaho kobalt bo'yog'i o'rniga sifati pastroq, bo'yoqlar, koshin sopol parchasi loy parchasiga almashtiriladi. XVIII-XIX asr badiiy kulolchiligi, ishlab chiqarish usuliga ega bo'lgan alohida markazlarda joylashgan. Bu uslublarning farqi xiyla keng va chuqurdir, chunki ular buyumlarning shakli va bezaklarning tuzilishi bilan birga, har xil manba va uzoq o'tmishlarga borib taqaladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan badiiy hunarmandchilikning an'anaviy shakllari ayniqsa yirik shaharlarda yo'qolib bordi. Samarqandda atigi 14 ta kulolchilik ustaxonasi saqlanib qolgan. Usto Sulton Xo'ja, Usto Safarboy, Usto Abdug'afor, Nur-Mahmat kabi taniqli

ustalar nomlari saqlanib qolgan, ular sirlangan shokosa, koʻzalar, xumlar, togʻoralar yasashgan. Idishlar boʻyoqlar bilan, oddiy gullar naqshi bilan bezatilgan. Ammo, Samarqandda idishlarni naqshlash, bezash anʼanaviy usullari unutib borildi va shaharga tez-tez Rishton va Xoʻjanddan ustalar idishlarni bezash uchun kelganlar. Idishlarni ishlab chiqarish oʻzining oddiyligi bilan ajralib turadi va tadqiqotchilarning maʼlumotiga qaraganda, hunarmand ustalar ishlab chiqarishni yaxshilashga harakat qilishgan, fabrikada tayyorlangan mahsulotlar bilan raqobatga bardosh berish uchun uskunalarni takomillashtirishga uringanlar. Fabrika mahsulotlari rivojlanishi bilan Samarqand sirlangan kulolchiligining anʼanaviy shakllari butunlay yoʻqolib bordi, 1970-1980 yillarga kelib esa, butunlay boshqacha yoʻnalishga- idishlar tayyorlash oʻrniga ustalar figurali plastika tayyorlashga oʻtib ketdilar.

Mashhur samarqandlik usta U.Joʻraqulov, oldin anʼanaviy kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan keyinchalik kulolchilikda yangi yoʻnalish- mayda dekorativ plastika ishlab chiqarishga asos solgan. Hozirda Samarqandda muvaffaqiyatli rivojlanayotgan mayda terrakot kompozitsiyalari samarqandlik rassom ustalar tomonidan zamonaviy milliy udumlar, bayramlar mavzusi asosida faol yaratilmoqda.

Uzoq va murakkab rivojlanish yoʻlini oʻtgan Samarqand kulolchiligi boy tarixiy qudratga ega. Afsuski, Samarqand sirlangan kulolchiligiga shuhrat keltirgan anʼanalar bugungi kunda unutilgan. Ularni qayta tiklash hozirgi zamon xalq sanʼatining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Samarqand kulolchilik maktabi.

Afrosiyob muzeyida tashkil etilgan Haydar Boturovning shaxsiy koʻrgazmasi usta U.Joʻraqulovning shogirdi, u yaratgan Samarqand kulolchilik maktabining davomchisi sifatida, uning 40 yillik mehnat faoliyatida yaratgan asarlarini namoyish etadi. U oʻz ishlarida qadimiy Afrosiyob sopollari namunalarini qayta tiklamoqda. Uning ishlarida qadimiylik va zamonaviylik uygʻunlashib ketgan. U oʻzining sirlangan tovoq, shokosa, kosa va boshqa idishlariga Afrosiyobdan topilgan bezakli idishlar asosida bezak beradi.

Sirlanmagan terrakota yoʻnalishida ham u koʻpgina koʻzalar, ajdarho, riton, shamdon va boshqa buyumlarni yasagan. Boturov yaratgan asarlar Respublika miqyosidagi va xorijiy davlatlar tashkil etgan koʻrgazmalarda muvaffaqiyat bilan namoyish etilgan.

Haydar Boturov oʻzining kulolchilik hunari sirlarini oʻgʻli Boturov Azamatga ham oʻrgatmoqda. Oʻgʻli ham otasining hunarini qunt bilan oʻrganib, koʻpgina koʻrgazmalarda muvaffaqiyatli qatnashmoqda. Koʻrgazmada uning ham ishlaridan namunalar namoyishga qoʻyilgan.

Uzoq va murakkab rivojlanish yoʻlini oʻtgan Samarqand kulolchiligi boy tarixiy qudratga ega. Afsuski, Samarqand sirlangan kulolchiligiga shuhrat keltirgan anʼanalar bugungi kunda unutilgan. Ularni qayta tiklash hozirgi zamon xalq sanʼatining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Boturov Haydar Samarqand kulolchilik maktabining etuk namoyandasi. U usta kulol Oʻzbekiston xalq rassomi Umar Joʻraqulov va Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi Mansur Nosirovning shogirdi. 1967 yildan 1978 yilgacha Samarqand shahridagi Oʻzbekiston badiiy ishlab chiqarish ustaxonasida usta kulol sifatida faol ishladi. 1978 yildan 2000 yilgacha «Usto» birlashmasida ishladi. 2000 yildan boshlab, oʻzining shaxsiy ustaxonasida ishlarini davom ettirmoqda. Boturovning ishlarida qadimiy Afrosiyob kulolchiligiga xoslikni koʻrish mumkin. U oʻz ishlarida qadimiy Afrosiyob sopollari namunalarini qayta tiklamoqda. Uning ishlarida qadimiylik va zamonaviylik uygʻunlashib ketgan. U oʻzining sirlangan tovoq, shokosa, kosa va boshqa idishlariga Afrosiyobdan topilgan bezakli idishlar asosida bezak beradi. Sirlanmagan terrakota yoʻnalishida ham u koʻpgina koʻzalar, ajdarho, riton, shamdon va boshqa buyumlarni yasagan.

Uning 40 yillik mehnat faoliyatida yaratgan asarlari Respublika miqyosidagi koʻrgazmalarda va xorijiy davlatlarda tashkil etilgan ekspozitsiyalarda, jumladan, Rossiyaning - Moskva, Sankt - Peterburg, Hindistonning - Dehli, Daniyaning - Kopengagen, Chexiyaning - Praga, Yaponiyaning - Tokio, Kioto, Osaka, Kanadaning - Ottava, AQSHning Vashington, Nyu-York, Turkiyaning-Istambul, Anqara shaharlarida muvaffaqiyat

bilan namoyish etilgan. Ustaning ishlari O'zbekistonning va jahonning ko'pgina muzeylarida, jumladan, Parijdagi Luvr muzeyi va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda.

Boturov Haydar o'zining kulolchilik hunari sirlarini o'g'li Boturov Azamatga ham o'rgatmoqda. O'g'li ham otasining hunarini qunt bilan o'rganib, ko'pgina ko'rgazmalarda muvaffaqiyatli qatnashdi. «Kelajak ovozi-2006»da Respublika bosqichi g'olibi, «Tashabbus-2008» da shahar bosqichi g'olibi, 2008 yil Toshkentda o'tkazilgan «Yosh kulollar» tanlovining oliy darajali diplomi bilan mukofotlangan.

3.2. Amaliy san'at turlarini soha mutaxassislarini tayyorlashdagi o'quv uslubiy jarayoni.

Mamlakatimizda hamma soha bo'yicha izchil olib borilayotgan islohotlar estetik tarbiya yosh avlodni har tomonlama va garmonik kamol toptirishga xizmat qiladi. Shuning uchun estetik tarbiya konsepsiyasi insonga hozirgi jamiyat va fan-texnika taraqqiyoti qo'yadigan talablarning butun kompleksini aks ettirish kerak.

Estetik tarbiyaning eng samarali vositasi san'at, uning har xil turlari va janrlaridir. Kollejdagi badiiy naqqoshlik to'garak mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish ijodiyotning ana shu turning spetsifikasini hisobga olishni taqozo etadi va shunga ko'ra qator nazariy, metodik hamda amaliy masalalarni ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Bulardan eng muhimlari: ijodiy texnologik jarayonlar mahsuli sifatidagi badiiy naqqoshlik asarlarining spetsifikasi, atrof-muhit bilan bog'liqligi; hozirgi maktabning moddiy-tashkiliy imkoniyatlari nuqtai nazardan san'atning turi sifatidagi naqqoshlik, to'garak binolarini tashkil etishga qo'yiladigan texnik estetika talablari.

Naqsh san'atini o'rganishda eng zarur tadbir-O'zbekiston dekorativ-amaliy san'atidagi badiiy ijodiyotning ana shu turi rivojlanishining tarixiy bosqichlari va qonuniyatlari bilan tanishishdir. Xususan tarixiy materiallar o'quvchilarda badiiy naqqoshlik spetsifikasi, uning korgazmali muhitini tashkil etishdagi, kishilar

hayotidagi roli, ya'ni nazariy estetik asoslari haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Talabalarni o'zbek naqshining uslubiy xususiyatlari bilan tanishtirishda bir yo'la o'zbek xaqining juda boy madaniyati, ajoyib an'analari bilan ham tanishtirish lozim. Qadimgi davrlardan saqlanib qolgan mehnat qurollariga, maishiy maishiy buyumlarga qarab, uzoq o'tmishdagi kishilarning hayoti to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

Hunarmand ustalar kishini lol qoldiradigan ajoyib naqsh kompozitsiyalarini yaratib, ana shu naqshlarda o'zlarining fikr va orzu-umidlarini ifodalab, ularni "odamga oxshab gapirishga" majbur qilganlar.

Buyuk ajdodlarimiz Ibn Sino, Beruniy, Nosir Xisrav, Sulton Ali Mashhadiy, Ulug'bek, Nizomiy, Jomiy, Umar Hayyom va boshqalar qadimgi amaliy san'at sohiblarining asarlarini, mahoratlarini, xalq naqshlarini arxitekturada kostruktsiyasiga uyg'un bog'lay olganini madh etganlar.

Pedagogning vazifasi talabalarga xalq ustalarining asarlarini ko'ra olish va tushunishni, san'atkorni poetic fikrlarini hamda ularni ifodalashda qo'llagan tasvir vositalarini idrok etishni o'rishdir. Buning uchun talaba badiiy naqshning mohiyati nimalardan iboratligini, usta asarni qanday qilib yaratishini, bu san'atning qanaqa janrlari mavjudligi va hokazolarni bilishi kerak.

Dekorativ-amaliy san'atni bilishni pedagogik jihatdan qimmatliligini sababini quyidagilar bilan izohlash mumkin: san'atning ana shu turiga oid asarlar talabalarda moddiy olamni idrok etishning estetik madaniyatini tarkib topdiradi, voqelikka estetik munosabatni shakllantiradi, ularga tasviriy san'atning boshqa turlariga xos badiiy ifoda vositalarini chuqurroq bilishda yordam beradi.

Talabalarda psixologik kayfiyatni vujudga keltirish naqsh to'garaklaridagi ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bungga tajribali naqqosh o'zining amaliy ishini namoyish etish yoki o'tmishdagi ustalarning asarlarini tahlil qilish orqali erishishi mumkin. Masalan "islimi" yoki "girihi" naqshlarining qanday ishlanishini ko'rsatish yazshi omildir. O'quvchilar ustaning qo'l harakatlari natijasida naqsh elementlarining qo'shib borishini,

ranglarning uyg'unlashuvini ko'rgan zahoti o'z ustozlarining ishini takrorlashga harakat qiladilar.

Yuqorida aytilganidek, naqqoshlik to'garagining ishi naqqoshlikda yagona termionogiya mavjud emasligi bilan murakkablashadi. Har bir pedagog, rahbar yoki usta xalq naqshi elementlarini o'zining o'zbek naqshiga xos xususiyatlari to'g'risidagi ko'pincha noaniq tasavvurida asoslanib tushuntiradi.

Biz O'zbekiston san'atini o'rganish va kekxa naqqoshlar bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida o'zbek naqshining asosiy elementlari terminalogiyasini ishladik va ularning namunalarini grafik usulda tasvirladik (jadval). Bular: barg, bodom, band, qo'shband, marg'ula, yo'l, yulduzcha gul, bargli gul, ko'p bargli gul, oygul, to'liq oygul, bargli oygul, uchbarg, paxta gul, bofta, tugun gul, shoxbarg, shobarg, shikifta, gajak, jingalak ko'vacha gul va boshqalardir.

Talabalarni naqshning usul va metodlari bilan tanishtirish bo'yicha ko'p yillik ish tajribasi o'zbek naqshining keng tarqalgan elementlar nomlarini berish o'quv materialini o'zlashtirishi va naqsh kompozitsiyalarini tuzishda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish samaradorligini oshirishni ko'rsatadi.

Talabalarni umumiy qabul qilganda san'atshunoslik terminlari, badiiy obraz, kompozitsiya, kolorit tushunchalari bilan tanishtirishda shu termin va tushunchalarni muayyan doirada, talaba bilimi saviyasiga muvofiq yoritish lozim.

Hozirgi estetik tarbiya nazariyasi va amaliyotida talaba yoshlardagi rangni his qilishning rivojlanishini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bu masalada talabalarga badiiy ta'lim berish va ularni kamol toptirishning mazmuni hamda mrtodlarini yanada takomillashtirishda muhim o'rin hisoblanadi.

Ko'p yillik tajriba ranglar nomini yaxshi o'zlashtirishlarni, rangni faqat asosiy xarakteristikasi bo'yicha (muayyan ranglarni) emas, balki nafisligi, tovlanishi bo'yicha ham farqlashni tez o'rganishlarini kolorod va ranglar munosabatining ayrim masalalarini yaxshi tushunishlarini ko'rsatadi. Ranglar shartli bo'lib, tabiiy muhitning konkret sharoitlaridagi ob'ektlarning haqiqiy rangini ifodalamaydigan naqsh san'atidagi kolorit va rangning qonuniyatlari

boshqachadir. Unda harbir rangning ma'no va kompozitsiya jihatidan to'g'riligi, ular o'rtasidagi keskinlik asosiy rol o'ynaydi. Lekin naqsh elementlarining rangining ma'no jihatidan to'g'riligi o'z navbatida, ulardan har birining naqsh kompozitsiyasidagi roli bilan belgilanadi.

Naqshdagi qandaydir element o'zining ma'naviy va kompozitsion ahamiyati bilan naqshda alohoda o'rin tutsa, uning rangi maxsus ajralib turishi mumkin, bunday holda naqsh kompozitsiyasining kolorit yaxlitligi buzilmaydi. Bunday element ikkinchi darajali, qo'shimcha bo'lgan hollarda esa uni ajratadigan rangkompozitsiyadagi asosiy narsaning idrok etilishiga monelik qiladi, uning uyg'unligini buzadi, undan "chiqib" ketadi. Tusi qarama-qarshi ranglarning qo'shilishi eng uyg'un bo'ladi. Ammo bunday uyg'unlik har doim ham foydali bo'lavermaydi. Ayrim hollarda tusi qarama-qarshi ranglarning birikishi haddan tashqari keskinlikni vujudga keltiradi.

Uyg'un birikishlar jumlasiga bir rangning tuslari sifatida idrok qilinadigan o'zaro yaqin ranglarni taqqoslash ham kiradi. Ranglar uyg'unligida spektr ranglarning och-to'qligi nisbatini ham saqlash, spektrdagi och rangni-ochroq, to'q rangni to'qroq olish kerak. Och-to'qlikning bunday nisbatini odatda atrofdagi voqelikda ko'ramiz va ular biz uchun tabiiyroq tuyuladi.

Rasmning bo'rtib turgan qismlari fonddan ancha ajralib turishi lozim. Kontur rasmning aniqligini oshiradi. To'q kontur soyani va och kontur hoshiyani eslatadi.

Ko'pincha bir-biriga yaqin ranglarni yonma-yon ishlatishda konturdan foydalaniladi va shu orqali uning kontrastli o'zaro ta'siri kamaytiriladi hamda bir rangdagi elementlarni rangli elementlardan ko'proq ajratiladi, vaholanki, bir xil tusli ranglar bitta fonda yaxshi ajralib turmaydi. Qora fondagi naqshda kontur bo'lishining hojati yo'q.

To'q rangli kontur chegaralangan yuzaning yorqinligini kamaytiradi, och rangli kontur yuzaning idrok etilayotgan rangini o'zgartiradi. Agar bir tusdagi rangli yuzaga intinsiv rangli nafis rasm rangiga yaqinroq rangli bo'lib ko'rinadi. Masalan, och havorang fonga qora rang chizilsa, bu fon ko'kroq bo'lib ko'rinadi

yoki yashil fonga qizil bilan chizilsa, fon pushti rangga o'xshab qoladi. Ranglar uyg'unligini tanlashda ularning tusi o'xshashligi muhim rol o'ynaydi. Odatda tusi bir xil ranglar guruhida umumiy o'rta tus asosiy rang hisoblanadi. Masalan, gruppani jigarrang oxra, sariq, to'q sariq tuslar taskil etsa, uning toni tillarang oxra bo'ladi yoki ko'k, havorang, och yashil ranglardan iborat va ko'k bilan havorang ko'proq gruppaning tusi ko'k hisoblanadi. Rang gruppasidagi ranglarning farqi qanchalik katta bo'lsa, gruppaning umumiy o'rta tusini ajratish shunchalik qiyin bo'ladi. Rang gruppasida ba'zi o'rta tusni ko'rib, shu gruppadagi ayrim ranglarni boshqacha idrok etamiz va ularni qandaydir o'rta tusga bo'ysindiramy.

Ranglarning uyg'unligi har xil bo'ladi: ulardan ba'zilari eng ko'b o'ynoqiligi va intensivligi bilan, boshqalari bir tonliligi yoki qattiq keskin koloritliligi bilan xarakterlanadi.

Mana shunday har biri badiiy maqsadga va berilgan rang vazifasining talablariga qarab tanlanadi.

Mehnat hamda badiiy faoliyatning boshqa anchagina turlaridagi kabi naqqoshlikda ham malaka va mahoratni egallash tobora murakkablashib boradigan bosqichlarda amalga oshadi, o'quvchilarning ma'lum darajada muhim ta'limiy va psixologik tayyorgarligini talab qiladi.

Shuning uchun naqqoshlik to'garaklari barqaror va muvoffaqiytli ishlashida ulardagi talabalarni guruhlariga to'g'ri bo'lish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, kichik guruh yoshidagi talabalarning ayrimlari keying yosh toifasidagi talabalarga tavsiya etilgan o'quv dasturi bo'yicha badiiy ijodning har xil turlarini egallash uchun zarur imkoniyat va katta resurslarga ega bo'ladilar.

Talabalarni badiiy tayyorgarligi va qobiliyati o'z gruppasi uchun yetarli darajada rivojlanmaganligiga asoslanib kichikroq gruppadagi mashg'ulotlarga jalb etish ham ma'qul emas. Shunday qilib, to'garak gruppalarining yosh tarkibini belgilaydigan ikkita asosiy omil mavjud: 1) to'garak gruppalaridagi mashg'ulotlar dasturining o'rta ta'lim dasturiga rasman muvofiqligi; 2) har bir talabaning mazkur gruppadagi mashg'ulotlarga umumiy va maxsus tayyorgarligining haqiqiy darajasi.

Bizningcha, talaba yoshdagi bolalarning kamoloti haqidagi, turli davrlarda tabiiy o'sishi va ta'lim-tarbiy jarayoni natijasida egallagan jismoniy va ruhiy imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda asosan quyidagi jihatlarni e'tiborga olish zarur: 1) talabalardagi naqqoshlik ishlarining qandaydir bitta yoki bir necha turlari bilan shug'ullanishga jismoniy tayyorgarlikni; 2) bitta fakultativ gruppadagi har xil yoshli o'quvchilarning psixologik birlashuvini; 3) bir necha "yondosh" o'quv yillaridagi ta'lim programmalarining o'z xarakteri va yo'nalishlari bo'yicha, tasviriy san'at, fizika, kimyo, matematika, mehnat, adabiyot, tarix predmetlarida o'rganiladigan masalalarni qo'yishning murakkabligi va chuqurligi darajasi bo'yicha o'zaro yaqinligini.

Ana shu uchta jihatning naqqoshlik to'garagida talabalarni yoshiga qarab gruppalashdagi ahamiyatini ko'rib o'tamiz.

Dekorativ-amaliy san'at to'garagi.

Dekorativ-amaliy san'at to'garagida o'quvchilarga naqqoshlik, kulolchilik, ganch va yog'och o'ymakorligi, misgarlik, badiiy kashtachilik kabi hunarlar o'rgatiladi. Bunday to'garaklarga maxsus ma'lumotga ega bo'lgan o'qituvchilar rahbarlik qiladi. To'garaklarda o'quvchilarga o'zbek, rus, chet el dekorativ san'ati elementlari va ularni amalda qo'llash yo'llari o'rgatiladi; ular xalq dekarativ-amaliy san'atida ganch, suyak, yog'och o'ymakorligi, naqsh chizish, me'morchilik asoslari namunalari bilan tanishtirib turiladi. Shuningdek, to'garak a'zolari dastur hajmida rasm, rangtasvir bilan shug'ullanadilar. Tasviriy san'at asarlari bilan tanishadilar. Kasb-hunarga doir mashg'ulotlarda o'quvchilar daraxtlarga naqsh soladilar, barg va gullardan naqshlar tuzadilar, o'simlik, hayvon va boshqa narsalarning tasvirini naqsh bilan ishlaydilar.

To'garak a'zolarining uy ishlarini muntazam kuzatib boorish sinfdan tashqari ishlarning muhim shartlaridan biridir. Talabalarning amaliy san'at sohasida uyda mustaqil ishlagan ishlarini nazorat qilib turish va tegishli maslahatlar berish ularning to'garakdagi faoliyatlariga katta yordam beradi.

Pedagogika fanlari doktori, professor S.S.Bulatovning «O'zbek xalq amaliy bezak san'ati» nomli kitobining amaliy san'at turlari bo'yicha ilmiy asosda batafsil bayon etilgan.

Samarqand qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kolleji talabalariga amaliy san'at turlaridan so'rovnoma o'tkazdik. Uning natijasi quyidagicha bo'ldi.

1-jadval

Talabalarlarning aniqlovchi so'rovnomaga berilgan javoblari haqida.

Darajalar	Tajriba-sinov guruhlar. 100 talaba		Nazorat guruhlari. 100 talaba	
	Tajriba-sinovning boshlanishida	Tajriba-sinovning oxirida	Tajriba-sinovning boshlanishida	Tajriba-sinovning oxirida
Yuqori	21 (21)	31 (31)	20 (20)	26 (26)
O'rta	41 (41)	42 (42)	54 (54)	41 (41)
Past	38 (38)	27 (27)	26 (26)	33 (33)
	100 (100%)	100 (100%)	100 (100%)	100 (100%)

O'tkazilgan tadqiqotimizning natijalarini tahlil qilar ekanmiz shunday natijalar olindi. talabalarning amaliy san'at turlari rivojlanishi, o'sishi tajriba qilingan guruhda yuqori ko'rsatkichlar 31% ni, nazorat guruhlaridagi bu ko'rsatkich 26%ni tashkil qilganini ko'rdik. O'z-o'zini ko'rinib turibdiki farqi bir-biridan 5% tashkil etmoqda. Bu biz taklif qilgan metodikaning to'g'ri ekanligini ko'rsatib turibdi. Huddi shunday qaraydigan bo'lsak o'rtacha ko'rsatkichlar ham ancha farqlanganini ko'rish mumkin bo'ldi. Past ko'rsatkichlar esa yuqori va o'rta ko'rsatkichlar hisobiga nazorat guruhlarida anchaga oshgan. Tajriba-sinov guruhlarida bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada kamayganligini ko'rdik. Tajriba-sinov natijalaridan olgan ma'lumotlarimiz asosida ishlarni ijobiy baholash uchun imkoniyat paydo qildi. Bu amaliy sanatga oid mavzuda olib borilgan tajriba-sinov ishlarimiz natijasi yaxshi bo'lganligini hamma ko'rsatkichlarda ko'rdik.

Badiiy kulolchilik ta'limi davlat ta'lim standartidan kelib chiqqan holda tuzilgan namunaviy va ishchi o'quv rejalari asosida Samarqand Davlat arxitektura instituti, arxitektura fakulteti "Kasb ta'limi" tasviriyl san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi talabalariga ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazib kelinmoqda. Mashg'ulotlarni o'z sohasini puxta o'zlashtirgan malakali rassom-kulollar Bahrom Berdiyev va Husan Mahammatovlar yuqori saviyada olib borishmoqda. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar yuqorida ta'kidlangan va tajriba sinovdan o'tgan dasturlar asosida olib boriladi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
RXITEKTURA QURILISH INSTITUTI**

“Tasviriy san’at” kafedrası

**“TASDIQLAYMAN”
Arxitektura fakulteti
dekani tex. fan. nom. dotsent
Abduraimov M.R.**

“ _____ ” _____ 2012 y.

Ta’lim yo‘nalishi 5211200 - Kasbiy ta’lim (amaliy san’at)

“BADIY KULOLCHILIK”

fanidan

Ishchi o‘quv dasturi

Samarqand-2012 yil

Ishchi o'quv dasturi 5211200- Kasbiy ta'lim (amaliy san'at) sohasi bo'yicha Samarqand Davlat Arxitektura – qurilish instituti tamonidan 5211200- Kasbiy ta'lim (amaliy san'at) yo'nalishi uchun badiiy kulolchilik fani bo'yicha tuzilgan va 2011yil 14 martda O'zbekiston respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligi tamonidan tasdiqlangan (№ 107 sonli buyurug'i) namunoviy dastur asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar; “Tasviriy san'at” kafedrasida katta o'qituvchilari Mahammatov H., Berdiev B. T va dots. Jo'raev H.H.

Taqrizchi: kafedra mudiri v.b. Saloxiddinova D.Z.

Fan bo'yicha o'quv yuklamalarining taqsimoti.

Semestr	Mashg'ulotlar tarkibi			
	ma'ruza	Amaliy	mustaqil	reyting
VII	-	30	-	-
Jami	-	30	-	-

“Tasviriy san'at” kafedrasining 2012yil 29 avgustdagi yig'ilishining (№1-bayonnomasi)da muhakama qilingan va maqullangan.

Kafedra mudiri v.b.

Saloxiddinova D.Z.

Arxitektura fakulteti ilmiy uslubiy Kengashining 2012 yil 30.08 dagi yig'ilishinidagi (№1-bayonnomasi)da ko'rib chiqilib, tasdiqlanib, ma'qullangan va tavsiya qilingan.

Ilmiy uslubiy kengash raisi;

a.f.n. professor. Uralov A.S.

Kirish

Yangilanayotgan pedagogik tafakkur va oliy ta'lim muassalarida badiiy kulolchilik fanini o'qitishning badiiy – ijodiy asoslari yangilanayotgan milliy kasbiy ta'lim (amaliy san'at va muxandislik grafikasi) talabalari asosida ta'lim jarayonida ro'y bergan, berayotgan va bo'lishi muqarrar o'zgarishlarning asosiy xususiyatlarini ilmiy-nazariy tomonidan umumlashtirish ehtiyoji paydo bo'ladi. Kasbiy ta'lim (amaliy san'at va muxandislik grafikasi) ta'limining asosiy masalalarini hal etmay turib uning zaruriy masalalarini to'g'ri echish mushkuldir chunki ushbu jarayon orqali shaxs ma'naviyati shakllana boradi.

Badiiy kulolchilik fanini o'qitishning asoslarini belgilash, ta'limning maqsadi, vazifalari va mazmuni tushunchalarini yangicha pedagogik tafakkur nuqtai nazaridan izohlash, Kasbiy ta'lim (amaliy san'at va muxandislik grafikasi) ta'lim jarayonida talaba – o'qituvchi munosabati harakterini ko'rsatish. Badiiy kulolchilik darslari orqali ustoz va shogirt udumi asosida talabalarda ma'naviyat ruhini shakllantirish vositasi ekanini asoslashga alohida e'tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir.

Yangilanayotgan Badiiy kulolchilik fanini milliy asoslarga tayanishi, o'ziga hos ruxiyat soxibi bo'lishi xalq vakillari bilan, alohida qadriyatlar tizimiga muvofiq yashayotgan kishilar qatlami bilan ish ko'rayotganini hamisha yodda tutishi lozim. Bu esa badiiy kulolchilikning ijodiy tushunchalarini anglash va badiiy ta'lim-tarbiyaning mazmunini yoritishda maqsadga muvofiqdir. Zero kulolchilik tajribalariga e'tiborli bo'lishda ham, badiiy kulolchilik va umuman kulolchilikdan meros qolgan buyumlarni his etishda ham, tarbiyaviy tadbirlarning ijodiy, ruhiy, jismoniy muhitlarni his qilish xam, nazariy bilimlarni amalda qo'llashda ham kulochilikning o'rni beqiyosdir. Aniq maqsadi bo'lmagan pedagogika yaqin o'tmishda bo'lgani kabi muvaffaqiyatsizlikka mahkumdur. Pedagogik tadbirlar, tarbiyashunoslikka doir qarashlar faqat milliylikka tayanilgandagina, ta'lim-tarbiya ob'ektlari va sub'ektlarining milliy xususiyatlarini hisobga olib ish yurita bilgandagina o'z oldiga qo'ygan natijalarga erisha oladi. Chunki ,pedagogik tadbir umuman odamlarga emas, balki muayan millatga

mansub aniq odamlarga tadbiq etiladi. Bu muayyan millat dunyoga bugun kelgani yo‘q va o‘zining tarixiy umri davomida o‘ziga xos ijtimoiy tajriba ortirgan, ma’naviy qadriyatlari, joylashgan muhiti, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sharoitiga ko‘ra ruhiyatlar tuzilishiga ega. Pedagogika o‘zi talqin etmoqchi bo‘lgan g‘oyalarni ana shu tajribalar, qadriyatlar, psixologiyadagi o‘ziga hosliklar ustiga qursagina biror ijobiy natijaga erishadi.

“Badiiy kulolchilik” o‘quv fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi amaliy mashg‘ulotlarni loyixalash texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur qo‘llanma kirish, ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari hamda amaliy mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalaridan tarkib topgan.

Ta’lim texnologiyasining konseptual asoslari bo‘limida “Badiiy kulolchilik” o‘quv fanini o‘qitishning dolzarbligi asoslangan mazkur fanning tuzilmasi keltirilgan hamda semestr bo‘yicha mazmuni ochib berilgan. SHu bilan birga o‘qitish, kommunikatsiya, axborot va ta’lim jarayonini boshqarish usullari va vositalarining konseptual asoslari yoritilgandir.

Bundan tashqari o‘qitish texnologiyalari loyixalashtirilgan.

Amaliy mashg‘ulotlarini olib borishning kirish-ma’ruza, mavzular asosan xom ashyo bilan ishlash, muammoli almashuv, vizuallashtirilgan amaliy mashg‘ulot va yakunlovchi asar ko‘rinishlari qo‘lanishlari.

Individual tarzda yoki guruhda bajarilishi, vaziyatli ishlanma – key-stadiyalari usuli, nazariy bilimlar asosida bilim va ko‘nikmalarini individualashtirishga yo‘naltirilgan amaliy topshiriqlarning bajarilishi.

Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning bu tarzda olib borilishi o‘quv jarayonining qiziqarli va jonli bo‘lishiga olib keladi.

Mazkur ta’lim texnologiyasi barcha badiiy kulolchilik O‘quv darsini olib borishda o‘qituvchi tomonidan qo‘llanishi mumkin.

1.1 Fanning maqsadi va vazifalari.

“Badiiy kulolchilik” fani bo‘yicha tuzilgan ushbu dastur DTS talablari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, Respublikamizda badiiy va ijodiy ta’lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash

borasida, ularning kasbiy maxoratlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli ijodkor mutaxassislarni ko'nikmalarini o'zida namoyon qiluvchi va sohaga qiziqish o'yg'ota oluvchi, o'z badiiy va ijodiy yo'nalishini topishda, badiiy kulolchilik san'atining nafis qirralarini o'rgatuvchi fan sifatida zaruriyat katta.

Bugun badiiy kulolchilik san'ati butun dunyo xalqlari e'tiborini

o'ziga rom etib katta qiziqishlar zahirida ijodiy kamol topayotgan bir davrda diyorimiz me'morchiligining sayqal topib ko'rk ochish zahirida bu fanni o'rganishdan maqsad bo'lg'uvchi mutaxassislarni badiiy kulolchilik san'atining tur va amaliy yo'nalishlari, ishlanish texnologiyalari, taraqqiyot bosqichlari an'analari o'rgatish, zamonoviy jarayonlarga malakaviy baho bera olish, yaratilayotgan badiiy asarlar ta'sirchanligini anglash, his etish va ularning ijodiy g'oyalarini oshirish, rivojlantirish yo'nalishlarini ko'rsata olish hamda mavjud jarayonlar va tarixiy faktlarga tayanib nazariy bilimlarni amalda bajarish malakasini oshirishdan iborat.

“Badiiy kulolchilik” fani kasbiy ta'lim sohalarining asosiy fanlaridan biri bo'lib amaliy san'at yo'nalishi bo'yicha uziy bog'liqligi sababli ushbu yo'nalishda o'qitiladigan asosiy fanlardan biri hisoblanadi CHunki badiiy kulolchilikni o'rganmagan talaba o'z hayoliy fantaziyasini ifoda eta olmaydi.

1.2. Fan bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar.

Talabalar loylar tarkibini bilish, unga ishlov berish va loyni o'z qo'llari bilan his etishdan boshlab amaliy san'at asarlarini badiiy yaratishgacha bo'lgan badiiy kulolchilik sirlarni, qonun qoida va talablarni mukammal o'zlashtirishlari va amalda bajarishlari, ilmiy asoslangan o'quv dasturi asosida tasvirlashni mukammal o'zlashtirishlarini talab etiladi.

Badiiy kulolchilik fanida loyga ishlov berishdan boshlab badiy asar yaratish sirlari o'rgatiladi. YAsash turlari

- . CHarxda yasash
- . Qo'lda yasash
- . Suyuq loylarni qoliplarga quyub yasash.

“Badiiy kulolchilik” fani bo‘yicha talabalarning bilimi, o‘quvi va ko‘nikmasiga qo‘yilgan talablar:

a) tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

- fanga tegishli bo‘lgan nazariy va amaliy

Ma’lumotlarni o‘rganish, aniq tasavvurga ega bo‘lishlari;

har bir elementga e’tibor bergan holda fan sirlarini to‘liq o‘zlashtirib olishlari kerak;

-Badiiy kulolchilik fanini bozor iqtisodiyoti sharoitidagi

o‘rni va ahamiyatini bilish.

b) bilish kerak:

-Talabalar kursni o‘zlashtirish jarayonida fanning mazmuni, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, fanning nazariy asoslarini;

-fanga tegishli bo‘lgan asosiy terminlarning izohini, yangiliklar, qonun-qoidalarni o‘zlashtirishlari zarur;

-o‘zgalarga ta’sir ko‘rsatish va o‘z-o‘zini boshqarish malakalari;

-o‘z iqtidori va qobiliyatlarini o‘stirish texnologiyalarini o‘zlashtirish;

-mehnat jamoalaridagi badiiy ijodiy iqlimni o‘rganish va uni muvofiqlashtirish;

-talabalar fanining mazmunidan kelib chiqqan xolda har bir mavzuga tegishli bo‘lgan kerakli adabiyotlardan foydalanishlari, ijodiy asarlar tayyorlashlari;

-kunlik darslarda kerakli ma’lumotlarni yig‘ishlari, noan’anaviy usullarning takomillashgan variantlarini ishlab chiqishda ishtirok etishlari;

-o‘z ustida mustaqil va ijodiy ishlash ko‘nikmala

-o‘zgalar mehnat va ijodiy faoliyatini holis va ob’ektiv baholash;

Bilim malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lish uchun talabalar quyidagilarni o‘zlashtirishlari lozim: jahon Badiiy kulolchilik san’ati rivojlanish bosqichlaridagi Badiiy kulolchilikning tur va janrlar, uslublarining rivoji xususiyatlari va taniqli namoyondalarini bilish, asosiy bosqichlari-ibtidoyi antik o‘rta asr, yangi va hozirgi

davr san'ati jarayonlarini tasavvur qilish, uslub va ijodkor dastgoxlarini ajrata olish hamda amalda shu san'at xususiyatlarini ko'rsata olishi kerak.

1.3. O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan mantiqiy bog'liqligi

Kasbiy ta'lim (amaliy san'at va muxandislik grafikasi) yo'nalishlarida badiiy kulolchilik fanini o'qitish jarayonida bir necha fanlar ya'ni, minatyura, yoog'och o'ymakorligi, kompozitsiya, naqqoshlik, san'at tarixi, rasm va rangtasvir kabi fanlar bilan aloqador.

1.4. Darsning informatsion-uslubiy ta'minoti.

Talabalarining "Badiiy kulolchilik" fanini yanada chuqur o'zlashtirishlarida o'qitishning ilg'or va zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarini tadbiq qilish muhimdir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, elektron adabiyotlar va elektron ko'rsatma materiallardan foydalaniladi. Kompyuter orqali badiiy kulolchilik asarlarining eng ilg'or zamonaviy namunalari va mualliflari hamda ularning ijodiy jarayonlari bilan tanishish. Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy (xususan interpol) metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediya ta'lim, amaliy dars maketlari, prezentatsion, elektron didaktik) texnologiyalari qo'llanishi nazarda tutilgan. Amaliyot natijalari asosida fanni puxta egallash masalalari uning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlaydi.

2. Asosiy qism

2.1. Amaliy mashg'ulotlar mazmuni, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Yangilangan pedagogik tafakkur va oddiy ta'lim muassasalarida Badiiy kulolchilik fanini o'qitishning badiiy ijodiy asoslarda yangilayotgan milliy talablar asosida ta'lim jarayonida ro'y bergan, borayotgan va bo'lishi muqarrar o'zgarishlarning asosiy xususiyatlarini ilmiy-nazariy jixatdan umumlashtirishga ehtiyoj seziladi.

Badiiy kulolchilik ta'limining o'zak masalalarini hal etmay turib, uning xususiy muammolarini to'g'ri echib bo'lmaydi-ki, aynan mazkur jarayon orqali shaxs ma'naviyati shakllantiriladi.

Badiiy kulolchilik fanining asosi amaliy mashg'ulotlari jarayonida ijodkorlikka yo'naltirish va musaqil amaliy san'at namunalari yaratish ustida ishlashni shakllantirishga yo'naltirilgandir. San'atda mazmun va g'oyaning eng yaxshi echimini topish, ijodiy maxoratini oshirish nafosat tarbiyasining zaruriy qismi muhim.

Badiiy kulolchilik fanini bo'yicha talabalarning badiiy va ijodiy bilimlari darajasini kengaytirish.

Badiiy kulolchilik ustolari merosi va ular g'oyalariga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, ko'nikmalarini shakllantirish.

Badiiy kulolchilik fanining dolzorb vazifalari muammolarini tushintirish, semestr bo'yicha o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar jarayonida musaqil fikrlashga o'rgatish. Fikrlarga oid ko'nikmalarni rivojlantirish, va muomala sirlarini o'rgatishdan iborat bo'lib, pirovardda bu bilim va ko'nikmalar orqali olgan bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish soxa va yo'nalishlarni aniq tasavvur etishga ko'maklashadi.

2.2.Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar o'tiladigan mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga qaratilgan. SHu boyisdan ham tanlangan ma'ruza mavzulari amaliy dars jarayonida talabaga tushintirish mavzusi bilan birga o'tiladi.

Mavzu: Loy tayyorlash.

Mavzu: O'yinchoqlar yoki badiiy kompozitsiyalar yasash.

Mavzu: Qog'ozda har-xil shaklni axtarish.

Mavzu: Loyda har-xil shaklni izlash.

Mavzu: Loyda ishlangan badiiy shakllarga sayqal berish.

Mavzu: Yasalgan badiiy asarlarga rang berish.

Mavzu: Xumdonda pishirish.

Mavzu: Xumdondan olib ishlov berish.

**4 bosqich KT guruxlariga. 7-semestr uchun badiy kulolchilik
darsidan
30 – soatlik (amaliy) ish dasturi**

№	Fanning bo‘lim va mavzulari	Ajratilgan soat	ko‘rgazmali qurol-lar va ishlash mohiyati.	Tavsiya etilgan adabiyotlar
1	Loy tayorlash.	4	O‘quv qo‘llanma va kitoblardan foydalaniladi Loyni ivitib suzmada suziladi	1-6
2	Loyni iylash	4	Loyni plastilin xoliga keltiriladi.	1. 5.
3	O‘yinchoqlar yoki badiiy kompozitsyalar yasash	4	Qog‘ozda chizib izlash	1-5
4	Qog‘ozda har-xil shakilni axtarish	4	Qog‘ozda chizib izlash	
5	Loyda har-xil shakilni izlash	4	Plastilinda yoki loy bilan shakillarni izlash	1.3.5.
6	Loyda ishlangan badiiy shakillarga sayqal berish	4	Loy ho‘l vaqtida gul yoki shakillar yasaladi	1.3.5.
7	YAsalgan badiiy asarlarga rang berish	4	Angoba, jo‘sha va bosha kulollar ranglari bilan ishlov berish hamda qurigan narsalarga sir berish	1-5
8	Xumdonda pishirish	1	Xumdonda ishlash va texnika xavfsizligiga rioya qilish	1-5
9	Xumdondan olib ishlov berish	1	Xumdondan olingan asarlarga yakuni ishlov berib, ko‘rgazmaga tayorlash	1-6

VII-semestr 30– soat amaliy Jami 30 soat.

Qo‘shimcha adabiyot

1. Soibov T.Z., Bekmatov S.T. “rangtasvir va interer” (o‘quv qo‘llanma) 2001 y.
2. Pamayunov V.N. “Risunok jivopisi” (uch pos.) 1971 g.
3. Beda G.B. “Jivopis i ee izobrazitelnoe sredstvo” (uch pos.) 1971 g.
4. Lexin A.D “Izobrazitelnoe iskusstvo xudojnikov” 1984 g.

Umumiy xulosa.

Taqriqot amaliy san'atning ayrim turlari – naqqoshlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, ganchkorlik va qisman yog'och o'ymakorligiga qaratilgan bo'lib, I bobda amaliy san'at turlari bo'yicha umumiy ma'lumot ma'lum bir tizim asosida keltirilgan. O'zbekistonning xalq san'ati va amaliy bezak san'ati milliy madaniyatimizning nodir qatlamini tshkil etib, tadqiqotchilar, arxeologlar va boshqa shu soxaga tegishli mutaxasislarni izlanihga chorlaydi.

Amaliy-bezak san'atining o'zagi bo'lmish naqoshlik san'atining amaliy san'atning barcha turlarida namoyon bo'lish xususiyatlari xaqidagi taxliliy muloxazalar o'zining ilmiy – nariy moxiyatini yoritgan.

Tadrijiy ketma-ketlik tizimikda o'zbek xalq amaliy san'atining rivojlanish bosqichlari yoritilib berilgan.

Badiiy talimda amaliy san'at fanlarini o'qitishning ahamiyati beqiyosdir. Shu nuqtaiy nazardan o'zbek xalq amaliy san'atining ta'lim tizimidagi moxiyati ham dolzarb masalardan biri bo'lib qolaveradi. Ustaxonadagi amaliy mashxullar mazmun va mohiyatida dav talabidagi nuqtaiy nazar yangi pedagogic texnologiyalar tadbiq etishni taqozo etmoqda. Dissertatsiya qiymati shundan iboratki, tadqiqotchi 1-son Samarqand pedagogika kolleji va Samarqand Qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejida o'tkazgan tajriba-sinov jarayonida dars samaradorligini oshirish uchun qaysi jihatlariga e'tibor qaratish aniqlandi va yutukli tomonlari targ'ib qilinishi maqsadga muvofiq bo'lib qoldi. Samarqand qurilish va milli hunarmandchilik kolleji yog'och o'ymakorligi fani o'qituvchisi taniqli o'ymakor usta Usta Akbarxon Barnoyevning dars o'tish uslubi boshqa turdosh kollejlarda o'qituvchilariga namuna sifatida targ'ib etish ta'lim sifatini yaxshilashga asos bo'lda. Kasbga qiziqtirish talabalar mahoratini oshirish uchun ustozdagi ijobiy fazilatlardan tashqari har bir shogirdni individual xususiyatlarini hisobga olib yondoshish hamda topshiriq qismlarini mohirona bajarib ko'rsatishlari dars saviyasini ko'tarishga omil bo'lgan.

Naqsh san'atini o'rganishda eng zarur tadbir – O'zbekiston dekorativ - amaliy san'atdagi badiiy ijodiyotning ana shu turi rivojlanishining tarixiy bosqichlari va qonunlari bilan tanishishdir. Xususan tarixiy materiallar o'quvchilarda badiiy naqqoshlik spetsifikasi, uning ko'rgazmali muhitini tashkil etishdagi , kishilar hayotidagi roli ya'ni nazariy estetik asoslari haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bu boradagi ishlanmalar ham tadqiqotning to'g'arak mashg'ulot to'g'risida keltirilgan ma'lumot va mulohazalarda o'z ifodasini topgan.

Zamonaviy amaliy san'at yoritilgan bobidagi an'ana va zamonaviy hamda uslubiy o'ziga xoslikning tahliliy mushohadalari dissertatsiyani amaliy nazariy asoslarini puxta o'zlashtirganligidan dalolat berdi. Amaliy san'atning barcha turlarini baravariga talqin etish ancha mushkul vazifa bo'lishiga qaramasdan dissertatsiyaning nazariy farazlari o'z yechimini topgan.

Amaliy san'at turlarining xilma-xilligi tadqiqotning konseptual o'zagini aniqlashga ma'lum qiyinchiliklar tug'dirgani sababli dissertatsiyada amaliy san'atning ayrim turlarida to'xtalish o'z isbotini topgan.

Ushbu vaziyat ma'lum darajada dissertatsiyadagi izchillik darajasiga ta'sir etgan.

Mustaqillik davrida milliy hunarmandchilik ba amaliy san'atni rivojlantirish chora tadbirlari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz shu sohadagi say-harakatlari Davlatimiz tomonidan chiqarilgan qaror farmonlar orqali amalgam oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga moslashuv mexanizmi amaliy san'at sohasida ham turli xil tanlovlar, yarmarkalar va sotuv ko'rgazmalar orqali ustalar mahsulotlarini moliyalashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida barcha amaliy san'at ustalarini ruhlantirib, sermazmun, o'ziga xos, rang-barang asarlar yaratishga chorlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: O'zbekiston. 1999. 62 bet.
2. I.A.Karimov Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O'zbekiston. 1996. 300 bet.
3. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat. 2008, 171 bet.
4. I.A.Karimov O'zbekiston mustaqillikka erishish ostanasida. -T.: O'zbekiston 2011. 440 bet.
5. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». -T.: Sharq, 1997.
6. A.Erkayev Ma'naviyat – millat nishoni. -T.: Ma'naviyat, 1997. 27 bet.
7. B.Q.Xolmatov Kompozisiya. –T.: Iqtisod-moliya, 2007. 172 bet.
8. B.Q.Xolmatov Naqqoshlik. –T.: Iqtisod-moliya, 2007. 84 bet.
9. Ye.V.Lebedeva, P.M. Черемных Искусство художника-оформителя. –М.: 1981, 162 str.
10. J. Barimbekov Kazaxskiy ornament. -Alma-Ata, 1986. 114 str.
11. K.M.G'ulomov Amaliy san'at. -T.: Iqtisod-moliya, 2008. 90 bet.
12. K.M.G'ulomov Ashyolarga badiiy ishlov berish. -T.: «Bilim», 2004. 80 bet.
13. K.M.G'ulomov, S.S.Bulatov Sharqona usta shogird odobi. -O'zROO'MTV o'quv adabiyotlari, jurnal va byuletenlarni nashrga tayyorlash markazi, 2000. 120 bet.
14. M.Imomnazarov Ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. –T.: Sharq, 1996, 46 bet.
15. M.X.Mirzaahmedov Yog'och o'ymakorligi. –T.: O'qituvchi, 1995. 62 bet.
16. M.K.Mirzahmedov Boshlang'ich naqsh ishlash metodikasi. –T.: O'qituvchi, 1976. 56 bet.
17. M.T.Semenova Narodnoye iskusstvo i yego problemy. -M.: 1977. 117 str.

18. Q.Q. Qosimov Naqqoshlik. –T.: O’qituvchi, 1990. 97 bet.
19. S.A.Solovev Dekorativnoye oformleniye. –M.: 1987. 56 ctr.
20. S.S.Bulatov Rangshunoslik. –T.: O’qituvchi, 2009. 160 bet.
21. S.S.Bulatov va M.Ashirov Amaliy san’at atamalar lug’ati. -Toshkent: Ensklopediya bosh red., 1991. 86 bet.
22. S.S.Bulatov, L.Dadashev Naqsh alifbosi. –T.: Cho’lpon, 1999. 58 bet.
23. S.S.Bulatov Ganchkorlik va naqqoshlik yog’och o’ymakorligi atamalariga izohli lug’at. -Toshkent: Mehnat, 1991. 89 bet.
24. S.S.Bulatov, M.Xaydarov Hunarmandchilik duolari. -Toshkent: 1994. 60 bet.
25. Djo’raev R.X., Taylaqov N.I., Rasulova G. A.. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun elektron o’quv qo’llanmalar yaratishga oid ilmiy-metodik talablar. «Uzluksiz ta’lim» ilmiy –metodik jurnali. 2 son 2005. 14-27 betlar.
26. Shodiev N. Sh. «Yangi pedagogik texnologiyalar» Samarqand -2005. 67 bet.
27. H.Egamov Buyoqlar bilan ishlash. –T.: O’qituvchi, 1981. 116 bet.
28. E.I.Ruziyev Grafik dizayn. –T.: 1993.
29. E.I.Ro`ziyev «Grafika» Intyegrativ kursining variativ dasturlari. –T.: 1997.
30. E.I.Ro`ziyev Tyexnik grafika va dizayn asoslari. –T.: 1995.
31. Abdullayev T.A. Remesla Uzbekistana XIX-XX v. “Fan” 1976.
32. Bulatov S.S. O’zbek xalq amaliy bezak san’ati- T.: “Mehnat” nashriyoti, 1991.
33. Bulatov S.S. Yoshlarga hunar o’rgatishning milliy, an’anaviy asoslari. Metodik tavsiya-T.: RUMM. 1993.
34. Bulatov S.S, Yo’ldoshev X.O, Turdiyeva Sh. E. Odobnoma (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma). T.: Nizomiy nom. TDPU 2002.
35. Gavlerov M.O. Relismennix silox Sredniy Aziix stamusax-risalya.: T. Izvistyia Srednazkommtarisa. 1928.

36. Gavrelov M. Risolya remislennikov – T.: Tip.kons. 1912
37. Charova P.A. Buxoro zardo'zlik san'ati. – T.: O'zbekiston 1986.
38. Kaykovus – Qobusnoma – T.: “O'qituvchi” 1986.
39. Nozimov D. “Armug'onim Sotimxon” Ustozlar haqida dilkash qissalar. T.: “Fan”, 1996.
40. Sa'di – Sheroziy. “Guliston”. T.: G'Gulom nom. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1968.
41. Usmonov M. San'atim – saodatim.-T.: “Yosh gvardiya” 1983.
42. Husayin Voiz Koshifiy Futu vatnamom sumioiy.-T.: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti.1994.
43. Shomaqsudov Sh, Shorahmedov Sh. “Ma'nolar maskani”.T.: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2001.
44. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u blik. T.: “Yulduzcha”. 1990.
45. Yoldoshev X.O. Bulatov S.S. Sharqona usta-shogird odobi. O'z.ROUMTV. 2000y.

Internet ma'lumotlari

Www.ART.ru
Www.Google.ru
Www.Ziyonet.ru
Www.referat.uz
Www.Yandex.ru
Www.yahoo.com
[www.n.b.g.t.intal.uz.](http://www.n.b.g.t.intal.uz)

ILOVA

BADIIY HAYOT SOLNOMASI

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi va Badiiy Ko'rgazmalar direksiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan "Navro'z - 2012" xalq hunarmandchiligi an'anaviy festivalida bixrom va polixrom kulolchiligi, kashtachiligi, musiqa asboblari, ganch o'ymakorligi bo'yicha mashhur maktablar xalq ustalarining asarlari namoyish etildi. Bayram ekspozitsiyasi 120 yillik tavallud yubileylari nishonlangan chitgar Usto Abdurahmon Abdug'ofurov, musiqa asboblari ustasi Usto Usmon Zufarov, ganchkor Usto Toshpo'lat Arslonqulov, Shahrisabzlik kulol Usto Abdukarim Hazratqulov kabi mashhur ustalarning 160 dan ortiq asarida iborat edi. Bu ustalar o'z bilimlarini bolalari, nevaralari, shogirdlariga o'rgatib, respublika xalq amaliy san'ati taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan. Unga katta bo'lmagan vernisajda o'zbek kulolchiligining Rishton, G'ijduvon, Xorazm singari barcha hududiy martablari, shuningdek O'zbekistonning turli an'anaviy maktablarining zamonaviy kashtalari namoyish etildi.

San'at jurnali 1/2012 41 bet 14-24 mart, MKZ. (markaziy ko'rgazmalar zali)

Kosmonavtlar kuniga bag'ishlab O'zbekiston Badiiy Akademiyasi TFU tomonidan o'tkazilgan "Zamin, inson, koinot" ko'rgazmasida 10 ta davlatning koinotni o'zgartirish tarixi ramziy aks ettirilgan kosmonavtika sohasi namoyondalari surati tushurilgan pochta markalar qo'yildi.

Xuddi shu joyda Toshkent, Jizzax, Urgut, Qo'qon, Surxondaryo kashtado'zlarining osmon, samo jismlari-quyosh, oy, yulduzlar tasviri turli uslubda uslublashtirilib tikilgan 15 ta an'anaviy palaklari namoyish qilindi.

San'at jurnali 2/2011 39 bet 12-30aprel, TFU. (Toshkent fotolar uyi)

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi hamkorligida mamlakatimiz mustaqilligining 20 yilligi munosabati bilan "Shakllar metamorfozasi" deb nomlangan amaliy bezak

san'ati ko'rgazmasini tashkil etdi. Ekspozitsiyaning asosiy qismini taniqli rassom-kulollar Nikiforova va Nataliya Domansivichning kulollik ishlari, shuningdek, Milena Tyurinaning gobilenlari egalladi. Ushbu asarlar o'zida milliy an'anaviy amaliy bezak san'ati an'analari va xalq ustalari boy merosini mujassamlashtirgani hamda ijodiy o'ziga xos uslubni namoyon etgani bilan e'tiborni tortadi.

San'at jurnali 3/2011 15-30 sentabr, Muxtor Ashrafiy uy muzeyi.

Badiiy ko'rgazmalar direksiyasi tomonidan o'tkaziladigan an'anaviy hunarmandchilik festevali bu yil o'zining 20 yilligini nishonlaydi. 2011 yilda uning doirasida taniqli yog'och o'ymakori va ustoz Usta Sulaymon Xo'jayevning 145 yilligi, Usta Uzoqboy Shermatovning 140 yilligi, ko'zagar usta Boboxo'ja Mirsalimovning 135 yilligi, kulol-naqqosh Usta Muso Ismoilovning 105 yilligi, buxorolik mashhur o'yinchoqsoz usta Hamro Rahimovaning 115 yilligi, g'ijduvonlik kulol Usta Usmon Umarovning 110 yilligi, Denov kulollik maktabi vakili Usta Mirzabadal Xalilovning 105 yilligi nishonlandi.

Ekspozitsiyada Badiiy ko'rgazmalar direksiyasi kolleksiyasi asarlari, shuningdek, "Hunarmand" uyushmasi yaratgan zamonaviy buyumlar namoyish etildi.

San'at jurnali 1/2011 15-aprel, MKZ. (markaziy ko'rgazmalar zali)